

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon Qizi

**XURSHID DAVRON IJODIDA
TARIXIY FAKT VA BADIY
TO‘QIMA UYG‘UNLIGI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 894.375
KBK: 83.3(50‘z)
U 89

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon Qizi.

Xurshid Davron ijodida tarixiy fakt va badiiy to‘qima uyg‘unligi
[Matn]: monografiya / Z.I. Usmanova. – Toshkent: Bookmany print,
2024. – 84 b.

Mas’ul muharrir:
Davlatova Adiba Raxmatovna,
ChDPU professori v.b., filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:
Tadjixon Sabitova,
ChDPU professori v.b., filologiya fanlari nomzodi.

Musa Sabirovich Tadjibayev,
O‘zDJTU professori, filologiya fanlari doktori.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati talabalarning tarixiy shaxslar obrazi poetikasiga oid nazariy qarashlarini boyitishi, xususan, lirik va epik turdagi asarlarga doir tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimidagi bakalavriat, magistratura bosqichlari uchun “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Badiiy tahlil asoslari” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlarini o‘qitishda manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligida ko‘rinadi.

Monografiya talabalar va maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashining 2024-yil 15-noyabrdagi 5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-312-1

© Usmanova Z.I., 2024.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida tarixiy-biografik janr, ulardagi tarixiy shaxs obrazlari poetikasi hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va uni milliy adabiyot sathida tadqiq etish zarurati filologiya sohasida ham jiddiy vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, jahon adabiyotshunosligida yozuvchi va shoirlarning tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi poetik izlanishlarini tadqiq etishning yangi metod va usullari paydo bo'lmoqdaki, bu badiiy asarning mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratmoqda. Adabiyotshunoslik fani o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash orqali tarixiy shaxs obrazlarining badiiy talqinini o'rganish muammolarini chuqurroq tadqiq etish yo'lidan boryapti. Zero, lirik, epik va dramatik turdagi asarlarda tarixiy shaxslar obrazlarining poetikasini tahliliy o'rganish ziyolilarning ma'naviy olami, dunyoqarashini, shuningdek, yozuvchilarning tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni ifodalashda muhim ahamiyatga egadir.

Dunyo adabiyotshunosligida, tarixiy shaxslar obrazi poetikasi muammosiga yangicha yondashish, badiiy-estetik xususiyatlarini yoritish, yozuvchi badiiy mahoratini ochish, tarixiy-biografik asarlarda poetik nutq va uslub masalasini anglash dolzarb ilmiy masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan tarixiy shaxs obrazi, tasvir va ifodaning o'ziga xos talqini bilan bog'liq. Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy shaxs obrazi poetikasiga nisbatan alohida yondashuvlar kuzatilyapti. Bu borada yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqinini chuqur va atroflicha tadqiq etish asosiy vazifa etib belgilandi. Darhaqiqat, tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqinini o'rganish muayyan davr prozasining badiiy poetik ko'lamini belgilashda alohida o'rin tutadi.

Istiqlol yillarida madaniy merosni tadqiq etish, milliy iftixor hamda qadriyatlarni anglash zarurati bugungi davr milliy adabiy merosi mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojidadagi munosib o'rnini asoslash, hozirgi o'zbek nazmi va nasriga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi

islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga bir qator yangi vazifalarni qo'yimoqda. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"¹. Shu sababli tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan asarlarni tarixiy manbalar bilan qiyosiy o'rganib, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash adabiyotshunoslik sohasida chuqur izlanish olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli farmoyishi, O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning 70 yillik yubileyiga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limi tomonidan "Xurshid Davron ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan 2022-yildagi respublika ilmiy konferensiya hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda tarixiy shaxslarning hayoti va madaniy va ma'naviy merosini o'rganish masalasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. R.Tursunova, O. Dadaboyev, M.Hamroyeva, D.Rasulmuhamedova, I.Sulaymonov, M. Abdullayeva, A.Nosirov,

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

B.To‘rayeva, Z.Rahimova, A.Ergashevalarning² dissertatsiya ishlarida, tarixiy ilmiy va badiiy asarlardagi tarixiy shaxslar obrazi³ Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga xos bo‘lgan qirralarni, ijodkor uslubi, poetik mahorati atroflicha, turli aspektda o‘rganilib, tarixiy shaxslar obrazining poetikasiga doir qimmatli fikrlarni o‘zida jamlagan.

Xorij adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, M.Xrapchenko, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, V.Jirmunskiy,⁴ kabi olimlarning dissertatsiya va ilmiy asarlarida adabiyotshunoslikdagi badiiy obraz masalasi, biografik asarlarning o‘ziga xosligi hamda tarixiy shaxs obrazini yaratishda mualliflarning turlicha yondashuvlari tahlil qilinib, nazariy xulosalar bildirilgan.

Tarixiy asarlar hamda ulardagi badiiy obraz⁵ masalasi keng ko‘lamda tadqiq etilgan bo‘lsa-da, xususan, tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini masalasi maxsus o‘rganilgan emas.

² Турсунова Р. Ғарбий Европа операларида Амир Темур образи Санъатшунослик фан.фал. док. дис. – Т.: 2020. 192 б.; Дадабоев О. Ғарб ва шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. филол.фан.фал. док. дис. – Т.: 2019. 150 б.; Ҳамраева М. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (Насрий асарларда Амир Темур образи). филол.фан.ном.дис – Термиз: 2010. 137-б.; Расулмуҳамедова Д. Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. филол.фан.фал. док. дис. – Т.: 2000. 147 б.; Сулоймонов И. "Бобурнома"да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири. филол.фан.фал. док. дис. . – Самарқанд: 2020. – 268 б.; Абдуллаева М. Тарихий насрий асарлар бадийтининг қиёсий таҳлили ("Бобурнома"ва "Шажараи турк" мисолида). филол.фан.фал. док. дис. . – Т.: 2008. – 152 б.; Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. филол. фан. док. дис. – Самарқанд: 2018. – 244 б.; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси. (О.Ёқубов ва П. Қодиров романлари мисолида). филол.фан.фал. док. дис. Т.: 2018. 158 б.; Раҳимов З. Одил Ёқубовнинг "Кўҳна дунё" романи поэтикаси. филол.фан.ном.дис. –Т.: 2000. – 137 б.; Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион тузилишидаги поэтик ўрни (Асқад Мухторнинг "Чинор" ва Одил Ёқубовнинг "Кўҳна дунё" романлари асосида). - филол.фан.ном.дис. –Т.: 1993. – 151 б.;

³ Muhammad Ali. Sarbadorlar. –Т.: G‘afur G‘ulom, 2011. – 560 б.; P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2015. 672-б. O.Yoqubov. Ko‘hna dunyo. Т.: Yangi asr avlodi, 2015. 480-б. P.Ravshanov. Amir Temur silsilasi. – Т.: Yangi asr avlodi, 2017. 656-б.

⁴ Белинский В. Танланган асарлар. –Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955. – 511 б.; Храпченко М. Горизонты художественного образа. – Москва.: Художественная литература, 1986. – 439 с.; Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Жўрақулов У. Таржимаси. –Т.: Академнашр, 2015. – 286 б.; Виноградов В. О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат, 1959. – 656 с.; Жирмунский В. Сравнительное литературоведение. – Ленинград: Наука, 1979. – 495 с.; Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского.– М.: Советский писател, 1963, стр. 338.

⁵ Самандаров И. Ўзбек тарихий романларида тарихийлик. филол.фан.ном.дис. –Т.: 1992. – 145 б.; Ҳажиева Ф. Биографик роман жанри хусусиятлари (И. Стоун, М.Қориев ва

O‘zbek adabiyotshunosligida so‘nggi yillarda yaratilgan badiiy timsollarning tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga muvofiqligi nasrning uch janri doirasida tekshirilib, tarixiy obrazning yaratilish tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Monografiyada quyidagilar qayd etilgan:

-badiiy obraz, tarixiy obraz va prototip atamalarining asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularni birlashtirib turuvchi jihatlarini ochib berish;

-lirik va nasriy asarlardagi badiiy obrazlar bilan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga oid tarixiy ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish, syujet voqealarining tarixiy-biografik asoslarini topish, bunday asosga ega bo‘lmagan to‘qima epizodlarni asarga kiritilish sabablarini aniqlash;

-Yozuvchi, shoir va dramaturg Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi asarlarida tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi poetik izlanishlarni tahlil qilish orqali yozuvchining badiiy mahoratini ko‘rsatish;

-tarixiy-biografik asarlarda tarixiy shaxslar obrazining individual xususiyatlarini, muallifning o‘ziga xos yondashuvini ko‘rsatish;

Н.Норқобилов асарлари қиёсида). филол. фан.б.ф.док. (PhD) дис. –Т.: 2018. – 153 б.; Каримов Ҳ. Тарихий шахс ва бадий образ. филол.фан.ном.дис. –Т.: 1999. – 151 б.; Муродов Ғ. Тарихий романинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. филол.фан.док.дис. (DSc) –Т.: 2018. – 263 б.; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари. филол.фан.ном.дис. –Т.: 2001. – 129 б.; Раҳматов Й. Тарихий дostonларда тарихий шахс образининг эпик талқини (“Ойчинор” ва “Шайбонийхон” дostonлари мисолида) филол.фан.ном.дис. –Т.: 2009. – 139 б.; Юлдошева С. Бадий-биографик қиссалар поэтикаси (“Қиссаи Иброҳим Адҳам”, “Қиссаи Сайид Насимий”, “Қиссаи Машраб” асарлари асосида). филол.фан.ном.дис. – С.: 2012. – 155 б.; Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат (60-80 йиллар). филол.фан.ном.дис. – Т.: 2001. – 132 б.; Шарафиддинов О. Чўлпон. – Т.: Чўлпон, 1991. – 112 б.; Қўшжонов. М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1994. – 136 б.; Қуროнов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – 287 б.; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016. –362 б.; Каттабеков А. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной узбекской прозе. дисс.док.филол. наук. – Т.: 1986, - 398 с; Ўша муаллиф. Тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат. – Т.: Фан, 1982. – 128 б.; Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. –Т.: Фан, 2005. – 170 б.; Мирвалиев С. Ўзбек романи. –Т.: Фан, 1969. – 313 б.; Ўша муаллиф. Абдулла Қодирий кашфиёти. –Т.: MASHNUR-PRESS, 2018. – 208 б.; Мухаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси. филол.фан.док. (DSc). дис. – Ф.: 2022. – 250 б.

-tarixiy-biografik asarlarning poetik nutq va uslubiy o'ziga xosligini ochib berish hamda dialogning badiiy obraz xarakterini ochishdagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning "Bahordan bir kun oldin", "Shahardagi olma daraxti", "Qadrdon quyosh", "Sohibqiron nabirasi", "Samarqand xayoli" kitoblarida turkiy millatning eng buyuk namoyondalari Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, jadid adiblaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosirlarning badiiy siymosini o'rganish, o'zbek adabiyotida ijodkor obrazini yaratishdagi muhim jihatlarni aniqlash, tarixiy shaxs obrazi bilan prototipni qiyosiy aspektda tahlil qilish, badiiy haqiqatning tarixiy haqiqatga nechog'li mos ekanligini tekshirish tashkil etadi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, psixologik, germeneytik hamda lingvopoetik usullardan foydalanildi.

I BOB. TARIXIY SHAXS OBRAZI MASALASI

1.1. Badiiy asarda prototip va obraz masalasi

Adabiyotshunoslikdagi obraz tushunchasi bir qancha turlarga bo‘linadi. Ularning ikki yetakchi xususiyati mavjud bo‘lib, birikchisi tipik, ya’ni umumlashma obrazlar, ikkinchisi prototip obrazlar hisoblanadi. “Adabiyotshunoslikda obraz atamasi ta’rifida ham uning yaratilish usullari haqida so‘z yuritilgan: “...ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllangan, uning badiiy to‘qimasida aks etgan, ma’lum g‘oyani tashuvchi inson hayotining konkret va ayni paytda umumlashma tasviri obraz deb ataladi.”⁶

Prototip obraz yaratish muallifdan ko‘proq bilim, mehnat va tajriba talab etadi. Negaki, haqiqiy hayotda asliga – protipiga ega bo‘lgan adabiy qahramonlarni gavdalantirish yozuvchidan o‘tmishda yashab o‘tgan insonlarning tashqi ko‘rinishi, xarakteri, ijtimoiy va maishiy hayotiga doir ko‘plab tarixiy materiallarni chuqur tahlil qilish, ularni qiyosiy o‘rganish, haqiqatga oid, yozuvchi ijodiy niyatiga uyg‘un keluvchi nuqtalarni topish va undan samarali foydalangan holda badiiy haqiqatni yarata olish, ma’lumotlarni saralay olish salohiyatini talab etiladi. “Prototip asosida obraz yaratishda yozuvchi konkret tarixiy shaxsdan shundayicha nusxa ko‘chirmay, balki o‘z mahorati doirasida uning eng muhim, eng yetakchi tomonlarini oladi, xolos. Ayrim hollarda yozuvchi bir prototipdagi hayotiy materialni boshqa shunga o‘xshash hayotiy materiallar hisobiga boyitadi. Shuning uchun ham realistik adabiyotdagi har bir obraz ham ma’lum ma’nodagi hayotiy prototiplarga ega. Chunki yozuvchi ko‘plab kishilarni kuzatish asosida obraz yaratadi.”⁷

Misol tariqasida Amir Temurga bag‘ishlangan yuzlab manbalar mavjud bo‘lib, ayrim muarrixlarning Sohibqironga bo‘lgan muhabbati yoxud nafrati natijasida o‘quvchi tasavvurida ikki xil munosabat paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yozuvchi qator manbalarni jiddiy o‘rganishi, muallifning shaxsiy munosabatini tarixiy haqiqatdan ajrata bilishi kerak. “Kristofer Marlo Amir

⁶ Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Т.: Ўқитувчи. – Б. 207.

⁷ Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 245-246.

Temurni xalqlarni jazolash uchun ato etilgan «xudoning qamchisi» deb tasvirlaydi. Yevropalik tarixchi olimlarning barchasida xuddi shunday talqinni uchratish mumkin. «Sohibqiron Temur» umumjahon adabiy jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Amir Temur mavzusiga nemis adabiyotida Gyote, ingliz adabiyotida Bayron, Edgar Po, ozarbayjon adabiyotida Husayn Jovid, rus adabiyotida Bunin, o'zbek adabiyotida Abdurauf Fitrat ("Temur sag'anasi" nomli bir pardali fojia) murojaat etadi. Shu tariqa dunyoning turli madaniy iqlimlarida adabiyotlararo jarayonda yangidan-yangi mushtarakliklar paydo bo'ladi."⁸

Yozuvchi Xurshid Davron Amir Temur obrazini yaratishda Sohibqiron davrida va shaxsan o'zining nazorati ostida yaratilgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sohibqiron tarixchilaridan biri G'iyosiddin Alining "G'azovoti Hindiston", Hofizi Abro'ning Shomiy "Zafarnoma"siga yozilgan "Zayl"i, arab tarixchisi Ibn Arabshohning "Sohibqiron Amir Temur tarixi", temuriy shahzoda Ibrohim Sultonning ko'rsatmasiga binoan yozilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlarini sinchiklab o'rganadi, ulardagi tarixiy ma'lumotlarni o'zaro qiyoslaydi, eng ishonchli va ko'plab manbalarda aynan takrorlangan voqealarni asos sifatida keltirib badiiy haqiqat yaratishga harakat qiladi. Yozuvchining mahorati shundaki, u qator ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik aspektda o'rganish natijasida tarixiy shaxs obrazini ijtimoiy hayotdagi eng oddiy voqelikdan ruhoniylar olamining eng yuksak darajasiga olib chiqaradi.

Xurshid Davron nafaqat Amir Temur va temuriylar obrazi, balki yaqin o'tmishimizda yashagan, millat qayg'usida, uning mustaqilligi va fikr erkinligiga erishish yo'lida fidoyilik ko'rsatgan millat oydinlari – jadidlar haqida ham qator she'rlar bitdi. "Adabiyotshunos A.Kattabekovning "Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat" nomli monografiyasi tarixiy proza taraqqiyotining muhim masalalari tadqiqatiga bag'ishlangan bo'lib, ularda davr ijtimoiy muammolarini haqqoniy aks ettirish masalasi, tarixiy romanda shaxs konseptsiyasi, badiiy til mahorati hamda tarixiy roman va tanqidchilik kabi muhim masalalar adabiyotimizning so'nggi davrdagi yutuqlari misolida

⁸Abduazizova N. Istiqlol matbuoti va Sohibqiron Amir Temur. – T.: "Akademiya", 2005. B.16.

tadqiq qilingan. Tarixiy romanlarda ijodkor obrazini yaratish masalasidagi asosiy tamoyillar haqida to'xtalib, shunday qarashlar ilgari surilgan: "... ijodkor shaxs obrazini yaratishdagi muhim masalalardan biri – uning o'z davri bilan mustahkam aloqasini ko'rsatib berishdan iboratdir." Negaki, ular oddiygina tarixda yashab o'tgan shaxslar emas, ular o'zi mansub bo'lgan davr tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan, uni o'zgartirishga, yaxshilashga harakat qilgan zotlardir. Shu sababli ularni o'z davrining kishisi sifatida tasvirlashga ko'proq ahamiyat berish lozim."⁹

Tarixiy shaxslar obrazini badiiy ifoda etishning murakkab jihatlari bo'lishiga qaramay Xurshid Davron bu qiyinchilikni mahorat va sabot bilan yenga oldi. Masalan, uning asarlarida tarixning quruq faktlari emas, balki badiiy mushohadasi bilan boyitilgan jonli o'tmish manzarasi ko'z o'ngizimizda gavdalanadi. Qolaversa, ijodkor o'zi tasvir va tavsiflayotgan davrning ibratli qirralarini o'quvchi ongiga singdirishga harakat qiladi. Millatimizning bizdan atayin yashirilgan tarixiy sahifalarini ochiqlashni maqsad qiladi.

Badiiy asarning muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi, syujeti, badiiy asar yaratilishi uchun asos bo'lgan hodisa va yozuvchiga ilhom bag'ishlagan holatlar badiiy obrazlarning naqadar jonli va yozuvchi estetik idealiga naqadar mosligi bilan bog'liqdir. Tarixiy shaxs obrazini tadqiq qilishda prototip masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da prototip atamasi quyidagicha izohlangan: "Prototip (yun. Prototypon – obraz asosi) – adabiy asardagi obrazning yaratilishiga asos bo'lgan real shaxs. Prototip badiiy obraz uchun material bo'lib, uning yozuvchi badiiy niyatiga muvofiq qayta ishlanishi asosida badiiy personaj – badiiy obraz yaratiladi. Ya'ni badiiy personaj hech vaqt prototipning aynan o'zi emas, balki uning yozuvchi ijodiy tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga kelgan "badiiy egizagi"dir: ular orasida o'xshashlik bor, aynan moslik emas. Shuning uchun hujjatli asarlardagi personajlardan farqli ravishda, badiiy asarlardagi prototip asosida yaratilgan personajlar ko'proq o'zga nom bilan harakatlantiriladi."¹⁰

⁹ Mansurova M. Hozirgi o'zbek nasrida jadid adiblari obrazining badiiy talqini. fil.fan. fal. dok. – T.: 2022. B. 23.

¹⁰ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.— Т.:Академнашр, 2013. – Б. 236-237.

Bugungi kunda yozuvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘tmish voqeligining haqqoniy manzarasini, shoh-u shoirlarning ilmiy asoslangan obrazini yaratish, xalq va millat uchun zarur bo‘lgan masalalarga bag‘ishlangan syujet chiziqlari bilan boyitish talab eiladi.

Tarixiy voqelikni badiiy tasvirlashning o‘ziga xos jihati shundaki, yozuvchi hayotiy haqiqatni shundayligicha asarga olib kirmaydi, balki undagi bosh qahramonlar jasorati, aql-u salohiyati, amalga oshirgan ishlarini yaqqol tasavvur etish uchun yordamchi to‘ima obrazlarga ham murojaat etadi. Xurshid Davronning tarixiy asarlarini o‘qib tahlil qilganimizda, hikoya qilinayotgan davrga xos eng nozik jihatlarni ham qalimga olganiga guvoh bo‘lamiz. Davr manzarasini chizar ekan, makon va zamon chegaralarini aniq tasavvur etadi. Muayyan manzilga xos geografik, etnologik tushunchalar obraz yoki badiiy asarning umumiy kompozitsiyasiga mahorat bilan singdirib yuboriladi. Liboslar, zeb-u ziynatlar, qurol-aslahalar, maishiy jihozlar, interyer va eksteryer manzarasidan tortib zeb-qahramonlarning nutqi, davr til xususiyatlariga ham jiddiy e‘tibor qaratadi. Bu orqali yozuvchi qator maqadlani nazarda tutgan bo‘ladi. Birinchidan, tarix va bugun o‘rtasida munosib ko‘prik bo‘lish; ikkinchidan, hayoti va faoliyati ibrat olishga munosib insonlarni ideal sifatida tasvirlash, aksincha, Vatan va millat taraqqiyotiga xiyonat qilgan ayrim sotqin, nobakor, qo‘rqoq kimsalarning asl qiyofasini ro‘y-rost ko‘rsatish; uchinchidan, ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlari kuchayib ketgan bugungi kunda yoshlarni asl madaniy o‘zanlarga qaytarish; insonlar tasavvurida paydo bo‘lgan soxta tarix, turfa munosabatlarga chek qo‘yish va hokazolardir.

Obraz yaratish borasida prototipning ahamiyati va unga yuklangan funksional vazifalarga doir ilmiy tadqiqotlar rus adabiyotshunosligining ham salmoqli qismini tashkil etadi. Nazariy adabiyotshunoslikka oid “Kratkaya literaturnaya entsiklopediya”da prototipga oid quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Prototip (grek. ilk obraz) – tasvir, tur yoki adabiy qahramon yaratilishida muallifning asl g‘oyasiga xizmat qilgan haqiqiy inson. Adabiy qahramonning ma’nosi va qiymati – inson qiyofasi – ijodkor tomonidan qo‘llanilgan bevosita “material”dan ko‘ra kengroqdir.”¹¹

¹¹ Краткая литературная энциклопедия. – М. 1971, – С. 54-55.

Umuman olganda, tarixiy jarayonni ifodalashda she'riyatdan ko'ra, nasrning imoniyatlari kengroqdir. Shuning uchun ham jahon adabiyotida tarixiy mavzudagi hikoya, qissa va romanlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu borada rus va Yevropa adabiyotida misollar ko'p bo'lib, asosan, Uilyam Shekspir, Lev Tolstoy, Uolter Skott, Aleksandr Pushkin, Lyusen Keren, Mixail Ivanin, Herman Vamberilarning ijodiy loyihalarida uchraydi.

Adabiyotshunos olim T.Boboev "Adabiyotshunoslik asoslari" kitobida ham realizm adabiyotida keng qo'llaniladigan badiiy obraz yaratishning ikki usulini keltiradi:

1. Umumlashtirish yo'li bilan obraz yaratish. Bu usulga olim quyidagicha ta'rif bergan: "San'atkor hayotdagi ko'plab odamlar turmushini, ichki dunyosini, urf-odatini, ruhiyatini, mehnat faoliyatini puxta o'rganish asosida ularning eng muhim belgilarini, tipik xususiyatlarini saralab, tanlab oladi, umumlashtiradi, sintezlashtiradi, badiiy bir butunlikka yig'ib, konkret shaxs obrazi orqali ifodalaydi". Bu usulda obraz yaratishda yozuvchi o'zini ancha erkin his qiladi, chunki unga hech qanday chegara qo'yilmaydi. Ijodkor o'zining boy hayotiy tajribasi, kuzatishlaridan foydalanib, jonli inson obrazini yaratishga erishadi.

2. Prototip asosida badiiy obraz yaratish. Bunda muallif dastlab prototip atamasining ma'nosini izohlashga uringan: "Prototip (yunon. Prototypon: protos – ilk, dastlabki, boshlang'ich; typos – nuqta, nishona, obraz) adabiyotshunoslikda badiiy obrazni yuzaga keltirishda negiz, asos, o'zak, bosh yo'nalish nuqta, poydevor sifatida xizmat qiluvchi real shaxs (hayotda bo'lgan tarixiy shaxs) ma'nosida qo'llaniladi."¹²

T.Boboevning "Qahramon obrazini yaratish printsiplari" nomli maqolasida ham prototip asosida obraz yaratish tamoyillari haqidagi adabiy-nazariy qarashlari muhimdir: "Agar yozuvchi asar qahramoni uchun hayotdan birgina shaxsni prototip qilib tanlasa va shu tarixiy shaxsning biografiyasi faktlariga asosan rioya qilsa, unda asar tarixiy-biografik xarakter kasb etadi ("Navoiy", "Hamza" kabi)". Prototipning tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi o'rni va vazifasiga to'xtalar ekan, "Badiiy ijod protsessida prototip san'atkor uchun hayotni estetik jihatdan o'zlashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi.

¹² Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 55.

Yozuvchi badiiy obraz yaratishda yana bir qator murakkab jarayonlarni amalga oshiradi. Chunonchi, adabiyotda badiiy to'qimasiz, ijodiy fantaziyasiz yorqin badiiy obraz yaratib bo'lmaydi", – degan xulosaga keladi.¹³

Prototip obrazlar faqatgina tarixda yashagan bo'lishi shart degan qoidaning o'zi yo'q. Jamiyatda o'z o'rniga ega, ba'zi ibratli shaxslar ham yozuvchiga ilhom berishi, unga bag'ishlab asar yozishiga sabab bo'ishi tabiiy holdir. Masalan, Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom ijodida prototipi mavjud zamondosh insonlar obrazi uchraydi. Bu haqida adabiyotshunos olim B.Karimovning ham quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Badiiy asar uchun jamiyatdagi muayyan shaxslar prototip vazifasini o'tashi tabiiy. Biroq badiiy qahramonlar bilan hayotidagi ma'lum bir shaxslar orasiga tenglik alomati qo'yish bu adabiyotshunoslik ilmiga munosib emas. Ammo yozuvchining haq-huquqlarini, qahramonlarini yuzaga chiqarishdagi usullarini hech bir kimsa chegaralashga haqqi yo'q. Zero, badiiy obraz voqelikdagi kimlargadir o'xshab ketishi ham, mutloq farqlanishi ham mumkin."¹⁴

Yuqoridagi qarashlardan ham ko'rinadiki, yozuvchi bu prototiplarni shundayligicha asarga olib kirmaydi, balki ulardgi yozuvchini hayratga solgan, o'ylantirgan jixatlarga asosiy e'tiborni qaratadi, asardagi dialoglar, voqealar rivoji mutlaqo yozuvchi ixtiyorida bo'lib, hayotiy shaxs va obraz o'rtasidagi tafovutlarni keltirib chiqarishi badiiy ijod mantig'iga ko'ra to'g'ridir.

Bu borada yan bir adabiyotshunos olim A.Ulug'ovning ham ilmiy qarashlari mavjud bo'lib, u "Adabiyotshunoslik nazariyasi" darsligida prototip va adabiy qahramon obraziga quyidagicha ta'rif bergan: "Prototip adabiy qahramon obrazini yaratishga asos sifatida tanlab olingan real insondir. Ammo adabiy qahramon hayotdagi odamning aynan o'zi emas. Adabiy qahramon insonning ijodkor tomonidan muayyan badiiy niyat bilan yaratilgan obrazidir."¹⁵

Aslida umumlashma obrazlar negizida ham yozuvchiga zamondosh ayrim shaxslar prototipi bo'ishi aniq. Faqat ijodkor

¹³ Бобоев Т. Қаҳрамон образини яратиш принциплари. // Ўзбек тили ва адабиёти. № 1. 1970. Январь-февраль. "Фан" нашриёти. – Б. 20.

¹⁴ Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т.: Академнашр, 2014. – Б. 188.

¹⁵ Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. –Т.: Фафур Фулом, 2018, – Б. 97.

ularni saralaydi, yetakchi xususiyatlariga ko'ra tur va tiplarga ajratadi va obrazga singdirishga intiladi. Faqat tarixiy shaxs emas, balki zamonaviy mavzudagi asarlardagi qahramonlar qiyofasida ham aslida "kimdir"ning nusxasi mavjud bo'ladi. Masalan, Dante Aligyerining "Ilohiy komediya" asarini o'rgangan qator olimlar unda tasvirlangan ba'zi qahramonlardagi xususiyatlar shoir zamondoshlariga xos ekanligini ta'kidlaganlar. Demak, asar tahlilida albatta ijodkor yashagan davr, ijtimoiy-ma'naviy muhit, eng muhimi uning ijodiy a'molini e'tiborga olish kerak.

"Tarixiy mavzuga murojaat qilishning murakkab tomonlari ko'p. yozuvchi qalimga olingan davrni chuqur o'rganishi, tarixiy haqiqatga to'la rioya qilishi, ayni zamonda tarixiy voqealarning bugungi kunga hamohang tomonlarini bo'rttirib ko'rsatishi lozim. Aks holda tarixiy voqealarga murojaat qilishning ahamiyati bo'lmaydi."¹⁶

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov qalamiga mansub "Sohibqiron" dramasi milliy adabiyotimizda Amir Temur shaxsiyati asosida yaratilgan eng yetuk asarlar sirasiga kiradi. Ammo asarda shunday holatlar, dialoglar borki, ular tarixiy haqiqatga mutlaqo mos kelmaydi.

Dramadagi eng hayajonli ko'rinishlardan biri, shubhasiz, Amir Temur, amir Husayn va Uljoy Turkon og'oning suhbatlari. Ammo tarix haqiqatlariga yuz buradigan bo'lsak, bunday suhbat bo'lishi mumkin emas. Chunki Uljoy Turkon og'o 1366-yilda kasallik tufayli vafot etadi. Amir Husayn esa 1370-yilda o'ldiriladi. Shoir bu sahnani o'quvchi qalbidagi nozik hislarni chertish, Amir Temurning keskin va shiddatli hayotini yanada hayajonliroq ifodalash maqsadida dramaga kiritgan bo'lishi mumkin.

Asardagi yana bir diqqatli o'rin Ibn Arabshoh bilan bo'lgan suhbat. Sohobqiron vafotidan keyin qisqa davr ichida yaratilgan asarlardan biri Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur, fi tarixi Taymur" kitobidir. Bu asar boshqalaridan muallifning Sohobqironga bo'lgan shaxsiy adovatining to'la namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bolaligida Amir Temur askarlari tomonidan Ona Vatani - Damashq shahrining vayron etilishini ko'rgan, Samarqandga oilasi

¹⁶ Shermuhamedov P. Davr qahramon taqdirida. – T.: "G'afur G'ulom", 1976. B. 97.

bilan tutqun sifatida keltirilgan bu yosh olim hech qachon sarkardaga hayrihoh bo'lmagan. Amir Temur haqida tarqalgan "qaroqchi, savodsiz, qonxo'r kallakesar" kabi iddaolarga ham shu asarda keltirilgan ma'lumotlar asos bo'ladi. 1401-yilda Ibn Arabshohning Samarqandga keltirilishi va xuddi shu yili Amir Temurning topshirig'i bilan Nizomiddin Shomiyga "Zafarnoma"ni yozish topshirig'ining berilganligini hisobga olsak, bu suhbat Amir Temur va Shomiy orasida kechsa haqiqatga yanada yaqinroq bo'lardi.

1.2. Tarixiy voqelik tasvirida fakt va talqin muammosi

XX asrning 80-yillariga kelib sobiq SSSRda har tomonlama tanazzul jarayonlari kuzatildi. Bu holat, ayniqsa, xalq turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy qarashlarida o'z aksini topdi. Ya'ni, insonlar ongiga singdirilgan g'oyalarning ma'nan eskirganligi, aslida qizil shiorlarning yolg'on bir xayol ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi. Bunday vaziyatdan cho'chigan sovet hukumati tomonidan turli rejalar tuzilib, 1985-yilda "Qayta qurish" nomi bilan tarixga kirgan yangi siyosiy harakatga kirishildi. Buning targ'ibotchilari "Qayta qurish" nomi bilan jamiyatni tubdan isloh etish, barcha sohalarda yangiliklarni targ'ib qilish, xalq hayotini yaxshilash, shu zaminda yashovchi millat va elatlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi hayotiy zarurat yotganligini ta'kidladilar.

Ammo bu siyosatning asl maqsadi jamiyat hayotini sun'iy ravishda jadallashtirish, xalq ongi va shuurida partiya hukumatining ta'sirini mustahkamlashdan iborat edi. Bunday o'zgarishlar rahbariyat kutgan natijani berish o'rniga aksiga xizmat qildi. Buni birgina adabiyot sohasida ham ko'rish mumkin edi. Umuman olganda, madaniyat, adabiyotning rivoji bevosita tarixiy voqeliklarga bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Milliy o'zligimizdan ancha vaqt ayro tushgan xalqimiz fidoyilari tarixning bu evrilishlaridan samarali foydalandilar. Milliy qadriyatlarni tiklash, tarixga xolis ko'z bilan boqish va uni yoritish, ma'naviy merosga hurmat borasida sezilarli jonlanishlar ko'zga tashlandi. Bu davrda ijod maydoniga kirib kelgan yosh shoir va yozuvchilar badiiy tafakkurida hurfiylik, xalq o'tmishini tiklash, yorqin kelajakka ishonch ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi. Maishiy hayotdagi tanazzullar, ijtimoiy-

iqtisodiy turg'unlik, madaniy merosdan mahrumlik kabi eng og'riqli nuqtalar muhokama markaziga olib chiqildi.

Ijodkorlar endi faqat kuzatuvchigina emas, balki xalq hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarning faol ishtirokchisiga ham aylandi. Bu kabi evrilishlar hodisalar mohiyatini anglab yetish, teran tahlil qilish, ularni xolis baholash uchun imkoniyatlar eshigini ochdi.

Shu yillarda faol ijod qilgan ko'plab yozuvchi va shoirlarning asarlarida sovet hukumatining yolg'onlarini fosh etishga qaratilgan fikrlar, obrazlar maydonga kela boshladi. Bu davr badiiy adabiyoti hamda adabiyotshunosligidagi inqilobiy hodisalarning eng avvalida qatag'on qurbonlarining mash'um taqdiri, vatan oldidagi xizmatlari, ular haqidagi tarixiy haqiqatning qayta tiklanishiga qaratilgan e'tibor diqqatga molikdir.

M.Jo'raev, R.Nurullin, S. Kamolovlar tomonidan tuzilgan "O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekistan sovet mustamlakachiligi davrida" kitobi mazmuni bilan tanishar ekanmiz, "Sovet davlati o'z tarixining dastlabki davridan boshlab uzluksiz ravishda milliy kadrlar, olimlar, adabiyot va san'at arboblari safini «tozalab kelgan». Ana shunday «tozalash» kampaniyalari natijasida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir singari qatag'on qurbonlarigina emas, balki o'z ajallari bilan vafot etgan M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Alaviy singari o'nlab yozuvchilar ham «xalq dushmani» deb e'lon qilindi va ular adabiyotimiz tarixidan sun'iy ravishda chiqarib tashlandi. Kommunistik partiyaning XX syezdidan keyin begunoh qamalgan qator yozuvchilar oqlanganiga qaramay, Cho'lpon va Fitrat singari yozuvchilarning adabiy xizmatlarini tiklash oson bo'lmadi. Sovet tuzumining mahalliy «posbonlari» ularning ijodkor sifatida oqlanishi va asarlarining xalqqa qaytarilishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatdilar,"¹⁷ – degan ma'lumotlarga duch kelamiz. Tadqiqotda aynan mana jarayondagi adabiy muhit, undagi o'zgarishlar, shoir va yozuvchilarning kayfiyati, badiiy adabiyotning mavzu ko'lami tahlil etiladi.

Oshkoralik davriga kelib, jadid namoyondalarining asarlari qisman qayta tiklandi, gazeta va jurnallarda chop etilib, xalqqa yetkazildi, ular faoliyatiga doir izlanishlar amalga oshirildi. Milliy

¹⁷ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekistan sovet mustamlakachiligi davrida //Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S. Kamolov va b; — T.: "Sharq", 2000. B. 655.

adabiyotimiz tarixiga oid manbalar, tarixiy shaxslar hayotining to'g'ri talqindagi badiiy ifodasi Xurshid Davron ijodining ham xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Masalan, "Qodiriyning so'nggi surati", "Kechir asrim", "Qodiriyning o'qib", "Bu odam uyida kitob asramas", "Cho'lpon", "Usmon Nosir", "Vataniga qurbonlar qaytsa", "Abdulhamid Cho'lpon", "1937-yil", "Shoirlarni otgan jallodlar" kabi bir qator she'rlari aynan jadidlar ijodini o'rganish, ular haqidagi asl haqiqatni xalqqa yetkazish, vatanning mard o'g'lonlari tarixini badiiy talqin etishga bag'ishlangan. Asarlarning har bir satrida millatparvar jadid ziyolilariga xos hassoslik va Xurshid Davronning olovli nafasi uyg'unlashib ketgandek taassurot uyg'otadi. O'z yurtida ko'rgan qatag'on va xorlik, zulmga qarshi faryod va eng yomoni jonidan ortiq sevgan xalq nomidan "xalqning dushmani"ga aylantirilgani shoir qalbida alamli iztiroblarni yuzaga keltiradi. Millat oydinlarining o'z yurti va erki uchun kurashgani holda qatliom etilgani, bu bevosita va bilvosita sovet hukumati "qatag'on mashinasi"ning ijrosi o'laroq voqe bo'lgani, lekin bu holat ona xalq qalbidan, ko'zidan yashirin tutilgani asl haqiqatni anglagan shoirni cho'ng iztirobga soladi:

*Bu odam uyida kitob asramas,
Chunki u kitobdan juda qo'rqadi.
Bu odam kitobning o'zidan emas,
Kitobda bitilgan So'zdan qo'rqadi.¹⁸*

Mazkur misralar aynan oshkoralik davrida yozilgan bo'lib, shoir qalbida uyg'ongan og'riq va achinish betakror asarga aylangan. Ko'rinib turibdiki, mazkur she'r tarixiy jarayon, jamiyatdagi o'zgarishlar natijasi bo'lib, asarni tabiiy ravishda sotsiologik metod asosida tahlil qilishni taqazo etadi. Taniqli adabiyotshunos olim Bahodir Karimov: "Bu metod negizida badiiy adabiyotga ijtimoiy hodisa sifatida qarash yetakchilik qiladi. Adabiyot namunalarini shu usul bilan tadqiq etishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni, madaniy muhit, adabiy-tarixiy shart-sharoitni inobatga olish muhim sanaladi,"¹⁹ – deb takidlaydi. Bu bilan biz shoir ijodida jamiyat tarzi ifodalangan degan, fikrdan yiroqmiz. Lekin o'sha davrdagi yetilgan sharoit unutilgan kechmish, milliy adabiyotning asl mohiyatini

¹⁸ Xurshid Davron. "Bahordan bir kun oldin". – T.: "Sharq", 1997. B.62.

¹⁹ B.Karim. "Ruhiyat alifbosi". – T.: "G'afur G'ulom" NMIU, 2018. B. 156.

maqsad qilgan asarlarni xalq qalbiga qaytarish ehtiyojini maydonga keltirgan edi. Shu nuqtai nazardan, yuqoridagi parcha Xurshid Davron ijodiy konsepsiyasida lirik qahramonning ruhiy olamini, ijtimoiy holatini juda aniq va teran ifodalashga yo'naltirilganini ko'rish mumkin. Mashhur rus adabiyotshunos olimi V.G.Belinskiy to'g'ri ta'kidlaganiday: "...lirik asarning mazmuni obyektiv voqeaning taraqqiyoti emas, uning mazmuni – subyektning o'zi va u orqali o'tgan hamma narsadir".²⁰ Shunga ko'ra, o'quvchiga shoirning hislari, iztiroblari, uni qayg'uga solgan voqelikka bo'lgan munosabati, ya'ni lirik kechinmalarining o'tishi tabiiy holatdir. Muallifning badiiy niyati o'quvchida lirik qahramonga nisbatan nafrat tuyg'usini shakllantirish emas, aksincha, tarixiy sharoit yuzaga keltirgan vaziyatda naqadar achinarli hollarning ro'y berganini ifodalash ekanini ko'zdan qochirmaslik lozim.

She'rdagi lirik qahramon kim? Nega u kitobdan qo'rqadi? So'zning zalvoridan shunchalik hadiksiraydigan kimsa nega kechalari kitob o'qiydi? She'rni o'qir davomida shoir bizni chuqur mushohadaga undaydi. Zero, kitob va kitobxonlik madaniyatini har zamonda targ'ib qilish ulug'lanku. Biz bu kabi misralar qatiga yashiringan haqiqatlarni anglashimiz uchun, yanada ochiqroq tahlil qilishimiz uchun yondosh manbalardan ham xabardor bo'lishimiz kerak. Masalan, tarixning qaysi puchmoqlarida ilm xo'rlandi, olim dushman sanaldi kabi savollar qarshimizda bo'y ko'rsataveradi. Vaholanki, keltirilgan misralarda lirik qahramon kitobning ahamiyatini tushungan, kitobdan kitobni farqlay oladigan darajada ongli ekanligi anglashilib turibdi. Bu toifa kishilar uchun davr siyosatiga mos fikrlash, har qanday holatda ham o'z mulohazalarini oshkor etmaslik, tarozining qay pallasi og'ir kelsa shu tomonning yo'rig'iga yurish xosdir. She'rning ilk satrlaridayoq shoir o'quvchini holatni anglashga emotsional jihatdan tayyorlab boradi. Oddiy ko'z bilan qaraganda kitob qandaydir axborotni jamlagan predmet. Axborotga bo'lgan ehtiyoj va yondashuv kitobxonning saviyasi va dididan darak beradi. Shuning uchun, muayyan kitob ham har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etavermaydi. Kitobning muqaddasligi uning mazmuni, undagi haqiqatlar bilan bog'liq.

²⁰ Belinskiy V. G., Tanlangan asarlar. T.: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1955. . B.184.

Shoir o'z fikrini izohlash uchun keyingi misralarda buning isbotini keltiradi. Shu sababli ham lirik qahramon kitobda yozilgan "So'z"lardan qo'rqadi. Asr boshidagi siyosiy va ijtimoiy holatga diqqat qilsak, diniy mavzudagi xalqni ma'rifatga chorlovchi muqaddas kitoblar, tasavvufiy adabiyotlar, jadid ziyolilarining asarlariga nisbatan taqiq qo'yilganiga guvoh bo'lamiz. Ularni qoralab tanqidiy maqola yozganlar ham o'zimizdan. Shoir bu satrlarda "mehrobdan chiqqan chayonlar", "milliy ziyonli ziyoli"lar, ya'ni vulgar sotsiolizm tarafdorlarini ayovsiz fosh etadi. Bu kimsalar jadidlarning millatparvarligini ko'rib, tan bergani holda, jonini saqlab qolish qo'rquvi, qolaversa, partiya manfaatlariga qarshi chiqmaslik uchun ham ular haqida bir yoqlama fikrlashga majbur. Jadidlarning qatag'onga uchrashi, adabiy merosining salmoqli qismlari izsiz yo'qolishida ularning ham hissasi bor. Lekin ular orasida ham vijdonlilari borligini Xurshid Davron inkor etmaydi. Iste'dodlarning yonida har zamon iste'dodsizlar bo'lgan. Alloh nazar etgan haqiqiy iste'dod sohiblarining asl dushmanlari ham aslida iste'dodsiz kimsalardir. She'rdagi lirik qahramon zamondosh ijodkorlarning yutuqlaridan zimdan eziladi, qora hasad tunlari ko'zidan uyqusini oladi. Bu kimsa hatto o'z farzandlaridan ham yashirinib, eshik-derazalarni zichlab, zanjirlab varaqlari kuyib ketgan kitoblarni ko'zda yosh bilan o'qiydi:

Varaqlari kuygan kitobni olib

O'qiydi – ko'zidan yosh oqa boshlar

Va hasad toshlari bo'g'ziga to'lib

O'qigan varag'in olovga tashlar.

1986-yilda yozilgan bu she'r yaqin o'tmishimizning eng qora kunlaridan hikoya qiladi. Shoir – shoirga dushman. Satrlardan lirik qahramonning o'zi ham ijodkor ekanligini payqash qiyin emas. Uning qalbini o'rtovchi aybdorlik hissi bora-bora hasadga aylanadi. Tarixiy voqealarga real ko'z bilan qarash, uni har tomonlama tahlil etish, ijtimoiy hodisalarni hisobga olish, teran munosabat bildirish Xurshid Davron ijodidagi eng yetakchi tamoyillardan biridir. Garchi lirik turdagi asarlarga voqeaviylik asos qilib olinmasa-da, she'rni o'qish davomida bo'layotgan voqealar, lirik qahramonning ichki kechinmalari, achinarli hayoti o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Ijodkor qalbidagi tuyg‘ular tarixiy voqelik ta’sirida yuzaga chiqqani uchun ham bu tuyg‘ular girdobidan osonlikcha chiqib ketolmaydi. Davomli o‘ylar, hayot tajribasining oshib borishi, voqelikning shoir yuragida tobora chuqurroq ildiz otishiga zamin yaratadi. Shoir xayolini band etgan bu holat uning keyingi ijodida yanada jo‘shqinroq tarzda evolutsiyaga uchraydi. Avvalgi she’rdagi achinish, kuyinish hissi keyingi ijod mahsullarida o‘tmishdagi xatolarni tan olish va unga barham berishga urinish kabi yozg‘irishlar bilan o‘rin almashadi.

Shoirning iztiroblari “Vataniga qurbonlar qaytsa” she’rida yanada aniq va yorqin tasvirlanadi. Bu she’rni avvalgi she’rning mantiqiy davomi sifatida ko‘rish mumkin. Endi shoir bir xoinning iztiroblariga emas, butun xalqqa murojaat qiladi.

*“Sen kim bilan?” so‘rsa davr,
“Sen kim bilan?” so‘rsa yillar,
Javob bering qo‘rqmay birma-bir,
Toshdek qotib qolmasin tillar.*

Shoir xalqni hukmron mafkuraga nisbatan ochiqchasiga kurashga chorlayotgani ma’lum bo‘ladi. O‘z fikrini hur, ozod shaklda ifodalay olish uchun xalqqa murojaat qilmoqda. O‘z davrida xalq nomidan ish ko‘rganlarni keskin qoralaydi. She’rning boshlanishidayoq shoir qurbon va qotil ziddiyatini keltiradi. Tinglovchini she’rning ruhiyatiga olib kiradi. Ols yillardan aks-sado berayotgan kishanlarning zangini eshitmaslik o‘sha mudhish jinoyatlarga teng ekanligi, sukut saqlashning oqibati qotilliklarga sheriklik bilan o‘lchanishini hayqirib aytadi. Shoirlar bashorat qilishga moyil bo‘ladilar. Xurshid Davron ham mustabid tuzumning asriy uyqusini buzgan istiqlolning yengil shabadalarini oldindan sezadi.

*Kun keladi, qattol kun kelar
Yuz o‘gilar bizdan bolalar,
Va “Qotil” deb, “Sotqin” deb bizni –
Ha, bizlarni ko‘rsatar ular.*

“Sof lirik asar go‘yo bir kartinaga o‘xshaydi, lekin unda muhim narsa kartinaning o‘zi emas, u bizda uyg‘otgan sezgidir,”²¹ – deydi Belinskiy. Bundan kelib chiqadiki, she’rning moddiy asosi, ya’ni

²¹ Belinskiy V. G., Tanlangan asarlar. T.: O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1955. . B.142.

shoirning ifoda yo'sini emas, she'rdagi ifodalamoqchi bo'lgan fikr ahamiyatga molikdir. Lirikada konfliktning ko'zga tashlanishi biroz qiyinroq. Ammo bu kabi ijtimoiy muammolar yuzasidan mushohada yuritilayotganda asar syujeti, shakl va mazmun mutanosibligi muhimdir. Misralarni tahlil qilish davomida Xurshid Davronning so'zga talabchanligini, har bir kalomga nisbatan mas'uliyat hissi bilan yondashishiga amin bo'lamiz. Xususan, yuqoridagi jumlada uchrovchi "qattol" so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"²²da quyidagi uch xil ta'rif beriladi:

1. Qotil, o'ldiruvchi. Odam o'ldiruvchi, xunxo'r, qotil;
2. *Ko'chma* ashaddiy, yovuz;
3. *Ko'chma* juda ham qattiq, keskin²²

Shoir ushbu baytda qattol, qotil, sotqin so'zlarini ketma ket qo'llash orqali tanosub san'atini yuzaga keltirish orqali o'quvchiga nisbatan badiiy-estetik ta'sir kuchini yanada oshiradi. She'r boshlanishida qurbon sifatida tilga olingan zotlar yakunda haq ekanliklari isbotlanadi, ammo qotil so'zi asarda yetti bor tilga olinadi va har gal shu so'zga murojaat etilganda uning dahshati darajama daraja oshirib boriladi.

*Toki silqib kuymasin bag'ir,
Toki shodmon kutaylik tongni,
Toki olib bormaylik, axir,
Kelajakka qonni, yolg'onni.*

Xuddi shunday **Toki** bog'lovchisini misra boshida takror qo'llashdan maqsad she'rga zeb berib anafora san'atini yuzaga keltirishdan iborat emas. Shoir qalbida yorqin, shodmon tonglarning otishiga kuchli ishonch bor, zero qayta qurish siyosati davridagi parokandalik kishilar qalbida, ayniqsa, ziyoli qatlam ongi va tafakkurida zulmat tunlar bag'rini yorib chiquvchi tonglarning erkin nafasiga bo'lgan ichki ishonchni mustahkamladi.

Shoir she'rning tematik kompozitsiyasini shunday mohirona yaratganki, o'quvchida lirik qahramonga nisbatan bir vaqtning o'zida achinish va nafrat hissini birdan qo'zg'ay oladi. Haqiqiy ijodkorning havasmandlardan farqi ham shunda: u bir ifodaga bir necha ma'noni singdira oladi. Shoir adabiyot maydoniga kirib

²² O'zbek tilining izohli lug'ati Q harfi. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. B. 265-266.

kelganidayoq soxtalikdan qochdi, haqiqiy hayotni bor dardlari, iztiroblari bilan birga kuyladi. Yurakdan chiqqan har bir satr sodda ifodalarda o'z muxlislari qalbida abadiyatga muhrlandi. Qolaversa, tarixiy voqelikning o'ziga xos poetik ifodasi, millat taqdiriga kuyunish hamda qalam va iste'dod qarshisidagi mas'uliyat shoirning keyingi asarlarining bosh konsepsiyasiga aylandi. Dastlab kichik lirik asarlardan boshlangan tarixning badiiy talqini keyinchalik yirik epik asarlarga qadar yuksalib bordi.

1.3. Shoir ijodida ayol obrazining badiiy ifodasi

Badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda ayol obraziga go'zallik, nafosat, yaratuvchanlik, mehr-muhabbat va sog'inch ramzi sifatida murojaat etiladi. Xalq og'zaki ijodida ayol avvalo ona, sevimli yor sifatida tasvirlansa, mumtoz adabiyotda Allohga bo'lgan ishqning bir ko'rinishi, ramziy tamsili o'laroq akslantirildi. XX asr she'riyatida ayol obrazi har qachongidan ko'ra o'zgacha mazmun-mohiyat kasb eta boshladi. Boisi, bu davrda ayol nozik hilqat bo'lish bilan birlikda sabr-qanoati, mehnati, irodasi tufayli jamiyatda o'z o'rniga ega shaxsga aylandi. Bu davrda yaratilgan ayol obrazlarining ruhiy dunyosi bilan bog'liq holatlarni tahlil etish davomida ulardagi psixologik evrilishlarning asl sabablarini tadqiq etish imkoniga ega bo'lamiz. II jahon urushi va uning oqibatlari, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga birinchi bo'lib aks-sado beruvchi lirikaning diqqat markazidagi mavzuga aylandi. A.Oripovning "Ayol", X.Davronning "Tun, beva ayol va derazadagi soyalar" she'rlari, B.Boyqobilovning "Sadoqat" oktavasi aynan urushning yosh juvonlar hayotida qoldirgan jarohatlari haqida hikoya qiladi. Har uch she'rda ham Vatan himoyasiga otlangan yoridan qoraxat olgan navjuvon ayolning iztiroblari aks etadi. Ayniqsa, X.Davronning "Tun, beva ayol va derazadagi soyalar" she'ridagi beva ayol va baxtdan masrur qo'shni ayolning paralel tasviri tasavvurimizda aniq jonlanadi.

Asarda biz e'tibor bermaydigan odatdagi beva ayolning nari borsa yarim soatlik o'y-xayollari, iztiroblari qalamga olinadi. Aslida, ayol necha yillardan beri yolg'iz, qo'shni derazaga har safar boqqanida o'zining kechmishini xotirlaydi.

*Qarshida deraza so'ylaydi ertak,
Unda ikki soya baxtiyor, malul.*

*Oh naqadar ulkan u sirli erkak,
Qo'llarida ayol sevgan qizil gul.
Har bir harakati soladi larza,
Nahotki, bu ertak also tinmasa.
Buncha beshafqatsan qo'shni deraza?!²³*

She'r ilmi lirik kechinma oniy hissiyot yoki juda uzoq davom etgan ruhiy holatni ifodalovchi voqeaband she'rlarda epik asarlarga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin voqeaband she'rda voqeahodisalar lirik qahramonning kechinmalarini ifodalash uchun bir vosita sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun bu turkumdagi she'rlarda voqea batafsil yoritilmaydi, qahramonning tuyg'ulari kulminatsion nuqtaga chiqqan o'rinlar, uning hissiyotlariga ta'sir o'tkazgan detallarga alohida ahamiyat qaratiladi. Ammo tasvirlanayotgan hodisa kitobxonda qahramonning ruhiy dunyosiga ta'sir o'tkazuvchi kuchni his qilishi va holatni tasavvur etishi uchun lozim bo'lgan barcha unsurlarni qamrab olishi darkor. She'rdagi *sirli erkak, qizil gul, ertak va beshafqat qo'shni deraza* detallari ayolning ancha vaqtdan beri yolg'iz yashashiga ishora. Oradan qancha o'tgani muhim emas, muhimi ayol uchun bu holat ertakka aylanib ulgurgan. She'rdagi oqshom xronotopiga juda katta ma'no singdirilgan. Kunning bu qismida hamma o'z uyida oila davrasida oqshom dasturxoniga o'tiradi. Ammo lirik qahramon bu baxtdan benasib. U uchun shom vaqti xotiralar bilan yolg'iz qolib iztiroblar ichida ko'milish chog'i. Yoshlik gashtini sura olmagan kelinchakning farzandi yo'q. U o'zining baxtiyor oilasini faqat tushlaridagina ko'ra oladi, faqat tushlaridagina chaqaloq hidiga to'yib, oilaning to'kis baxtini his qila oladi. Tush xronotopi ayolning orzu umidlari va armonlarini o'quvchi ko'z oldida gavdalantiradi.

*...Oramizda yotgan emish chaqaloq,
Ko'zlari seniki, labi meniki.
Mitti oyoqchasi oy kabi oppoq,
Ko'rinib, ko'rinmas emish kiprigi.
Sen uxlar emishsan burkanib,
Salqin shabadada sochlaring o'ynar.²⁴*

²³ Xurshid Davron. "Qadrdon quyosh". – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. B. 47.

²⁴ Xurshid Davron. "Qadrdon quyosh". – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. B. 48.

Tush zamirida makon va zamonning hamohangligini kuzatamiz. Makon orqali orzudagi hayotni yoki shirin armonlarni qalamga olish baraborida insonni, uning qiyofasini, davrning murakkab ziddiyatlarini talqin uchun asos qilib olgan. Hatto tushda ham ayolning uygʻoqligi va uzoqlarda toʻylarning boʻgʻilib kuylangan sadolari oʻquvchi diqqatini tortadi. Aslida toʻy oʻzbeklar uchun yangi bir oilaning vujudga kelishi, avlodning davomiyligini saqlagani uchun ham quvonchli hodisa, lekin ayol nazdida bu toʻylarning quvonchi uzoqqa choʻzilmaydi.

*Bolishda yomgʻirning oq tomchilari –
Beva koʻz yoshlari nurda yaltirar.
Qoʻshni derazada bir-birin quchar
Navqiron, hamisha baxtli soyalar.
Koʻzni yumolmaydi va birdan turib
Eshikni ochadi. Salom, ey koʻcha!
Bagʻriga bosadi, uni entikib
Erkakday chiroyli, baquvvat kecha.*

Lirikada fikr va tuygʻu birligini meʼyorda tuta olish muhim hisoblanadi. Lirik asar lirizm va epiklik unsurlaridan tashqari, dramatic turning xususiyatlariga ham ega: sheʼriy asarda, u hajman kichik boʻlsa ham, kishining oʻtkir va jiddiy bir hissiy holati, hayajoni tasvirlanadi. Bu ham oʻziga yarasha dramadir.²⁵

Xuddi shu kayfiyat shoirning “Beva hovlisiga tun oldin kirar” sheʼrida ham aks etgan. Baxt va qaygʻu, oʻlim va hayot, armon va umid ikkiliklari ijodkor lirik olamining ajralmas qismlaridir. Xotiralar bilan yashash, baxtli kunlar sogʻinchi, sevgiga sadoqat shoir “bevalari”ga xosdir.

*Oqshomlari qiyin boʻlar bevaga:
Xotiralar dilga kirar qaygʻudosh.
Ogʻir boʻlsa hamki, tasvir boʻlsa ham
Suratga jilmayar – koʻzlarida yosh.*²⁶

Lirikada doimo qalb va aql uygʻunligi yetakchilik qilishi talab etiladi. “Urush xotiraları” turkumiga kiruvchi sheʼrlari xalqona pafos, betakror tashbehlar, his-tuygʻularning yorqin ifodasi bilan oʻquvchi

²⁵ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Oʻqituvchi”, 2005.B. 157.

²⁶ Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Sheʼrlar toʻplami. – T.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat” nashriyoti, 1986. B. 50.

qalbi va ongida uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Xotira o‘ziga xos kompozitsiyaga ega, unga kiritilgan “Kuzatish”, “Kutish” va “Sog‘inch” alohida mustaqil asar bo‘lmay, bir lirik qahramonning sevgan yorini urushga kuzatish, uni kutish va urushdan keyingi davrlarda u bilan bog‘liq sog‘inch holatlari mantiqiy izchillikda tasvirlanadi.

Shivirlagin: “Men qaytaman!”

Shivirla qayta-qaqtadan.

O‘pgin meni to‘yib-to‘yib,

Mayli, yig‘lay kuyib-kuyib.

Badiiy adabiyotda ma‘noni kuchaytirish, qahramon ruhiy olamini kashf etish, kitobxonning ichki olamiga kirib borish uchun ham so‘zlar takroriga asoslangan badiiy san‘atlardan foydalaniladi. Bu holat lirik qahramon va o‘quvchining birgalikdagi harakatini, satrlarga singdirilgan ma‘noni uqishda hassoslikni ta‘minlashga xizmat qiladi. She‘rdagi “shivirlamoq”, “to‘yib-to‘yib”, “kuyib-kuyib” birliklari ham ayni maqsadni ko‘zlaydi.

Shivirlama: “Meni unut!”

Shivirlagin: “Yodingda tut!” kabi satrlarda qat‘iy talab qo‘yayotgan qahramon yolg‘izlikning uzun tunlarida yorning yulduzday ko‘zlarini eslaydi, “*Men qaytaman*” degan so‘zlarini xotirlab o‘z ko‘ngliga taskin beradi.

Yillar uzoq, yo‘llar uzoq,

Kutmoq qiyin, visol shirin.

Mening yuzim – kuzgi yaproq,

Aytib bo‘lmas dardim sirin.

Asarda ayol ruhiyatining nozik qirralari, pokiza olamining rangin jilolari kitobxon yuragiga yaqin hislarni uyg‘otadi, ichki kechinmalariga ta‘sir o‘tkazadi. Shoirning mahorati shundaki, u hayotning shafqatsiz o‘yinlarini misralar qatiga mohirlik bilan singdirib, har bir fikrni badiiy-estetik bo‘yoqlarda tasvirleydi. Bu esa ijodkordan chinakam iste‘dod, ijodiy izlanish va san‘atkorona mushohadani talab etadi.

Xurshid Davron ijodida ayolning sadoqati, vafodorligi, mehr-muhabbati, sabr-bardoshini ulug‘lovchi she‘rlar salmoqli o‘rin egalaydi. Zamonning notinchligi, fojialar, urush, xattoki, judolik ham irodasini sindira olmagan, sadoqat va matonatning ramziga

aylangan o'zbek ayoli timsoli "Men sevaman", "Chol va kampir", "Ko'z yoshlaring" kabi she'rlarida ham talqin etiladi.

1.4. Xurshid Davron she'rlarida bobur tasviri

So'nggi yarim asr davomida Bobur va boburiylar tarixini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Adabiyotshunos olimlar H.Yoqubov, V.Zohidov, H.Sulaymonov, sharqshunos olimlar S.Azimjonova va professor H.Qudratullayevlarning Bobur hayoti va ijodi bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda badiiy ijodda ham Bobur shaxsiyatini o'rganish, uning murakkab hayotini tasvirlash maqsadida O'zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", va "Avlodlar dovoni" romanlari, O'zbekiston xalq shoirlari: A.Oripov, E.Vohidov, X.Davron, S.Sayyidlarning bir qator she'rlari dunyo yuzini ko'rdi.

Xususan, shoir Xurshid Davronning Bobur dahosini anglash, ziddiyatlarga to'la hayot yo'lini tasvirlash, shoh va shoir munosabatidagi eng nozik jihatlarni ilg'ab she'rga solish mahorati diqqatga sazovordir. Shoirning "Ey tilim, ey elim, ey ona tuproq" turkumidan o'rin olgan "Zahiriddin Muhammad Bobur", "Vatan haqida yetti rivoyat" turkumidan "Lola gulli piyola", "Bobur", "Boburnomaga bir nigoh" kabi she'rlari ayni mavzuga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Adib o'z tuyg'ularini shunchaki ko'ngil mayli, ilhomning quyilib kelishi, oniy vaziyat ta'sirida she'rga solmagani satrlar mazmunidan ham anglashilib turadi.

Otlar yelar, tillarang xazon

Suvoriylar uzra sochilar.

Elas-elas yangraydi azon –

Tog'lar uzra osmon ochilar.²⁷

Ma'lumki, Bobur Samarqandni butunlay tark etib, Afg'onistonga ketayotganida kech kuz edi. Shoir tabiat tasvirini qahramonning ruhiy holati bilan uyg'un tarzda tasvirlash orqali o'quvchi diqqatini jalb eta oladi. She'riyatda inson hislarini tabiat hodisalariga hamohang ifodalash ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Tong qorong'usida shahardan chiqib ketayotgan Boburning ortidan elas-

²⁷ Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. T.: - "Sharq", 1997. B.148.

elas azon tovushining yangrashi ham bejizga emas. Azon musulmonlarni namozga, ibodatga chorlovchi maxsus chaqiriqdir. Uni oldinda Hisor tog‘laridan oshib o‘tishning mashaqqati, o‘ziga tegishli bo‘lmagan hududlarda buyuk saltanat barpo etish zahmatlari kutib turganiga bir ishoradir. Zero, “Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg‘unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasida aloqa badiiy yaxlitlikning kafolati, unda subyekt va obyektning ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g‘oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o‘z ifodasini topadi”²⁸ Shoir va lirik qahramon o‘rtasidagi munosabat she‘r davomida yangi oqimga yuz tutadi. Endi shoir shunchaki qahramonning tasvirini berish bilan cheklanmaydi, uni so‘roqqa tuta boshlaydi hamda oldinda yuz berishi aniq bo‘lgan voqealar haqida ogohlantiradi.

*“Zahiriddin, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtingni tashlab?!
Qora taqdir seni qul kabi
Qayonlarga ketmoqda boshlab?!”*

*Zahiriddin, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado –
Tirik turib Vatandan ketmoq?”*

*Zahiriddin, ortga bir qara,
Ortga bir boq, toki sen omon.
Axir keyin tushlaringda ham
Bu tuproqni ko‘rmog‘ing gumon”²⁹*

She‘rning ta’sirchanligini, kitobxon qalbi va xotirasidan mustahkam o‘rin egallashining mezonlardan biri shoirning badiiy san’atlardan foydalana olishida ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi har bir band lirik qahramonga nido yo‘sinida boshlanadi. Uni yurakni ado etuvchi ayriliqning davomiyligidan, yurtidan uzoqda kechgan har bir lahza uchun afsus va nadomatlar chekajagidan xabardor etadi. Tabiiyki, shoir oradan o‘tgan davr mobaynida qahramonning

²⁸ Носиров А. Одил Ёкубов романлари поэтикаси. Т.: - “Фан”, 2012. В.15.

²⁹ Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. Т.: - “Sharq”, 1997. В.148-149.

taqdiri qay tomonga o'zgarib ketishidan xabardor, ammo Boburning o'zi **qora taqdiriga qul** va **qora hijrat** sari yuz tutmoqqa majbur. Shoirning go'zal tashbehlari, ritorik so'roqlardan, takrorlardan foydalanishi, qahramon ruhiy holatiga oid chizgilarning aniqligi she'r tuzilishi va mazmuniga o'zgacha joziba bahsh etadi. Boburning taqdirini mushohada etish asnosida lirik qahramon tilidan aytilgan ushbu satrlar shoirning bu mavzuga hali yana ko'p bor murojaat etishiga ishora qiladi:

*Alam bilan yuragi urar,
Shivirlaydi titroq lablari:
"Hamma yerdan ko'rinib turar
Samarqandning minoralari"*³⁰

Chindan ham shoir bu mavzuni keyingi she'rlarida yanada teran tafakkur yuritib davom ettirdi. Xurshid Davron o'zbek adabiyotini nafaqat mazmundor va dolzarb tarixiy mavzudagi asarlar bilan, balki Yevropa adabiyotiga xos milliy shariyatimizda kam uchrovchi yangi janr namunalari bilan ham boyitdi. Ijodkorning "Ey tilim, ey elim, ey ona tuproq" sonetlar turkumi bunga dalil bo'la oladi. Turkumdan jami o'n to'rtta sonet o'rin olgan va ularning barchasi tariximiz va milliy adabiyotimizda o'z o'rnini va zalvoriga ega bo'lgan shaxslarga bag'ishlanadi. Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan sonet yuqorida tahlil etilgan she'rning mazmuniy davomi desak adashmaymiz. Chunki sonetda Vatandan yiroqda ulug' saltanat barpo etgan, ammo umr shami asta so'nib yo'qlik olami sari yuz burgan podshohning ichki hislari, ruhiy holati o'z aksini topadi. She'r janr talablariga muvofiq ikkita to'rtlik (katrena) va ikkita uchlik (terseta)dan iborat jami o'n to'rt misrani tashkil etadi.

*Sen borsan, chidayman dilim ohiga,
Panipatmas, armon qo'zg'atar titroq.
Bir umr zordirman yurtim hokiga,
Meni olib ketgin, ey ona tuproq*³¹

Janr talabiga mos ravishda birinchi bandda lirik qahramon va uning kechinmalari, ona vatandan judolik hissi, Movaraunnahr tuprog'iga qaytish istagi haqidagi fikr o'rtaga tashlanadi. Umuman

³⁰ Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. T.: - "Sharq", 1997. B.149.

³¹ O'sha kitob. B. 64.

olganda, Hindiston tuproqlari Bobur va boburiylar uchun begona sanalmaydi. Chunki buyuk Sohibqiron 1398-yilda Hindistonni fath etib o'z davlati tarkibiga kiritganligini hisobga olsak, Boburning bir umrlik orzusi bo'lgan Amir Temur saltanatini qayta tiklash orzusining bir qismini amalga oshirdi deya olamiz. Ammo Bobur yashagan davrda Hindiston o'z mustaqilligini tiklab olgan alohida davlat edi. Temuriylar tasarrufida esa faqatgina Xuroson va Movoraunnahr sarhadlari qolgandi.

*Qaydadir hasratim bitilgan tosh bor,
Qaydadir buzilgan xonaqom bordir.
Ul tosh bardoshimdir, ul tosh yoshimdir,
Xonaqoh – buzilgan ona diyordir.*³²

Keyingi bandda an'anaga muvofiq oldingi to'rtlikdagi fikr rivojlantiriladi. Buyuk temuriylar davlatining parchalanishi, shahzodalar o'rtasidagi tortishuvlar, ichki nizolar natijasida parokanda bo'lgan, bir vaqtlar dunyoning juda katta qismini egallagan saltanatning butunlay barham topishidan yuragida toshdek qattiq va og'ir dardning paydo bo'lganiga ishora seziladi.

*O'lim paymol etdi dil niyatimni,
Lekin dunyoda sen borsan-ki, tilim,
Umidim tirikdir, tirikdir dilim].*

Tersetaning birinchi bandida yechim beriladi. Bobur orzularining armonga aylanishida o'lim unga to'sqinlik qildi. Ammo lirik qahramon kelajakdan umidvor. Ona tili yashagani muddatcha avlodlari uning armonlarini ro'yobga chiqarishiga umid qiladi.

*Alishardim butun saltanatimni
Yurtimning bir chimdim xoku xasiga,
Turkiston bog'larin xush nafasiga.*

She'rning xotima qismini shoir umrining katta qismini ona diyor diydoridan mahrum holda o'tkazgan podshohning iztiroblarga to'la kayfiyati bilan yakunlaydi. Bobur lirikasida Vatandan ayrolik, ona yurt sog'inchi vasfiga bag'ishlangan she'rlar salmoqli o'rinni egallaydi. Shoirning mahorati ham ayni she'rlar ta'sirida yozilgan o'z asarini kitobxonga xuddi Zahiriddin Muhammad Bobur tilidan aytilgandek tabiiy ravishda singdira olishida namoyon bo'ladi.

³² O'sha kitob. B. 64.

Sonet milliy adabiyotimizga Yevropadan kirib kelgan bo'lishiga qaramay, Xurshid Davron yaratgan barcha sonetlar o'zligimizni anglash, milliy mentalitet, tarixiy shaxs va voqealarning badiiy talqinlari bilan bog'liq lavhalarni ochib berganligi bilan ahamiyatlidir. "Sonetda milliylik ko'proq til va she'r tuzilishi bilan, baynalminallik esa band va mazmun bilan aloqador" [Adabiy turlar va janrlar. 2-jild. Lirik. 1992: 189] ekanligini unutmasligimiz zarur.

Shoirning "Vatan haqida yetti rivoyat" turkumidagi "Lola gulli piyola" asari Boburning ichki tuyg'ularidagi evrilishlar, ruhiy holatidagi beqarorlik, yuragidagi dardning haddi a'losiga chiqqan tasviri bilan muhimdir.

Agra aro

Kezadi mish-mish:

Saltanatning egasi Bobur

Qirq kundirki, xasta yotarmish,

*Xira tortmish ko'zlarida nur.*³³

Boburning xastaligi nima? Nega uning ko'zlari xira tortib, surati tuproq rangiga kirdi? Nega malikalarning dardlari haddan ziyoda, jondan aziz farzandlarining diydori, xos tabiblarning bilim va urinishlari bekor ketmoqda? Boburni bu qadar holsiz, loqayd qilib qo'ygan dard nima ekan? Shoir keyingi misralarda barcha savollarning javobini Boburning tushkun kayfiyati tasvirida berishga urinadi.

Zarafshonbog' ichida tanho

Holsiz, tolg'in sayr aylarmish,

"Koshki o'lsam dag'i bu darddan

Bo'lsam xalos", - deya aytarmish.

She'r avvalida qo'yilgan bu kabi savollarga shoir donishmand chol yordamida javob topadi. Sharq mumtoz adabiyotida yo'ldan adashganlarga, yechimi yo'qday tuyilgan muammolar qarshida ojiz qolgan qahramonlarga donishmandlarning yo'l ko'rsatishi motivi ko'p uchraydi. Rivoyat drammatizmga boyligi va ramziy ifodalarga to'laligi bilan shoir ijodida alohida o'rin tutadi. Xastalik – ona yurt sog'inchi, donishmand chol – o'zlikni anglashning so'nggi bosqichi, lola gulli piyola – Ona Vatanga qaytish orzusining timsolidir.

³³ O'sha kitob 196.

Xastalik, ya'ni ona yurt sog'inchi Boburni umrining oxiriga qadar tark etmadi, u goh oshkora, goh pinhona ravishda shoh qalbini o'rtovchi olovga aylandi. Bu dard nafaqat Bobur, balki u bilan birga Hindiston fathida qatnashgan, tinchlik zamonlarida hind tuproqlarida katta mol-mulk egasiga aylangan sarkardalarning yuraklarida ham so'nmas olov yoqdi. Donishmandning bir kaft tuproqqa qarab fol ochishida ham juda katta ramziylik pinhon. Aslini olganda, odamning kaft chiziqlari, kristall shar, kartalar, qahva quyqasi va Qur'oni karim kabi muqaddas kitoblar yordamida fol ochish Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Shoir bir kaft tuproqqa qarab fol ochish yordamida lirik qahramonning ruhiy ehtiyojini, uni qiynayotgan ayriliqning og'irligini o'quvchi tasavvurida jonlantirishga erishadi.

Donishmand hind qildi bashorat:

*"Uni ta'qib aylar piyola,
Piyolaga chekilgan surat:
Yetti dona qip-qizil lola".*

*Yana aytdi: "Shundan shoh lohas,
Shundan shohning dilida faryod.
Ul piyola bo'lmish muqaddas
Shoh yurtining xokidan bunyod".*

Ta'kidlanganidek, donishmand chol – o'zlikni anglab yetishning eng so'nggi bosqichi. Shoh dardining darmoni, barcha ko'ngil yaralarining shifosi birgina yurt xokidan bunyod bo'lgan piyolada mujassam. Piyolaga chekilgan lolalar nega aynan yettita? Sharq mamlakatlarida yetti raqami mo'jizaviy ahamiyat kasb etgan. Yetti sayyora, yetti iqlim, yetti kun, yetti qavat osmon, yetti mo'jiza kabi tushunchalarga diqqat qaratilgan. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida yetti qasr, yetti yo'lovchi, yetti vodiya kabi yetti soni bilan bog'liq motivlarni gavdalantirgani sir emas. Xurshid Davron piyoladagi yetti lola timsolida Bobur ishqining real hayotda amalga oshirish imkoni cheklangani yohud mutloq ilojsizlik holatining botiniy tuyg'ular bilan emas, ilohiy olamga tegishli ekanligiga diqqatni tortadi. Bobur va uning sipohlarida ona yurtidan o'zi bilan olib kelgan jang qurollari mavjud. Ammo ular juda sovuq, ularda vayron etuvchi kuch mujassamlashgani uchun ham bu qurollarni

vatandan yodgorlik sifatida ulug‘lab bo‘lmaydi, musofirlikda ular kishi qalbini isita olmaydi. Samarqanddan Bobur bilan birga chiqqan beklar, navkarlarning yuragida ona vatanga qaytish orzusi armonga aylandi. “Boburnoma”da ham Movaraunnahr diyorida keltirilgan ne‘matlar, buyumlar Boburni naqadar hayajonga solgani, ularga bo‘lgan ehtiromning yuksakligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Bobur ularga oddiy buyum sifatida emas, balki ona vatanning bir parchasi sifatida baho berishi, qadrlashi faqatgina shu tuyg‘ularni boshdan kechirgan insonlargagina ayondir. Piyolaning sinib qolishi ham tasodifiy hodisa emas. Boburning Samarqandga oid orzularining ham darz ketishidir. U endi Vataniga qayta olmasligini, bir paytlar dunyoni boshqargan temuriylar davlatini qayta tiklashdek buyuk maqsaddan voz kechish, taqdirga ko‘nishdan boshqa chorasi yo‘qligini tan olishining ramziy ifodasidir.

Qaror bitdi

va hamma ko‘ndi –

G‘amni tuyib xasta vujudda,

Piyolani maydalab ko‘mdi

Mo‘ysafid bek shahardan chetda.

Ba‘zan aql tan olgan imkonsiz ishlarni yurakning tan olgisi kelmay qaysarlik qiladi. Lirik qahramonning ham qalbi va aqli o‘rtasida murosasizlik mavjud. Ammo Bobur vujudidagi bu ikki azaliy raqiblar muhorabasida aql g‘alaba qozonganini shoir juda chiroyli tasvirlaydi. Aslida shaharning cheti Bobur yuragining eng pinhon, eng chuqur joyidir. Siniq piyolani, ya’ni Ona vatanga qaytish orzusini u qalbining hech kim daxl qila olmaydigan yeriga ko‘mdi.

Bobur qaytdi taxtiga yana –

Garchi dilda g‘am ildiz otmish,

Garchi Vatan sog‘inchi siyna

Aro xuddi xanjardek botmish.

Bo‘lib o‘tgan voqea Boburning tahlikali, murakkab va notinch hayotida unga hamrohlik qilgan barcha turkistonlik beklarning oromini buzdi. Qalb yaralarini tirnab, ularning eng nozik nuqtalariga ta’sir ko‘rsatdi. Tunlari oromi buzilgan beklarning ufqqa behush boqishlarini hind madaniyatiga xos bo‘lgan morbozlarning ilonni kuyga rom qilishiga o‘xshatishi ham shoir mahoratidan darak beradi.

*Shomda quyosh botayotganda,
Yer ostiga ko'mik piyola
Siniqlari uzra gulxanday
Tovlanadi yettita lola.*

Inson hislarini atrofdagilardan yashirishga qanchalik urinsa, yolg'iz qolganda shunchalik uning asiriga aylanadi. Kuni bilan saltanat tashvishlarini yelkasida ko'tarib yurgan podshoh ham tunda o'z dardlaridan qochishga joy topa olmaydi. Yuragining eng tubiga ko'milgan siniq piyola uzra lolalar qaytadan bosh ko'taradi. Rivoyat shu qadar katta mahorat bilan she'rga solinganki, kitobxon Boburning dardlariga, psixologik o'zgarishlariga, ruhiy iztiroblariga bevosita daxldorlik hissini tuyadi. "Markazida Inson obrazi turgan har qanday asar agar u yuksak iste'dod, falsafiy ruh, umuminsoniy g'oya asosida yaratilar ekan, butun dunyoga daxldor bo'la oladi. Demakki, bunday asarlar jahon adabiyoti durdonalari ro'yxatiga kiritilishining obektiv belgisi hisoblanadi."³⁴ Biz bu ta'rifni Xurshid Davronning yuqorida tahlil etilgan va umuman tarixiy mavzuda yaratilgan barcha asarlari uchun tegishli deya olamiz.

Xulosa qilib aytganda, shoirning Bobur mirzoga bag'ishlangan asarlari g'oyaviy-badiiy mukammalligi, betakror tashbehlarga boyligi, ziddiyatli kechinmalarning turlicha tovlanishlari tarixiylik mezonida mahorat bilan qalamga olinganligi bilan e'tiborga loyiqdir.

³⁴ Davlatova A. Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. T.: - "Tafakkur", 2021. B. 90.

II BOB. YOZUVCHI NASRIY ASARLARIDA BADIY VOQELIK TASVIRI

2.1. Yozuvchi asarlarining xronotop tizimi

Xurshid Davron asarlarining eng ahamiyatli tomonlaridan biri uning xronotop tizimidir. Xronotop tushunchasi badiiy asarning mohiyati to'la anglab yetishda muhim o'rin tutadi. U asosan badiiy dunyoda makon va zamonni har jihatdan bir-biriga mos va uyg'un tarzda kechishini ifodalaydi. Bu istiloh yozuvchi tomonidan jonlantirilgan makon va zamonda qahramonlarning erkin harakatlanishi uchun qulay va badiiy nuqtayi nazardan mukammal bo'lishi talab etiladi. Yozuvchining lirik va epik turdagi barcha tarixiy asarlari ko'plab xronotop shakllarini o'z ichiga oladi. Bolaligi Samarqandda kechgan, tarix ilmi va adabiyotga o'zgacha mehr, ishtiyoq bilan yondashgan adibning ijod yo'li aynan tarix va adabiyot mushtarakligi asosiga qurildi. Bu izlanishlarning natijasi o'laroq yuzlab tarixiy mavzudagi she'rlar, "Sohibqiron nabirasi", "Samarqand xayoli", "Shahidlar shohi" kabi yetuk asarlar yaratildi. Bu asarlarda qahramonlarning bir-biri bilan uchrashuvi, mustahkam aloqalarning o'rnatilishi, turli fitnalar va isyonlarning keltirib chiqargan insonlar bilan tanishuv aynan qahramonning hayot yo'llarida, safarlarda sodir bo'ladi.

Aynan shu fokusdan qaraydigan bo'lsak, ijodkor asarlarida yo'l va safar xronotopi yetakchilik qiladi. Xronotop masalasida ilmiy izlanishlar olib borgan mashhur rus olimi M.Baxtin yo'l xronotopini shunday tasvirlaydi: "Aynan yo'lda ("katta yo'lda"), yagona makon va zamon nuqtasida, turli-tuman odamlarning – barcha tabaqa, daraja, e'tiqod, millat yosh vakillarining – makon-zamon liniyalari tutashadi. Bunda ijtimoiy ierarxiya normalari, manzil-makon ko'lamiga ko'ra tamomila uzoq bo'lgan kishilar ham tasodifan uchrashishi mumkin. Bunda har qanday ziddiyatlar chiqishi, turli taqdirlarning chatishib ketishi yuz beradi... Bu tugunlar bog'lanadigan va hodisalar ro'y beradigan nuqta. Bunda zamon go'yo makonga qo'yiladi va unda yo'l – o'zan hosil qilib, oqa boshlaydi. Yo'lning

bu qadar boy, “hayot yo‘li”, “yangi yo‘lga kirish”, “tarixiy yo‘l” tarzida metoforiklashtirilishi ham shundan...”³⁵

Xurshid Davron asarlaridagi tarixiy shaxslar ham o‘z taqdirini tubdan o‘zgartirib yuborgan insonlarga aynan mana shu “katta yo‘l”da duch keladilar. Yo‘l qahramonlar taqdirini tutashtiruvchi vosita, ayni mana shu yo‘lda tarixiy shaxslar o‘z hayot yo‘llarini o‘zga taqdirlar bilan bog‘laydi. Amir Temur hayotida eng ashaddiy dushmanlari bilan ham, eng yaqin odamlari bilan ham aynan mana shu yo‘lda tanishadi. Farzandlari, eng sevimli nabiralari – Ulug‘bek va Ibrohim Sultonlar safar chog‘i yo‘lda dunyoga keladilar. Sevimli farzandi Umarshayx Mirzo otasining besh yillik urushga otlanishi munosabati bilan unga yordam berish uchun safarga chiqadi va Xarmatu qal’asi yaqinida – yo‘lda halok bo‘ladi.

Amir Temur va temuriylar taqdirini jang xronotopisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Ko‘pchilik adabiyotshunoslarning fikricha, badiiy adabiyotning vazifasi voqelikdan nusxa ko‘chirish bo‘lmay, uni ijodiy-badiiy jihatdan qayta ishlab aks ettirishdir. Ammo bu jarayonda tarixiylik (istorizm) prinsiplariga rioya qilish zarur bo‘ladi: ya’ni tasvirlanayotgan zamon va makon (xronotop)ga xos yetakchi qonuniyat, tamoyillar buzilmasligi zarur. Ijodkor tarixiy voqea, tarixiy shaxs(lar)ga o‘zi suyangan ta’limot, mafkura nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishi, ularni o‘ziga xos talqin etishi mumkin. Xuddi shu sababga ko‘ra tarixiy romanlarda Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon, Amir Temur, Napoleon singari ulkan tarixiy shaxslar faoliyati, xarakteri turlicha tasvirlangan”³⁶

Bolaligidan boshlab jang san’atiga qiziqqan Sohibqiron o‘smirlik davridan hayotining so‘nggiga qadar jang maydonlarida ot surdi. O‘nlab o‘lkalarni bosib oldi, birgina urug‘ hokimligidan to katta saltanat barpo etgunga qadar kechgan hayot yo‘li jang-u jadallarga to‘la edi. Uning yana bir o‘ziga xosligi xatto xomilador kelinlarini ham ba’zan ug‘ruq tarkibida olib yurardi. Tug‘ilgan nabiralari jang maydonlarida qo‘llarida qilich ushlab katta bo‘lishlarini istardi. Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi”,

³⁵ Бахтин М. Форма времени и хронотопа в романе //в кн.: Вопросы литературы и эстетики. - Москва: "Художественная литература", 1975. - С.392,

³⁶ Nazarov O‘. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi (o‘zbek adabiyoti materiallari misolida). fil.fan. fal.dok.dis.–Qarshi: 2018. 18-b.

“Samarqand xayoli” asarlarining salmoqli qismini jang tasvirlari egallaydi. Prototip hayotining asliyatini hisobga olsak, bu nihoyatda tabiiy hodisa hisoblanadi.

Amir Temur Qur'on tilovat qilishni va tinglashni xush ko'rgan. Umri savashlar ichida kechayotgan bu insonning o'zi ruhan tetik va baquvvat bo'lsa-da, uning atrofidagi barcha shunday edi deya olmaymiz. Xattoki, buyuk Sohibqironning farzandlari, ishongan bek va sarkardalari ham ba'zan jangga o'tlanishdan bosh tortgan, bu vaziyatni Amir Temurga to'g'ridan to'g'ri emas, aksincha, turli usullarda anglatishga urinishgan. Ayni shunday vaziyatlarda tadbirkor fotih Qur'oni Karimga qarab fol ochgan, bashorat qilgan. Tabiiyki, musulmonlarning muqaddas kitobi – Allohning kalomiga qarshi hech kim biror so'z ayta olmagan. Quroni Karimdan bashorat qilish ham Amir Temur hayoti va uning badiiylashgan tipida juda ko'p uchraydigan xronotop turlaridan biridir. Chaqaloqqa Temur ismining berilishi, Hindiston yurishining boshlanishi kabi voqelar aynan shular jumlasidandir.

Sohibqiron Amir Temur ma'nan yuksak kishi edi. U yolg'iz qolganida Alloh va o'zi bilan kengashar, turli rejalar tuzardi. Ko'p hollarda bu rejalar ish berar va Temur muzaffar bo'lardi. Jang maydonida qanchalar zafar quchgan bo'lsa, taqdir uni shunchalik farzandlari, yaqinlari hayoti bilan sinovdan o'tkazdi. Xurshid Davron Sohibqironning tug'ilishi va farzandlari bilan bog'liq yo'qotishlarni tasvirlashda tush xronotopidan samarali foydalanadi. Avvalo, Amir Temurning tug'ilishi va dunyoni fath etishi haqidagi tushni otasi Muhammad Tarag'ay ko'radi. Asar davomida farzandlari O'ga begim, Jahongir mirzo va Umarshayx mirzolarining o'limi bilan bog'liq tush tasvirlariga keng o'rin beriladi.

Amir Temur va uning avlodlari hayotida muhim o'rin tutuvchi xronotoplardan yana biri qurultoy va kengashlardir. “Saltanatning muhim tadbirlari, bo'lajak harbiy yurishlar rejaları muhokama etiladigan qurultoy Amir Temur davlatining oliy kengashi edi. Shu bilan birga qurultoy mamlakatning bosh tantanasi bo'lib, Sohibqiron qo'li ostida birlashgan o'lkalarni boshqarish bilan band amirzodalar va boshqa davlati arkonlar uchun xuddi jang maydoni bilan baravar, hatto undan yuqori turadigan o'ziga xos sinov maydoni ham edi. Agar jang maydonida dilovalik sinalsa, bu kengashda farosat va

tadbirkorlik sinovdan o'tardi. Bu sababdan bo'lsa kerak, jang maydonida qo'rquv nimaligini bilmagan ayrim amirlar va amirzodalarqurultoy chaqirilganda sarosimaga tushib qolishar, unda qaysi bir tadbir o'rtada muhkama bo'lishini bilish uchun bor vositalarni ishga solardilar. Illo, jahongir jang maydonida qilich chopqilashdagi mohirlikni, qurultoyda esa o'ylab aytilgan so'zni ma'qul ko'rar, kim aravani quruq olib qochsa, mashvaratdan quvib chiqarishdan ham qaytmas edi."³⁷ Tom ma'noda bu xronotop sarkardalik va donishmandlikni o'zida jamlagan er kishilarning makonidir. Unda davlat miqyosidagi eng dolzarb masalalar hal etiladi, sarkardalarning aql-farosatlari imtihon qilinadi. "Syujet va kompozitsiya nuqtai nazaridan bu yerda uchrashuvlar ro'y beradi, fitnalar, sarguzashtlar tuguni hosil bo'ladi, yechimlar yuzaga keladi va, nihoyat, roman uchun o'ta muhim bo'lgan xarakterlar, "g'oyalar", qahramonona "ehtiroslar" ochiladi."³⁸

Ma'lumki, Amir Temur shatranj o'ynashni yoqtirgan. Ba'zan jang rejasini shatranj taxtasi ustida ishlab chiqqan. Harbiy yurishlar vaqtida dushmanni sarosimaga solish, o'zini urush maydonida bo'layotgan voqealarga befarqday ko'rsatish maqsadida jang vaqtida shatranj o'ynagan. Ayni mana shu xronotop Sohibqiron shaxsiyatida muhim ahamiyatga ega. Amir Temur tasvirlangan biror bir badiiy yoki tarixiy asar yo'qki, unda shatranj o'yini keltirilmasa. Yozuvchi qahramonning kenja o'g'li Shohruh mirzoning tug'ilishi va yangi bunyod etilayotgan shaharning qurib bitkazilishi haqidagi rivoyatni keltirish, eng muhim jang pallalarida shatranj o'yini tasvirini keltirish vositasida xronotopning bu turiga an'anaviy shaklda yondashadi.

Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi asarlarida xronotopning boshqa shakllari ham ishtirok etadi, albatta. Ulardan eng uchraydiganlari: chodir, tong, saroy, jangoh, g'or, tun, qarorgoh kabilardir.

Sodda qilib aytganda, xronotop yozuvchi badiiy niyati, fikrlash tarzi, badiiy tafakkur olami, dunyoqarashi singari intellektual

³⁷ X.Davron. Sohibqiron nabirasi. – T.: Sharq, 1994. B. 97-98.

³⁸ Бахтин М. Форма времени и хронотопа в романе //в кн.: Вопросы литературы и эстетики. - Москва: "Художественная литература", 1975. - С.396.

jarayonlar kechuvchi makon va zamonning eng qulay va mos vaziyatlarda namoyon bo'lishidir.

2.2. Xurshid Davron ijodida harbiy leksika

Xurshid Davron ijodi turkiy adabiyot, ayniqsa, Turkiya va Ozarbayjon ziyolilari tarafidan sevib o'qiladi. Shoir 1989-yilda adabiyot sohasida beriladigan Mahmud Koshg'ariy nomidagi Xalqaro mukofot, 2009-yilda Xalqaro "Oltin qalam" mukofoti, 2013-yilda esa Ozarbayjonning "Mikoyil Mushfiq" mukofoti bilan taqdirlangani ham uning ijodi naqadar serqirra va umuminsoniy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Uning ilk she'riy to'plami 1976-yilda "She'rlarim"dan joy olgan ilk mashqlarning o'ziyoq o'zbek adabiyotiga yangi bir ruh, yangi ovozning kirib kelayotganidan darak berardi. Shundan so'ng ketma-ket "Qadrdon quyosh", "Shahardagi olma daraxti", "Tungi bog'lar", "Uchib boraman qushlar bilan", "To'marisning ko'zlari", "Bolalikning ovozi", "Qaqnus", "Bahordan bir kun oldin" singari she'riy kitoblari dunyo yuzini ko'rdi.

Shoir ijodining salmoqli qismini tarixiy mavzudagi asarlar tashkil qiladi. Asli Samarqanddan bo'lganligi bois tarixiy mazmundagi asarlarida ko'hna Samarqand bag'rida saltanat surgan – Amir Temur va uning avlodlari, Bobur mirzo va boburiylar haqidagi tarixiy faktlarni saqlagan holda badiiy ijod namunalari yaratishga intilish ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Adib iste'dodining yana bir qirrasi uning so'z qo'llash mahoratida namoyon bo'ladi. Davr siyosati, mo'g'ullar iskanjasidan xalqni ozod etish va Turonni birlashtirish orzusidagi Amir Temurning hayoti jangu jadallarda kechgani sir emas.

Ushbu bobda Amir Temurning harbiy yurishlarida foydalangan qurol-aslaha, jang usullari hamda harbiy texnika vositalarining Xurshid Davron talqinidagi leksik qatlami tahlil qilingan.

Lug'at, xususan, harbiy leksikaga oid so'zlar, ma'lum bir badiiy matnning tuzilishi bilan bog'liq holda tilning hozirgi leksik tizimi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi ahamiyatlidir. Muayyan muallifning nutq uslubi, so'z qo'llash mahoratini o'rganish nafaqat milliy tilning rivojlanishini kuzatish kontekstida, balki yozuvchining til taraqqiyotiga qo'shgan shaxsiy hissasini aniqlash jihatidan ham

dolzarbdir. Har qanday badiiy asarning taqdiri muayyan tilning uslubiy imkoniyatlaridan va tasviriy-ekspressiv vositalaridan o'ziga xos foydalanishiga bog'liq. O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning asarlarida qo'llagan o'zbek tilining leksik va frazeologik fondi muallifning individual originalligidan dalolat beradi. Harbiy leksika va arxaik lug'at o'zbek tilining passiv zaxirasini tashkil etadi, shu bilan bir qatorda tilning bu qatlami zamonaviy adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan o'rganish uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Xurshid Davronning aksar nasriy asarlari Amir Temur va temuriylar davri manzaralari haqida hikoya qiladi. Tabiiyki, yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati ham shu davr til uslublari, me'yorlari jihatidan tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Yozuvchi nutqining individual jihatlarini tahlil etishdan oldin o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, temuriylar davri til taraqqiyotining aynan qaysi davrlariga mos kelishini aniqlab olishimiz va shunga ko'ra mulohaza yuritishimiz lozim.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili taraqqiyoti besh bosqichga bo'linadi va ularning har biriga xos xususiyatlar: frazeologik, leksik, morfologik, fonetik jihatlariga ko'ra farqlanadi. Shunga ko'ra tilimiz hozirgi iste'moldagi holiga kelgunga qadar quyidagi davrlarni bosib o'tdi:

1. Eng qadimgi turkiy til. Bu davr eng qadimiy yozma yodgorliklardan boshlab milodiy V asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrga oid manbalar saqlanib qolmagan.

2. Qadimgi turkiy adabiy til. Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy turkiy yozma yodgorliklar shu davrga oiddir. Taraqqiyotning bu bosqichi o'z ichiga milodiy VI-X asrlarni oladi. Bu davrda adabiy til shakllanishi boshlandi

3. Eski turkiy adabiy til XI asr va XIV asrning birinchi yarmida iste'molda bo'lgan. Bu davrda Qoraxoniylar, Chig'atoy turkiysi, Eski Xorazm turkiysi, Eski Qipchoq tili, Eski Onado'li turkchasi amalda bo'lgan.

4. Eski o'zbek adabiy tili XIV asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida amalda qo'llanilgan. Bu davrda turkiy til imkoniyatlari, qo'llanilish doirasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi.

5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. XX asr boshlaridan hozirga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.³⁹

Til taraqqiyotining dastlabki uch bosqichida umumturkiy tillarning barchasiga xos xususiyatlar yetakchilik qilsa, keying ikki davr, asosan, o'zbek adabiy tilining takomilida muhim rol o'ynadi. Biz tahlil etishni maqsad qilgan davr, ya'ni temuriylar davri aynan o'zbek adabiy tilining shakllanish davrlariga xosdir.

Har bir yozuvchining o'ziga xos nutqi, til imkoniyatlaridan foydalanish malakasi, badiiy tasvir vositalarini asarning qatlariga singdirib yuborish mahorati, badiiy asarda tasvirlanayotgan fikr, voqea, shaxs yoki predmetga subyektiv munosabati ijodkorning uslubini tashkil etuvchi asosiy komponentlardir. Badiiy uslubga bunday yondashuv yozuvchidan nafaqat lug'at boyligi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid bilimlar, balki tarix, madaniyat, badiiy asarning bosh g'oyasini o'zida mujassam etgan leksik qatlamga oid bilimlarni ham puxta o'rganishni talab etadi. O'zining tarixiy mavzulardagi badialari bilan adabiyotimizda o'z o'rni va og'irligiga ega bo'lgan yozuvchi Xurshid Davronning "Sohibqiron nabirasi" asari tarixiy ma'lumotlar va xalq ijodiyoti, fakt va badiiy to'qimalarning omuxtalashgan sintezi bilan adabiyotshunoslik, XIV-XV asr tili, xususan, harbiy leksikasidan keng foydalanilganligi bilan tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun manba bo'la oladi. Asarda ug'ruq, yaso, tuzuk, muhoraba, qurultoy, jiybaxona, xirgoh, sarko'b, muhosara, sada, xazara, manjaniq, cho'qmor, qodirandoz, kutvol kabi ko'plab o'rta asrlar harbiy san'ati va texnikasiga oid atamalarga duch kelamiz. Yozuvchi bu terminlardan Amir Temurning harbiy salohiyatini ifodalash, jang sahnalarini tasvirlash, harbiy yurishlar davrida askarlarning kundalik hayotini ifoda etishda mohirona foydalanadi.

Qat'iy harbiy intizomga ega qo'shinning sarkardasi buyuk Sohibqiron hamisha Chingizxonning yaso qonunlariga amal qilib qo'shinni boshqargan va qo'l ostidagilardan ham ayni shunday intizomni talab qilgan. Yasoq mo'g'ullarning buyuk xoni Chingizxon tomonidan qo'shinda tartib-intizomni saqlash, harbiy hayotga chiniqtirish maqsadida tadbqiq etilgan. Keyinchalik Amir

³⁹ X.Dadaboyev, Z.Xolmonova, Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. T.: - "Tafakkur bo'stoni", 2015. B. 7-8.

Temur ham o'z lashkarini boshqarishda Chingizxon yasosiga amal qilgan. Bu so'z mo'g'ulcha qonun, qaror, jazolash degan ma'nolarni bildiradi.

Sohibqiron harbiy safarga otlar ekan, uning ortidan doimo ug'ruq hamrohlik qilgan. Ug'ruq so'zi harbiy harakatlar vaqtida qo'shin ortidan podshohning oila a'zolari, zahira qurol-yaroq va ozuqani olib yuruvchi karvonga nisbatan ishlatilgan. Bu so'z o'rta asrlar tarixiga doir asarlarning deyarli barchasida uchraydigan eng ommalashgan atamalardandir. *Ug'ruq uzoq yo'l bosib bahor o'rtalarida Samarqandga yetib keldi.*⁴⁰

Ma'lumki, Amir Temur o'zi sarkardalik qilgan hech bir muhorabada yengilmagan. Keltirilgan misoldagi muhoraba so'zi urush, jang ma'nolarini ifodalaydi.

Amir Temur jang oldidan saltanatning muhim tadbirlari, harbiy yurishlarning rejalari, harbiy harakatlarga boshchilik qiluvchi sarkardalarni tanlash, jang usullarni belgilash, shahzoda va qo'shin boshliqlarining jang oldidan fikrlarini bilish va muhakoma etish uchun qurultoy chaqirgan. Qurultoy jang vaqtida Amir Temur davlatining oliy kengashi sanalgani. Yozuvchi qurultoy bilan bog'liq holatni shunday tasvirlaydi: *Shu bilan birga qurultoy mamlakatning bosh tantanasi bo'lib, Sohobqiron qo'li ostida birlashgan o'lkalarni boshqarish bilan band amirzodalar va boshqa davlati arkonlar uchun xuddi jang maydoni bilan baravar, hatto undan yuqori turadigan o'ziga xos sinov maydoni edi.*⁴¹

Harbiy yurishlar oldidan qo'shinni qurol-yaroq bilan ta'minlovchi ustaxonalar xizmati avj olgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida bunday hunar egalariga ehtiyoj har qachongidan ko'ra ko'proq, talab esa juda yuqori edi. Mudofaa yoki tinchlik zamonlarida qurol-aslahalar maxsus omborlarda saqlanar edi. Asardagi Sohobqiron o'g'lining o'limi bilan bog'liq sahnada ayni shunday omborlarga nisbatan jiybaxona termini qo'llaniladi. Bu so'z qurol-aslaha saqladigan maxsus ombor ma'nosini anglatadi. Omborning xavfsizligini ta'minlovchi mas'ul shaxs jiybaxonachi deb yuritilgan. *Munshiy xatni unga o'qib berar ekan, hukmdor hali aftini ko'rmagan jiybaxonachidan qattiq nafratlandi.*⁴²

⁴⁰ Xurshid Davron. Sohobqiron nabirasi. T.: - "Sharq", 1995. B. 177.

⁴¹ O'sha kitob. B. 97.

⁴² O'sha kitob. B. 105.

Umri jangu jadallar ichida kechgan sarkarda asosiy vaqtini qo'shin bilan birgalikda jang chodirida o'tkazar edi. Bunday ko'chma chodirlarga nisbatan xirgoh so'zi qo'llanilgan. Unda shohning ko'chma taxti va shaxsiy buyumlari saqlangan. Jang vaqtida sarkarda barcha muhim tadbirlarni, elchilarni kutib olish ishlari, jang taqdiri haqidagi yangi rejalarni xirgohda amalga oshirgan. *"Kirsin!"- dedi Shibqiron daryodan urilgan salqin shabadadan ohista tebranib turgan xirgoh pardalariga tikilganicha.*⁴³

Bu davr harbiy leksikasida sarko'b so'zini ham ko'p uchratamiz. Chunki sarko'b mudofaa jangi olib borilayotgan g'animga qirg'in keltirish maqsadida sun'iy yo'l bilan barpo etilgan tepa, qal'a yoki hisorsimon baland joyni bildiradi. Sharq xalqlari, xususan, Amir Temur, Shayboniyxon, Xiva xonlari armiyasida qamal chog'ida faol qo'llanilgan taktik usullardan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda ko'pdan ko'p qal'a va qo'rg'onlar baland devor, burj va boru (o'q otish uchun mo'ljallangan shinaklar)ga ega bo'lgan. Mustahkam qal'a va qo'rg'onlar uzoq muddatli mudofaa uchun zarur qurol-yarog', oziq-ovqat, yem-xashak bilan ta'minlangan. Bunday inshootlarni bir hamla bilan qo'lga kiritish mumkin bo'lmagan. Ana shunday kezlarda muhosara qurol-yarog'lari ishga solingan. Mudofaadagi qal'a yoki qo'rg'on devorlari yonida undan baland bo'ladigan tuproq uyumlariadn sarko'blar tiklashgan. Minglab askarlar tevarak-atrofdan o'tin, yog'och, shox-shabba to'plab, ustidan tosh, shag'al va tuproq to'kib sun'iy tepaliklar barpo etishgan. Ayni chog'da daraxt xodalaridan yasalgan narvonlar yordamida jangchilar qal'a devoriga chiqishgan. Sarko'blardan, asosan, kamonchilar dushmanga hujum qilish uchun foydalanishgan. *Sohibqiron qal'aning sharqiy darvozasi ro'parasida sarko'b tiklashni buyurdi... U sarko'b tiklanishini va sharq tomondan oqib kelayotgan temir oqimni mana shu sarko'b poyida yig'ilishini ham kutib o'tirmadi).*⁴⁴

Qamal ma'nosida qo'llanilgan muhosara so'zi ham tarixiy asarlarda juda ko'p qo'llaniladi. Amir Temur qo'shini juda ko'p shaharlarni, qal'alarni sabr bilan muhasara etganlar. Hatto ba'zi manbalarga ko'ra Temur qo'shini Ozorbayjondagi Alinja qal'asini

⁴³ O'sha kitob. B. 106.

⁴⁴ O'sha kitob. B. 106.

o'n bir yil davomida muhosarada tutgan. ... *muhosara kuchaygandan kuchayar, har ikki tomon bir-birini ayashni xayoliga ham keltirmasdi.*⁴⁵

Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur o'z qo'shinini ma'lum miqdor va sifatga ko'ra guruhlariga bo'lgan. Har bir guruhga esa rahbar tayinlagan. Guruhdagi askarlarning soniga qarab ularga daha (o'nlik), sada (yuzlik), hazora (minglik), tuman (o'n minglik) kabi nomlar berilgan. Qo'shinni bu tartibda bo'lish XVIII asr oxirlariga qadar saqlanib qolgan. Amir Temur qo'shinidagi tumanlarga Sohibqironning o'g'illari, nabiralari hamda Shayx Nuriddin, Hoji Sayfuddin, Shohmalik, Allohdod, Jahonshoh singari nomdor beklar rahbarlik qilgan. *Temir oqim qal'a devorlariga bo'ron paytida quturgan dengiz to'lqinlaridek borib urilar – sada ketidan hazora, hazora ketidan qo'shin kelardi.*⁴⁶

Qadimgi Yunoniston va Rimda katapulta nomi bilan yuritilgan, asosan, qal'a va qo'rg'onlarni qamal qilishda qo'llaniladigan toshotar harbiy qurilma Sharqda manjaniq deyilgan. Manjaniq eshilgan pay, tola yoki junning egiluvchanlik kuchi ostida harakatga keltirilgan. Manjaniq yordamida qamaldagilarga qarata tosh yadrolar irg'itilgan. Tosh topilmagan kezlarda turli daraxtlardan tayyorlangan g'o'la va kundalardan foydalanilgan. Xususan, mo'g'ul bosqinchilari Urganchni 7 oy davomida qamal qilish asnosida tevarak-atrofdan tosh topmay, tutning kundalarini kesib, manjaniqqa solib shaharga otganlar. Undan otilgan tosh, kunda, g'o'lalar bir necha yuz metrga borib tushgan. Bu qurol qal'a, qo'rg'on devorlarini buzish, raxna ochish yoki binolarni yakson qilish, shuningdek, qamaldagilarga qiron keltirish uchun ham mo'ljallangan. Amir Temur armiyasida ham manjaniq mavjud bo'lgan. Tikrit, Mordin kabi mustaham qal'alarni egallashda aynan shu qurol qo'l kelgan. O'rta Osiyoda XV asrdan boshlab o't sochish quroli - to'p, zambarakning paydo bo'lishi manjaniqdan asta-sekin voz kechishga sabab bo'ldi. Toshotar qurilmaning manjaniqqa nisbatan kichikroq turi arrada deb nomlangan. *Manjaniqlaru arradalar qal'a devorlarini buzish uchun*

⁴⁵ O'sha kitob. B. 110.

⁴⁶ O'sha kitob. B. 110.

*tinmay ishlar, cho‘qmorlaru xarbalarning bir-biriga urilgandagi jaranglari to‘xtamasdi.*⁴⁷

Jang qurollaridan yana biri cho‘qmor bo‘lib, undan, asosan, yuzma yuz jangda foydalanilgan. Cho‘qmor to‘qmoq shaklida yasalgan eng qadimiy jang qurolari sirasiga kiradi. Amir Temur qo‘shinida cho‘qmor, shashpar, gurzi kabi qurollardan keng foydalanilgan.

Tarixiy manbalarda kamondan o‘q otuvchilar qodirandoz deb ham tilga olinadi. Qodirandoz – mumtoz adabiyotda mohir o‘qchi, mergan ma’nosini anglatadi. Ular hatto tunda nishonni bexato olganligi haqida ma’lumotlar beriladi. Xurshid Davron Amir Temur qo‘shinidagi kamonchilar haqida ma’lumot berganda ularga qodirandoz nisbatini bergan. *Tong yaqinlashib, atrof yorisha boshlagan g‘ira-shiralikda Amir Temur amri bilan yasulboshi qodirandozlarni ishga soldi, ularning yoydan bexato o‘q uzishlari tufayli shahrband ustidagilar tutdek to‘kildilar.*⁴⁸

Xulosa qilib aytganda, leksik tomondan adabiy matn juda murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Badiiy matn muallifi o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladigan va turli xulosalarni to‘playdigan tasvirlardan foydalanadi. Biroq, ko‘pincha muallif o‘z pozitsiyasini ochiq bildirmaydi. Demak, uning maqsadini to‘liq anglash uchun badiiy matnning ma’nosini anglabgina qolmay, balki uning leksik va sintaktik elementlarini ham tahlil qilish zarur.

Iste’dodli va o‘ziga xos yozuvchi Xurshid Davron adabiy nasrida qo‘llanilgan harbiy leksik qatlamga oid so‘zlarni tahlil qilish uni nafaqat ijodkor, balki tarixchi va tilshunos olim sifatidagi faoliyatining yangi, qiziqarli tomonlardan ochib berishga yordam beradi.

2.3. Xurshid Davronning folklor motivlaridan foydalanish mahorati

Adabiyot olamida har bir adibning o‘z o‘rni bor. Kimdir nazmda yuqori cho‘qqilarni zabt etsa, yana kimdir nasrda o‘z iste’dodini namoyon etadi. Adabiyotning har ikki turida birdek nodir asarlar yarata olish qudratiga ega bo‘lgan so‘z san’atkorlarini

⁴⁷ O‘sha kitob. B.110.

⁴⁸ O‘sha kitob. B.111.

esa haqiqiy fenomen ijodkor deyish mumkin. Xurshid Davron adabiyotimizning xuddi shunday durdona ijodkorlari sirasiga kiradi.

Xurshid Davron nomini eshitgan kitobxon ongida eng avvalo shonli o'tmishimizni ulug'lovchi, Ona Vatanimiz madhini eng baland pardalarda kuylovchi, tariximiz, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri voqealarini yorqin chizgilarda aks ettirgan tarixiy asarlar muallifi gavdalanadi. Adib xoh nazmda, xoh nasrda yozsin, tarixiy faktlarga, o'nlab ishonchli manbalarga suyanib ish ko'radi. Asoslarni chuqur o'rganib, ma'lumotlarni fikr tarozusida ming qayta o'lchab tahlil etgandan keyingina asar matnini yozishga kirishadi. Ijodkorning mehnatlari samarasi o'laroq, "Samarqand xayoli", "Sohibqiron nabirasi", "Shahidlar shohi" kabi tarixiy-ma'rifiy qissalar dunyo yuzini ko'rdi. Bu asarlarning har biri o'ziga xos sabab va tarixga ega.

Xususan, "Bibixonim" qissasining yozilishiga asosiy turtki bo'lgan sabab ijodkor tomonidan shunday izohlanadi:

"Bundan o'n ikki yil muqaddam Bibixonim haqida doston yoza boshlaganimda, qog'ozga tushirgan birinchi yozug'im ushbu bo'lgan edi: **Bu doston Bibixonim haqida emas, balki bizning tarixga bo'lgan munosabatimizni belgilash haqidadir.**"⁴⁹

Izohdan ham ma'lumki, yozuvchining asl maqsadi Sohibqiron Temurning suyukli xotini, siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi, oqila va fozila malikaning tarix sahnasida tutgan o'rnini yoritishdan iborat emas. Balki shu vaqtga qadar o'tmishimizga qarata otilgan nohaq toshlardan ajdodlarimizning pok ruhlarini himoyalash, ularga nisbatan munosabatimizga oydinlik kiritish, tarixning faqat chirkin tomonlarini emas, tarixiy haqiqatni ro'y-rost o'rtaga chiqarishdan iboratdir.

Bu qissa avvalo she'riy doston shaklida yozila boshlagan. Ammo shoir dostonni she'riy shaklda tugata olmagan. Keyinroq adib doston ustida qayta izlanishlar va to'plangan materiallarning hisobi, manbalarning xilma xilligi, dalillarning barchasi muhim ekanligi hisobga olib bunday tarixiy-badiiy ocherkni nazmda yozish imkonsiz ekanligini tushunib yetadi. Chunki bunday keng miqyosdagi tarixiy jarayonlarni til va uslub jihatidan nasrga qaraganda

⁴⁹ X.Davron. Sohibqiron nabirasi. – T.: Sharq, 1995. – 10-b.

imkoniyatlari ancha cheklangan nazmda tasvirlash kutilgan natijani bermasligi ayon edi. Bu voqeaga shoir “Tajriba kamlik qildimi, boshqa narsa sabab bo‘ldimi... har holda doston chala qoldi... Lekin kunlarning birida: “Nasrda yozsamchi?” – degan o‘y miyamda chaqmoqday yarq etdi-yu, negadir ko‘nglim yorishib, o‘zimda yo‘q quvonib ketdim”,⁵⁰ - deya sharh beradi. Bu chindan ham oqilona yondashuv edi. Chunki adib asarni yozish jarayonida Amir Temur va uning sevimli xotini Bibixonimga aloqador ko‘plab tarixiy asarlar va hujjatlarni sinchiklab o‘rganadi. Tarixiy haqiqat bilan bir qatorda mashhur malika haqidagi xalq tomonidan tildan tilga o‘tib, hanuz yashab kelayotgan afsonalarni ham jiddiy tadqiq etdi.

Asarni o‘qir ekansiz, Bibixonim haqidagi xalq orasida ancha mashhur bo‘lgan afsonalarga duch kelasiz. Bular: Bibixonim va usta yigit, Bibixonim va chopar, Bibixonim va madrasa talabalari, ulug‘ Sohibqiron va Bibixonimning ilk uchrashuvi haqidagi afsonalardir.

Bu afsonalarning paydo bo‘lishida ham ma’lum darajada haqiqat bor. Bibixonim va usta-me’mor haqidagi afsonaning paydo bo‘lishiga ulug‘ malikaning madrasa qurish ishtiyoqi sabab bo‘lgan. Amir Temur Hindistonga yurish qilganda Bibixonim suyukli yori qaytguncha mahobatli madrasani qurib bitkazish uchun Samarqandning eng mohir ustalarini to‘playdi. Ularga qurilajak madrasaning ta’rifini aytgandayoq, ustalar bu binoning naqadar ulug‘vor bo‘lishini anglagan edilar. Afsonada xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydigan tush motivi keltiriladi. Har bir ustaning tushiga malika orzu qilgan va ta’rifini keltirgan mahobatli imorat kiradi. Shundan so‘ng ular aniq reja asosida ishni boshlashadi. Qurilish jarayonida ustalar boshlig‘i malikaga oshiq bo‘lib qoladi. Ma’lumki, malikaning yuzini ko‘rish nomahramlar uchun mumkin emas. Folklor an’analariga muvofiq malikaning yuzini oshiqqa ko‘rsatish uchun shamol vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shundan so‘ng usta yigit yuragidagi ishq olovi yanada kuchliroq alanganadi. Yigitning qo‘li ishga bormay, madrasaning qurilishi cho‘zilib ketadi. Usta yigit esa, malikaning noilojligidan foydalanib unga bir o‘pich berish shartini qo‘yadi. Tabiiyki, dono malika bu vaziyatdan qutulishning eng oqilona yo‘lini topadi. Usta uchun qirqta tuxum pishirtirib, har xil

⁵⁰ O‘sha kitob. B.17.

ranglarga bo'yaydi va ustaga mazasini bilishi uchun jo'natadi. Tuxumlarning mazasi bir xilligini aytgan ustaga ayollarning ham barchasi yaratilishda bir xil ekanini aytadi. Malikaning bu tadbiri oshiq yigitni hayratga soladi va yigit shu kundan boshlab avvalgidan ham kuchli g'ayrat bilan ishlaydi. Sohibqiron safardan qaytgungacha madrasa bitadi. Yigit ham malikaga oshiqligi sarguzashti Sohibqiron qulog'iga yetib borishidan qo'rqib, qamishdan qanot bog'lab uchib ketadi.

Afsonaning ayrim variantlarida oshiq malikadan o'pich olishga muvaffaq bo'ladi. Yigit labi tekkan joy oshiq qalbi taftidan kuyganligiga alohida urg'u ham beriladi. Ammo afsonaning bu varianti haqiqatdan ancha uzoq. Chunki sadoqatli va tadbirli ayol ilojisiz qolganda ham bunday ishga o'z roziligi bilan qo'l urmaydi. Ayniqsa gap Bibixonimday ham axloqiy, ham nasab jihatidan yetuk bir fozila ayol haqida ketganda voqealar bunday tus olishi mumkin emas. Xurshid Davronning ham bu variantga batafsil to'xtalmagani fikrimizga yana bir dalil bo'la oladi. Voqealar rivoji qanday kechganidan qat'iy nazar bu afsona bizga Bibixonimning yaratuvchanlik faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Asarda keltirilgan ikkinchi afsonada esa, Temur bosib olgan o'lkalarida isyonkor xalqni ulug' malika tadbirkorligi ila qanday boshqarganligi haqida so'z yuritiladi. Afsonada maktub buyuk sarkarda va oqila malika o'rtasida vosita hisoblanadi. Malikaning tadbirkorligi, o'ta sezgir va ziyrak ekanini ko'rsatish uchun biror voqea yuz berishi talab etiladi. Xuddi shunday voqea choparning qiziquvchanligi tufayli yuz beradi. Chopar maktubni ochib ko'radi. Malika xatni olgan zahoti uning ochilganligini payqaydi va o'ta dono tadbir qo'llaydi. Chakalakzordagi barcha daraxtlarni tomiri bilan qo'portirib, o'rniga yosh nihollarni o'tkazadi. Amir Temur bu voqaeni chopar tilidan eshitishi bilan maktubning ochilgani va malikaning unga aytmoqchi bo'lgan fikrini tushunadi. Bu o'rinda Bibixonimning naqadar farosatli ayol bo'lganiga yana bir bor amin bo'lasiz. Qissada afsona bilan bog'liq bir qator tarixiy faktlar o'rin olgan. Temur davlatining paydo bo'lishi va boshqaruv tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Qissadagi uchinchi afsona Temur davlatidagi madrasalarning birida sodir bo'ladi. Uch talaba yigit va Bibixonim haqidagi afsona

bizga ulug‘ sarkardaning ilm-fan va ma’rifatga qay darajada e’tiborli ekani, Samarqand diyori qadimdan madaniyat o‘chog‘i bo‘lganligi haqida hikoya qilinadi. Bibixonimning xalqqa g‘amxo‘rligi, xalq dardini eshita olishi, elning holidan doimo boxabar bo‘lish uchun ko‘rsatgan sa’y-harakatlari asarda o‘z ifodasini topgan.

Qissani yakunlovchi to‘rtinchi afsona ham bevosita Bibixonim bilan bog‘liq. Jumladan, bu afsonada Bibixonimning nasabi, Amir Temur bilan nikohi, saroyda tutgan mavqei va davlat siyosatidagi muhim shaxs ekanligi tarixiy dalillar asosida o‘rganilgan. Ammo afsona biroz haqiqatdan yiroq. Chunki tarixiy faktlarga tayanadigan bo‘lsak, Saroymulxonim besh yoshida otasidan ayriladi. Ammo afsonada Saroymulxonimni o‘n olti yoshga yetganda otasi sevimli qizi uchun munosib kuyov axtarish tadorigiga tushib qoladi. Yana tarixdan ma’lumki, Saroymulxonim Amir Temur nikohiga kirgunga qadar amir Husaynning zavjasi edi. Temur Samarqand hokimiyatini qo‘lga kiritib, amir Husaynni o‘ldirgandan keyin Saroymulxonimga uylanadi va “Ko‘ragon” unvonini oladi. Afsonada esa, ular ancha yosh vaqtlarida Bibixonim o‘n olti yoshda, Amir Temur esa hali hokimiyatni to‘la qo‘lga olmagan yosh sarkarda sifatida tasvirlanadi.

Qissani o‘qir ekansiz, yana ko‘plab afsonalarga duch kelasiz. Ammo yozuvchi nega aynan shu to‘rt afsonaga urg‘u bergan. Bizningcha, bu afsonalarning har biri, ayniqsa, dastlabki uch afsona o‘zining tarixiy ildizlariga ega. Vaqt o‘tishi bilan bu voqealar sayqallanib, og‘izdan og‘izga o‘tib borarkan, xalq tomonidan ideallashtirilgan degan xulosaga kelish mumkin.

2.4. Xurshid Davron ijodida navoiy obrazi talqini

Turkiy xalqlar qadim zamonlardan buyon o‘zining boy milliy tarixi, umuminsoniy qadriyatlari, abadiyatga daxldor boy ma’naviy merosi bilan jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Turkiy xalqlar adabiyoti haqida gap ketganda, hech ikkilanmay, o‘tgan asrlarning eng gullagan davri deya Hazrat Navoiy davri va uning benazir ijodiy merosi e’tirof etiladi. Dunyo ilm-fanida, xususan, o‘zbek adabiyotshunosligida ham buyuk shoir, davlat arbobi Mir Alisher Navoiy ijodi o‘rganilishi barobarida shoir shaxsiyatiga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada Oybek, I.Sulton, Sh.Sirojiddinov, O.Davlatov, D.Yusupova, A.Xayitmetov, I.Haqqul,

U.Jo‘raqulov kabi bir qator jonkuyar olimlarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Olib borilgan ilmiy va ijodiy izlanishlarning natijasi o‘laroq Oybekning “Navoiy” romani, I.Sultonning “Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari va uning tanqidiy matni” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, A.Xayitmetovning “Navoiy lirikasi”, U.Jo‘raqulovning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” nomli monografiyalari, Sh.Sirojiddinov, O.Davlatov, D.Yusupovalar hammuallifligida “Navoiyshunoslik” nomli oliy o‘quv yurtlari uchun darsligi yuzaga keldi.

Hazrat hayotiga bag‘ishlangan badiiy asarlar ijod etganlar orasida shoir, yozuvchi va olim Xurshid Davronning “Navoiy armoni” hikoyasi alohida ahamiyatga ega. Hikoya hajman kichik janr bo‘lsa-da, mazmunan juda katta vazifa bajarishi bilan adabiyot olamida ayricha o‘rin egallaydi. Hikoyalar zamiriga hayotning ayni oni singdiriladi.

“Navoiy armoni” hikoyasida taxminan 1497-1500 yillar oralig‘ida temuriylar xonadoni va Alisher Navoiy hayotida ro‘y bergan voqealar qalamga olinadi. Ma’lumki, 1497-yil erta bahorida temuriy shahzodalardan biri Mo‘min mirzo bobosi sulton Husayn Bayqaroning mastlik oqibatida bergan farmoniga binoan qatl etildi. Bu davrga kelib Alisher Navoiyning ham ko‘nglini band etgan muqaddas Haj safarini ado etish istagi yanada mustahkamlanib azmi qaror holiga kelgan edi. Ma’lumki, Haj – islomning besh asosiy ruknidan biri. Haj qilish es-hushi butun, sog‘lom, balog‘at yoshiga yetgan va oilasi nafaqasidan tashqari safar harajatlariga kifoya qilgudek mablag‘i bo‘lgan har bir musulmonga (umrida bir marta) farz qilingan.⁵¹ Hazratga “Nizomiddin” nisbatining berilishi ham bejiz emas. U kishi dinu diyonat ahlining homiysi, islom dini arkonlariga, muqaddas dinimizning nizomiga to‘la amal qiluvchi solih inson edi.

Ammo Mo‘min mirzo bilan bog‘liq bu voqea shundoq ham nurab borayotgan saltanat tanazzulini yanada tezlashtirib yubordi. Badiuzzamon mirzo o‘g‘lining xunini talab qilib otasiga qarshi bosh ko‘tardi. Shahzoda Navoiyning nasihatlariga qaramay, otasiga bosh egishni, uni kechirishni istamadi. Shunday bo‘lsa ham keksa shoir

⁵¹ wikipedia.uz

podshohga “Farzandingiz tavba qilishga tayyor”, - deb aytdi.⁵² Shohga ham shahzoda rozi bo‘ladigan shartlarni qabul qildirdi. Bu o‘rinda Navoiyning naqadar buyuk donishmand, oqil siyosatchi ekanligi ko‘zga tashlanadi. U nafaqat bir ota-o‘g‘il urushiga to‘sqinlik qildi, balki eng avvalo, xalq tinchligi, begunoh insonlar qoni to‘kilishining oldini oldi. Ammo bu bilan shahzodalar o‘rtasidagi isyonlar barham topmadi. Birin-ketin sultonning boshqa o‘g‘illari: Abulmuhsin mirzo, Muhammad Husayn mirzolar ham mavjud hokimiyatga qarshi isyon ko‘tardilar. Bu isyonlarning biri qilich zo‘ri bilan, yana biri aql kuchi bilan, birisi esa Hazrat Navoiyning tadbirkorligi bilan bartaraf etildi.

Navoiy hikoya boshlanishidan to so‘ngiga qadar Haj safariga ketishga astoydil bel bog‘laydi. Ammo har safar mamlakatdagi parokandalik, shahzodalar o‘rtasidagi taxt uchun kurash, ichki va tashqi dushmanlar xavfi bu safarga to‘sqinlik qiladi. Hatto sultonning ijozat maktubi va yo‘l xavfsizligini ta‘minlovchi maxsus farmonni qo‘lga olingandan keyin ham safar amalga oshmadi. Hikoya so‘ngida Navoiy Haj safariga otlangan karvonni kuzatib, “Unsiya”ga qaytgach, “Vaqfiya”dan quyidagi satrlarni o‘qiydi:

“...Ikki orzu rishtasidin o‘zgakim, girihi ko‘nglum pardasidin yechilmadi va ikki murod g‘unchasidin o‘zgakim, tuguni jonim gulshanidin ochilmadi.

Ammo umidim uldurkim, bu ikki umidim mevasidin dag‘i borumand va murodim budirkim, bu ikki murodim gavharidin dag‘i sarbaland bo‘lg‘aymen va bu orzumandlig‘ xor-xorining tikani ko‘nglumda sinmag‘ay va bu murod gavharining yog‘inin qatradek tufroqqa eltgaymen...

...Bu mazkur bo‘lg‘on ikki orzudin biri muborak safardurur...”⁵³

Parchadan ma‘lumki, Navoiyning bir armoni bu – muborak Haj safari. Lekin uning mana shu orzusiga erishish yo‘lidagi yagona to‘siq esa uning ikkinchi armoni, ya‘ni ikki umid mevasi va ikki murod gavharidan biri bo‘lmish xalq osoyishtaligi, yurt tinchligidir.

Alisher Navoiy haqida yozilgan barcha asarlarda biz ul zotni saltanat tashvishlari bilan band, ijod ishq bilan yonuvchi, o‘z

⁵² Davron X. Samarqand xayoli. - T.: Kamalak, 1991. B. 182.

⁵³ O‘sha kitob. B. 196,197.

shogirdlari ila hamisha qizg'in bahs-munozara ustida tasvirlanishiga odatlanib qolganmiz. Yozuvchining mahorati shundaki, Navoiyning muqaddas Haj safarini ado etish istagini yoritish asnosida uning atrofida sodir bo'layotgan voqealar pafosini shunday joylashtiradiki, natijada kichik hajmli asarning betakror syujeti maydonga keladi.

Asarda Navoiyning hayot falsafasi, buyuk orzusi, ya'ni komil inson tarbiyasi borasidagi qarashlarini siyosiy jarayonlarga muvofiq tarzda keskin fikrlar orqali ifodalangan o'rinlarda ham kuzatishimiz mumkin.

- "Yana Astrobodda isyon, - dedi podshoh, - yana farzand isyoni..."

- Astrobod ham, farzandingiz ham ko'zingizdan yiroq, shul sabab qo'rquvni unutarlar, - dedi Amir Valibek.

- Yo'q, janob Valibek, ular mehrni, oqibatni unutarlar, - dedi qat'iyat bilan shoir.⁵⁴

Hikoyada Navoiy shaxsiyati o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, fikr-mulohazalarini podshohga erkin ifoda eta oladigan, shahzodalar isyonini bostirishda ham harbiy taktikaga ega, ijtimoiy va siyosiy hayotda juda faol, din va diyonat amallariga so'zsiz itoat etuvchi tarixiy obraz sifatida gavdalangan. Yozuvchi qahramonning ruhiy holatlarini ifodalashda shoir qalamiga mansub baytlardan juda o'rinli foydalanadi. Shahzoda Badiuzzamon isyonini bostirib, dor us-saltanatga qaytarkan, quyidagi baytni o'qiydi:

To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,
To nafsu havo kasri baraftod o'lmas,
To zulmu sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas...

Darhaqiqat, xalq farovonligini ta'minlovchi yagona vosita bu odil podshoh va fidoyi amaldorlar. Toki hirsu havas bizni boshqarar ekan, nafs ko'yida jabru zulmni kasb etar ekanmiz, mamlakat obodligi, xalq farovonligi haqida so'zlab ham bo'lmaydi. Navoiyning har bir asarida komil inson g'oyasi mujassam. Tabiiyki, Alisher Navoiy haqida yozilgan asarlarda ham mana shu oliy g'oya mavjud. Navoiyning nechog'li pok, iymon-e'tiqodli, barkamol inson ekanligini badiiy ifoda etish maqsadida asar syujetiga G'urrak va

⁵⁴ O'sha kitob. B. 196,192.

Chumoli haqidagi voqealar ham mohirona singdirib yuborilgan. Shoir ta'kidlaganidek:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay...

Hikoyaga zohiran nazar solgan kishi Navoiyning armoni muqaddas safar ekanligini anglaydi. Aslida shoirning buyuk armoni bu – mamlakat totuvligiga xizmat qiluvchi adolatli va tashqi dushmanlarga qarshi birgalikda harakat etuvchi, buyuk Sohibqiron barpo etgan ulug' saltanatning parchalanib ketishiga monelik qiluvchi temuriyzodaning yo'qligi edi. Oradan olti asrga yaqin vaqt o'tganiga qaramay, Navoiy qalamga olgan muammolar, orzu-armonlar, g'oya va maslaklar hanuz o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Yozuvchi Xurshid Davron yaratgan Navoiy obrazi yetuk maqomga erishgan ma'naviy-axloqiy kamolot timsoli bo'lib, hikoyada qo'llangan har bir detal, motiv va poetik obraz ijodkorning betakror badiiy mahoratini namoyon etgan.

III BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXI XURSHID DAVRON TALQINIDA

3.1. Xurshid Davron ijodida amir temur va temuriylar obrazi

Jahon tarixida ona Vatanini bosqinchilar zulmidan ozod etishga harakat qilgan, yurti osoyishtaligi yo‘lida o‘z jonidan kechgan, xalq turmushini yaxshilash va ilm-fan ravnaqi yo‘lida olamshumul kashfiyotlar yaratgan insonlarga tarix sahnasidan manguga joy egallaydilar. Buyuk Turon tarixida bunday fidoyi shaxslarni XII asr boshlari va XVI asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda juda ko‘plab uchratish mumkin. Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi nodir shaxslar ayni shu davrning vakillaridir. Ular orasida Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur shaxsi alohida ajralib turadi. Har ikkala hukmdorni shafqatsiz mo‘g‘ul imperiyasi zulmidan xalqimizni ozod etish yo‘lidagi sa’y-harakatlari bir nuqtada birlashtiradi. Jaloliddin Manguberdi o‘n bir yil davomida Chingizxon zulmiga qarshi kurashgan bo‘lsa, oradan salkam bir yarim asrlik vaqt o‘tib Sohibqiron Amir Temur bu ishni yakuniga yetkazdi va xalqimizni mustamlaka zulmidan ozod etdi.

Sobiq mustamlaka tuzumi davrida Amir Temur shaxsiyati faqat kallakesar, qaroqchi, omi va savodsiz, beshafqat hukmdor sifatida o‘rganildi. Albatta, rus va boshqa bir qator Yevropa olimlarining bunday fikrlash uchun tarixiy manbalarga tayanishlari lozim edi. Ular, asosan, Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur” asarida keltirilgan: “Temur va uning otasi hayqiroq cho‘ponlardan bo‘lib, na aqliyu na dini bo‘lmagan avom kishilar toifasidan ekanlar. Yana aytadilarki, u mulozim odamlardan, past tabaqa tanballardan bo‘lgan.”⁵⁵ – degan fikrga asoslanganlar. Faqatgina chet el tarixchilari emas, yaqin-yaqingacha o‘z tarixchilarimiz ham bu fikrga qo‘shilar edi. Ibn Arabshoh ayni shu asarning kirish qismida: “Men bu qissadan o‘zim ko‘rganlarimni eslab, bu to‘g‘rida boshqalardan rivoyat topganlarimni bayon qilishni irodat etdim”⁵⁶ – deya ta’kidlaydi. Temur vafot etganda olimning o‘smir yoshda bo‘lgani, ona vatani Damashqning vayron etilganini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganligi va

⁵⁵ Ibn Arabshoh, “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur”, 1-kitob, – T.: “Mehnat”, 1992. 69-b.

⁵⁶ O‘sha asar, 67-b.

keyinchalik Usmonli turk hukmdorlaridan Muhammad I ning shaxsiy kotibi lavozimida xizmat qilganligini e'tiborga olsak, olim Amir Temur haqida samimiy asar yarata olmasligi tabiiy hol edi. Ammo bu asar buyuk foh haqidagi yagona tarixiy manba emas. Shomiy, Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, G'iyosiddin Ali, Rui Gonsales de Klavixolar ham Sohibqironga atab nodir asarlar bitganlar. Rus mustamlakasi davrida bu asarlar ilmiy-amaliy jihatdan jiddiy tadqiq etilgan bo'lsa-da, keng omma faqat ajdodlarimizga bir yoqlama munosabatda bo'lishga majbur etildi. Bu davrlarda Y.Berezikovning "Buyuk Temur", M.Ivaninning "Amir Temurning harbiy san'ati", L.Kerenning "Amir Temur saltanati", M.Brionning "Menkim, Sohibqiron –jahongir Temur", rus akademigi Bartoldning bir qator ilmiy, tarixiy-adabiy asarlari ham yaratildi va keng ommaga taqdim etildi. Bu asarlarda Amir Temur shaxsiga nisbatan hamin qadar adolatli tarzda yondashilgan.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, Amir Temur shaxsini tarixiy manbalar asosida xolis o'rganish ishlari jadallashdi. X.Davron, Sh.Isaxonova, P.Qodirov, B.Ahmedov, H.Dadaboyev kabi tariximiz jonkuyarlari tomonidan Amir Temur va temuriylar shaxsiyatini to'laqonli aks ettiruvchi tarixiy-adabiy, ilmiy-marifiy yo'nalishdagi ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda yozuvchi Xurshid Davronning "Bu voqea olis 1956-yilda bo'lib o'tgan edi"nomli maqolasida Y.Berezikov bilan bog'liq xotiralarini qayd etishni joiz deb topdik. Chunki bu maqolada rus olimi uchun yaratilgan sharoit asli samarqandlik, bu o'lka tarixiga yoshlikdan qiziqqan tarixchi va yozuvchini naqadar hayajonga solgani aks etadi:

"Bu xonadonda ko'rganlarim haligacha ko'z o'ngimda turibdi. Oyoq izi bor qayroqtoshlar ("Avliyolarning izi" — deb izoh bergandi Berezikov), tasavvuf allomalarining muhrlari ("Menda bunaqalar juda ko'p" — maqtangandi Berezikov), ko'hna, ammo, jilosini yo'qotmagan qabrpo'shlar, qator-qator eski kitoblar, bir-biridan chiroyli Qur'oni Karim va boshqa kitoblarning g'ilofdonlari ("Tilla suvi bilan ishlangan" — degan edi Yevgeniy aka) ... Ularning hammasi Shahrabzu Kitobdan, Samarqanddan olib kelingani aniq edi."⁵⁷

Bu osori atiqalarning ko'pchiligi haligacha yurtimizga qaytarilgani yo'q. Dunyoning eng nufuzli muzeylaridan eng noyob

⁵⁷ www.kh-davron.uz

eksponatlar qatoridan joy olgani ham ayni haqiqat. Yuqorida qayd etilgan asarlarning asosiy qahramoni Amir Temur va temuriylarning protiplari aniq shaxslar bo'lsa-da, ularga badiiy jihatdan yondashuv turlichadir. 1941-yil 16-22 iyun kunlarida Sovet Ittifoqi hukumati qarori bilan antropolog Gerasimov tomonidan Go'ri Amir maqbarasidagi Amir Temur, o'g'illari Mironshoh, Shohruh va nabirasi Mirzo Ulug'beklarning qabrlari ochiladi. Bu voqea Rus va Yevropa yozuvchilari orasida Temur shaxsiga nisbatan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Xuddi shu voqealar ta'sirida M.Brion 1942-yilda "Tamerlan" nomli asarini yozgan. Bu asar fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar orasida ancha mashxur bo'lishiga qaramay, tarixiy faktlardan ko'ra badiiy to'qimalarga boyligi bilan ajralib turadi. Birgina shahzoda Umarshayx mirzoning o'limi voqealari bilan bog'liq bo'limda uni yovvoyi va qaroqchi Buyur qabilasi tomonidan talonchilik vaqtida jangda o'ldirilganligi aytiladi.⁵⁸ Xuddi shu voqea X.Davronning "Sohibqiron nabirasi" asarida Umarshayx mirzoning fors yurtidan lashkar tortib otasining "Besh yillik safar"i uchun yordamga kelayotganida Xarmatu qal'asidan otilgan kurd askarining o'qidan halok bo'lganini yozadi.⁵⁹ Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'z asrida ushbu voqeani quyidagicha tasvirlaydi: "Shahzoda cheriki bilan Shuliston yo'lidin yurub, Kurdistondin o'tub, yo'lda bir qal'ada yettikim, ani Xurmatur der edilar va oz kishi anda bor erdi. Shahzoda tafarruj qilmoq uchun ul qal'ag'a yaqin keldi va bir nodon badbaxte qal'adin o'q otib, qazodin ul o'q shahzodaning shurkiga tegib shahid bo'ldi. Farzandi arjumandi shahzoda Pir Muhammad va beklari hayron qolib, hech chora topmadilar. Va bu voqe'a sish o'rtasida, rabi' al-avval oyida, yetti yuz to'qson oltida, tovuq yilda (yanvar, 1394) voqi' bo'ldi. Va shahzoda qirq yil yashab erdi. Cherik yig'lamoq va un tortmoq va faryod bila mashg'ul bo'lub, ul qal'ani yer bila teng qildilar va hech kishini anda tirik qo'ymadilar."⁶⁰

M.Brion Amir Temur shaxsini gavdalantirishda bir yoqlama fikr yuritadi. U bilan bog'liq tarixiy voqealarni badiiy ifoda etishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yadi. Masalan, Amir Husaynning vafoti⁶¹, chap oyog'ining oqsoqligi⁶², mo'g'ul xoni To'xtamishxonni

⁵⁸ M.Brion, "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur", T.; "Yoshlar matbuoti", 2022. 344-378-b.

⁵⁹ X.Davron, "Sohibqiron nabirasi", T.; "Sharq", 1995, 149-151-b.

⁶⁰ Sharafiddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", T.; "Sharq", 1997. 164-b.

⁶¹ M.Brion, "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur", T.; "Yoshlar matbuoti", 2022. 62-b.

tanimasligi⁶³ kabi oddiy ma'lumotlarni berishda ham bir nechta o'rinlarda xatoliklar uchraydi. Asarda Amir Temurni barcha qirg'inlarni dinni ro'kach qilgan holda amalga oshirgan degan xulosa chiqarishga undovchi lavhalar juda ko'p. Umuman olganda bu asar Amir Temur shaxsini to'la anglab yetishda manba sifatida xizmat qila olmaydi.

Amir Temur davlati, farzandlari va nabiralarining yutuqlari zamirida bosh malika – Saroymulixonimning xizmatlari beqiyos. Bu siyosatchi ayol ham juda ko'p tarixiy-adabiy asarlarning bosh obrazi darajasiga ko'tarilgan. Chunonchi, Sh.Isaxonovaning "Bibixonim", X.Davronning "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston" asarlari bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar samarasidir. Sh.Isaxonova malikani Sohibqiron saltanatini yanada mustahkamlash yo'lida qilgan sa'y-harakatlariga urg'u beradi. Amir Temur vafotidan so'ng taxtni egallagan Xalil Sulton va uning sevimli xotini (asli kelib chiqishi oddiy hunarmand oilasidan bo'lgan) Shod mulkning nayranglariga mardona javob qaytaruvchi Amir Temur haramining himoyachisi sifatida tasvirlaydi. Amir Temur kelin tanlashda ularning nasl-nasabiga alohida ahamiyat bergan. Ammo muhabbat hech qachon nasl-nasab yoki mavqe tanlamaydi. Buni Xalil Sultonning Shod Mulkka bo'lgan muhabbatida ham ko'rish mumkin. Shahzoda bobosining qaxridan panohtilab Saroymulxonimga yolvoradi. Bu voqealar X.Davronning "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston"ida tarixiy faktlarga asosan hikoya qilinadi.⁶⁴ Ayni shu voqea sabab Xalil Sulton bobosi nazaridan qoladi. Xalil Sulton, Shod Mulk va Bibixonim o'rtasidagi tortishuvlar davomida har bir obrazning badiiy qiyofasi keskin dramatik sahnalar vositasida o'quvchiga tanishtirib boriladi. Xalil Sulton taxtga o'tirgandan keyin uning nomidan saroy ahlini boshqarayotgan malika va Bibixonim orasidagi suhbatda psixologik konflikt kulminatsion nuqtaga ko'tariladi. Oddiy hunarmand oilasidan chiqqan Shod Mulk va shavkatli mo'g'ul hukmdori Chingizxon xonadoniga mansub, Amir Temurning bosh maslahatchisi, saroyning ulug' malikasi Bibixonim ruhiy olamiga xos jihatlar dialog vositasida ochiqqlanadi. Yozuvchi

⁶² O'sha asar, 66-b.

⁶³ O'sha asar, 99-b.

⁶⁴ X.Davron, "Sohibqiron nabirasi", T.; "Sharq", 1995, 74-b.

ikki ayol shaxsini taqqoslar ekan, xarakterlarga o‘ziga xos tarzda yondashadi. Muallif Shod Mulkning psixologik holatini “chimirilgan qoshlari yoyilmoq”, “buyruq ohangida kesib gapirmoq”, “nozlanmoq”, “g‘azablanmoq”, “yuzlari g‘azabdan bo‘g‘riqmoq”, “ensasi qotmoq”, “chidolmasdan gapga qo‘shilmoq” kabi birliklar orqali tasvirlaydi. Bu ham yozuvchining xarakter yaratish borasidagi so‘z qo‘llash mahorati, inson ichki dunyosi va tashqi muhit o‘rtasidagi aloqadorlikni teran ifoda eta olishidan darak beradi. Ayni damda Bibixonimning psixologiyasidagi eng iztirobli vaziyat Amir Temur bilan quyidagi xayoliy suhbat asnosida ochib beriladi:

“Ha, men xato qildim, ulug‘ Amirim! Nega siz mening so‘zlarimni tingladingiz! Nega bu ilonni o‘zingiz yanchmadingiz? Men tirnoqqa zor bir Bandai ojizingiz, bul yuzi qaro juvonning “homilam bor” degan yolg‘onlariga, qasamlariga ishonibmen. Uning vujudidagi avlodingiz mening aybim birlan zavol topmasin deb andesha qilibmen. Amirim, armonli farzandsizligim pand bermish... Tushlarimdagina allalar kuylab tebratganim go‘daklarimga mengzabmen uni!”

Bu vaziyatda ulug‘ malikaning oddiy ayol sifatidagi portreti ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bir umr temuriy shaxzodalar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan, bu bilan o‘z farzandsizlik dardini bir qadar unutgan zaxmatkash ayolning qalbida taxt qutqusi va ayol makrining qurboniga aylangan nabirasiga nisbatan achinish va nafrat hissi uyg‘onadi.

Asar yakunida kichik malika To‘kal xonimning tush tasviri keltiriladi:

“Bir payt tepamizga hazrat keldilar, - hozirgina yuragiga vahima solgan voqealar tiniqlashib, manzaralar xayolida qayta tiklana boshlagan To‘kal xonim tez-tez so‘zladi. – Qo‘llarida ikki otning jilovi. Sizning tulporingiz bilan mening jiyronim. “Sizlarni olib ketmoqqa keldim”, dedilar. “Malika”ngiz birdan hazratimning qo‘llaridagi jilovga tarmashdi. Hazratim g‘azablanib, qamchilari bilan uning yuz-ko‘zi aralash soldilar, keyin birga ketdikmi, qoldikmi, eslolmasmen.”⁶⁵

Shod Mulk va Temur harami o‘rtasidagi ziddiyatlar T.Fayziyevning “Temuriy malikalar” asarida ham o‘z aksini topadi. Asarda ma’lumot berilishicha, malika Shod Mulk Bibixonimning

⁶⁵ Sh.Isaxonova, “Bibixonim”. – T.: “DAVR PRESS”, 2011. 302-b.

siyosatidan, saroy ahliga bo'lgan ta'siridan cho'chib 1408-yilda uni zaharlab o'ldiradi va "toshtobut"ga solib mo'miyolanib dafn ettiriladi. Ibn Arabshohda bu haqda shunday hikoya qilinadi: "uning xotinlaridan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika(Saroy Mulk xonim), eng xusndori va sohibjamoli Kichik Malika (To'kal xonim) bo'lib, ular ikkalasi ham Xitoy podshohlarining qizlaridan edi...O'z sevgilisi (Xalil Sulton) uchun xavfsirab, Shodmulk zikr qilingan ikki malikani zaharladi."⁶⁶

"1941-yil Amir Temur qabri ochilganda, "Saroy Mulk xonim qabri ham ochilib, jasadni tekshirish maqsadida Toshkentga olib kelishgan. Keyinchalik yana Samarqandga olib borib qo'yilgan."⁶⁷

Bu haqida adabiyotshunos N.Karimovning "Temuriylar xilxonasining ochilishi" nomli maqolasida ham atroflicha fikr yuritiladi.⁶⁸ Olim Sohibqiron va uning avlodlari qabrlarining ochilishidan asl maqsad va ekspeditsiya ishlarining yakuniga yetkazilmaganidan kuyunadi. Rus yozuvchisi V.S.Vitkovichning "Hayot chambaragi" asarida Bibixonimning qabriga qaytarilmagan jasadi haqida esdaliklarini ilova qiladi.

X.Davronning "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston" asari Bibixonim jasadini Samarqandga qaytarilishi voqealarini badiiy gavdalantirgani bilan alohida diqqatga sazovor. Tarixda va hozirgi kunimizda ham Temur haqida yaratilgan barcha asarlarda Bibixonim obrazi o'rin olgan. Ammo asarning boshqalardan farqi aynan sobiq sho'ro davrida Stalin shaxsiga sig'inish avj olgan pallada bunday jasoratga qo'l urgan Mamat SolihovichYusupov shaxsining yoritilishidadir. Asarni yozishni temuriylar davriga oid tarixiy faktlar bilan bir qatorda V.S.Vitkovichning xotiralaridan ham samarali foydalaniladi. Asar pafosi o'ziga xos, fabula xronikali syujet chizig'i bo'ylab bir tekisda harakatlanadi. Mamat Yusupovning shijoati va qat'iyati tufayli Bibixonimning bir vaqtlar Samarqanddan ilmiy tekshirish bahonasi bilan olib ketilgan, keyinroq barchaning yodidan ko'tarilgan, Toshkent amaliy san'at muzeyining bir burchida olti yil davomida qolib ketgan jasadini yana o'z xilxonasiga qaytarish yo'lidagi mashaqqatlari o'quvchini hayajonga

⁶⁶ Ibn Arabshoh "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur", 2-kitob, T.: "Mehnat", 1992. 83-b.

⁶⁷ T.Fayziyev, "Temuriy malikalar". – T.: "Xalq merosi", 1994, 12-b.

⁶⁸ N.Karimov, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2021-yil, 5-noyabr, 45 (4652)-son.

soladi. Mamat Solihovichni yaqindan tanigan olim L.M.Rempelning hikoya qilishicha, hammollar, Toshkentdan Samarqandga uchgan samolyot, yuk mashinasi haydovchisi bilan bo'lgan barcha voqealar haqiqat. Shu o'rinda to'rt hammoldan birining qalbiga yozuvchi ezgulik urug'ini qadaydi. Bu esa yozuvchining "Dunyoni ezgu niyatli kishilar qutqaradi" degan badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ming bir mashaqqat bilan Samarqandga olib kelingan jasad davlat idoralari uchun haqiqiy tashvishga aylanadi. Xalq orasida bu voqea katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Mana shu voqealar asarda Yusupov va u yashaydigan jamiyat o'rtasida konfliktni yuzaga chiqishida muhim omildir. Atrofida yuz berayotgan voqealar, odamlarning unga bo'lgan munosabati oxir-oqibat tarixchining psixologik holatiga ta'sir o'tkazdi. Aslida mutasaddi tashkilotlarning vazifasini o'z zimmasiga olib, yana xuddi shu tashkilotlarning ruxsati bilan amalga oshirgan ishlari uchun rahbariyatning nafratiga uchragan yana bir millatimiz oydinining umid chiroqlari so'ndi. Bibixonim voqeadan keyin boshqa muzeyga ishga o'tkazilgan Mamat Solihovich Yusupov uzoq yashamadi. Muzey eksponatlarini sotishga yo'l qo'ymaganligi uchun hamkasblari tomonidan zaharlandi. Ijodkor bu holatni tasvirlashda yana Bibixonimga murojaat qiladi. O'limi oldidan ko'ziga nayza ushlab olgan ikki qora sharpani ko'rdi:

“- Kimsanlar?

- Biz seni olib ketishga keldik.

U bugun uni oshga taklif qilib kelgan ikki muzey xodimi ovozi tanidi.

-Nima deysanlar?”

- Biz seni qatl maydoniga olib borishimiz kerak. Tepadan shunday buyruq tushgan. Oldimizga tush.”⁶⁹

Qatl maydoniga olib ketilayotgan Yusupov Bibixonim va chingiziylarlar bosqinida butun oilasidan ayrilgan, birgina kitobni yonayotgan gulxandan tortib olgan bolakay siymolarini ko'rdi, ular bilan suhbatlashdi. Ammo qalb ko'zlari ko'r bo'lgan ikki gumroh faqatgina zulmatni ko'rdilar. Bolakay Yusupovni qatl maydoniga olib ketayotgan ikki sharpani tanidi: “Ular o'sha jome masjidi va kutubxonani yondirib maroqlanib tomosha qilayotgan, ko'zlarida

⁶⁹ X.Davron, “Sohibqiron nabirasi”, T.; “Sharq”, 1995, 78-b.

qahr va sovuq bo'shliq hukmron, yondirilgan kitoblar va shaharlar kuli tirnoqlari ostini qoraytirgan, pishirmay yegan go'sht qoni qotib, qasmoq bog'lagan lablari mahkam qisilgan to'dadan edilar.”⁷⁰

Oradan qariyb yetti asrlik vaqt o'tishiga qaramay, bu vaxshiy to'da xalq va millat oydinlarining qoniga tashna. Adib bu o'rinda shafqatsiz mo'g'ul bosqini va sho'ro tuzumining xalqimiz ma'naviyatiga ta'sirini parallel ravishda keltirishidan maqsad har ikki tuzum ham odamlar yuragiga qo'rquv solib, ularni boshqarish yo'lini tanlaganidir. Asar so'ngida, Yusupovda hayot nishonalari so'na boshlagan chog'da, uni olib ketishga Bibixonimning quyidagi so'zlari butun boshli asarning mazmunini tashkil etadi: “Yo'q, qattol dunyodagi Samarqandda bizlarni unutgan odamlar yashaydi. Bugundan boshlab seniham unutishadi. Biz esa hamma narsani yodida saqlagan odamlar yashaydigan Samarqandga ketamiz.”⁷¹ Uch kishi: Bibixonim, Mamat Solihovich Yusupov va bolakay Samarqandga yo'l oldilar.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz tarixini unuttirishga to'sqinlik qilgani, ularni ma'rifatli qilishga bo'lgan urinishlari uchun jadidlar xalq dushmani sifatida otuvga hukm qilingan bo'lsa, buyuk ajdodlarimiz ruhiga hurmat saqlagan, ularning xotirasini unutmagan yusupovlar ham xoin sifatida o'ldirildi. Ammo ularning xotirasi tarix qatlarida qolib ketdi. Bugungi adabiyotimizning oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ham aynan Yusupov kabi xalq qahramonlarining jasoratini abadiylashtirish va ularni keng kitobxonlar ommasiga tanitishdir.

3.2. “Sohibqiron nabirasi” asarida tarixiy voqelikning badiiy ifodasi

1990 yillarning oxiri millatimiz tarixi, siyosiy va madaniy hayotidagi katta o'zgarishlari bilan ajralib turadi. Bu esa bevosita badiiy tafakkurga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ko'p yillik mustamlakachilik siyosati xalqimizni boy o'tmishidan, adabiy-ma'naviy merosidan bir qadar uzoqlashtirgan edi. XX asrning so'nggiga kelib, maydonga chiqqan vaziyat, milliy istiqlolni qo'lga kiritilishi adabiy jarayonda ham o'z aksini topdi, yangi

⁷⁰ O'sha asar, 80-b.

⁷¹ O'sha asar, 83-b.

adabiyotimizda ham keskin o'zgarishlar davri bo'ldi. Eng avvalo unutilgan tarixni qayta tiklash, ma'naviyatimiz oydinlari bo'lgan buyuk ajdodlarimizning hayot yo'llarini haqqoniy tarixiy manbalar asosida qayta o'rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga ko'tarildi. Chinakam ijodkorlar bu yuksak imkoniyatdan foydalangan holda, Alisher Navoiy ijodi, temuriylarlar davri adabiyoti, milliy uyg'onish va jadidchilik harakati namoyondalarining tarjimai holi va adabiy merosiga yangicha nazar va haqqoniylik tamoyillari asosida yondashdilar. Natijada, tarixning bizga noma'lum sahifalari to'laqonli o'rganildi va xalqimizga taqdim etildi. Bu ulkan tarixiy hodisalar Xurshid Davron ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Dastavval, tarixga o'zgacha mehr va hurmat, qolaversa, teran badiiy ijod uning keyingi asarlarining mavzu va g'oyasini belgilab berdi.

Yozuvchining ijod laboratoriyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda asosan ona tabiatga g'amxo'rlik, barcha zamonlar uchun birday dolzarb bo'lgan ijtimoiy-ma'rifiy muammolar va tarixiy yo'nalishda yozilgan asarlar salmoqli o'rin egallashiga guvoh bo'lamiz. Ijodkor, ayniqsa, tarixiy-ma'rifiy qissalar yaratishda samarali qalam tebratmoqda. Qissa janri hikoya va romandan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Faqat hajmi yoki mazmunidan tashqari qissada, asosan, qahramon hayoti va uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari yetakchilik qiladi. Hikoya janrida voqelik, romanda esa davr xususiyatlari oldingi pozitsiyani egallaydi. Professor D.Quronov o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" darsligida: "Roman muallifi uchun qahramon vosita, - dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi,"⁷² - deya bu uch janr o'rtasidagi farqni izohlaydi.

Nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham Xurshid Davronga qadar qissa janrida juda ko'plab asarlar yaratildi va yaratilmoqda. Lekin har bir ijodkorning o'z "meni", yo'nalishi va boshqalardan ajralib turadigan ijodiy konsepsiyasi bo'ladi.

Xo'sh, Xurshid Davron ijodining individualligi nimada? Ijodkorning "Sharq" nashriyot matbaa konserni tomonidan 1995 yilda nashr etilgan "Sohibqiron nabirasi" tarixiy-ma'rifiy badiyasini tahlilga tortish orqali bu savolga javob izlashga urinib ko'ramiz. Shu

⁷² Д.Қуროнов, Адабиётшуносликка кириш, Т.; "Халқ мероси", 2004, 192-б.

o'rinda badia haqida to'xtalib o'tish lozim. Adabiyotda kishining diqqatini tortadigan asarlarga badia deyiladi. «Badia-fikrning erkin, tabiiy ifodasi. U qalbdagi his-tuyg'ular jo'shganda, fikr pishib etilganda bir turtki tufayli qog'ozga «sochiladi». Badiada zamon va zamondoshlar, san'at va adabiyot haqidagi qarashlar aks etadi; burch, sadoqat, tarix oldidagi mas'ullik hissi haqida mulohaza yuritiladi. Umuman, badia - kishining haqqoniy o'ylari, voqea - odamlarga halol qarashlarni aks ettiruvchi janr.»⁷³ Demak, har qanday badia noyob, nodir va betakror bo'lishi shart. Yozuvchi asarlarida muayyan tarixiy hodisalarga oid o'z fikr-mulohazalariga, asar qahramonlarining real hayotiga doir muhim voqealar tasviriga, peyzajning davr va shaxs ruhiyatiga mosligiga, tahlil etilayotgan jarayonlar xususida kitobxon bilan bevosita erkin muloqotlar qilishga keng o'rin beradi. I.G'ofurovning "Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ikki badia", A.Oripovning "Ehtiyoj farzandi", Sh.Xolmirzaev "Binafsha hidlang, amaki", "Bir vujudida ikki jon" asarlarini janrning yorqin namunalari sifatida ta'kidlash lozim.

"Sohibqiron nabirasi" kitobidan uchta badia o'rin olgan. Bular: "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston", "Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat" va "Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi"dir. Bu badialarni yozishda ijodkor juda ko'p manbalarga tayanadi. Ularni sinchiklab o'rganish natijasida bir-biridan qiziq va nodir badiiy asarlar dunyo yuzini ko'radi. Biz adib tayangan, unga ilhom bergan manbalarning qiyosiy jihatlariga ham to'xtaldikki, chunki har qanday ilmda haqiqatga etish uchun albatta qiyos darkordir. Dunyo tarixida shavkatli Sohibqiron Amir Temur va temuriylar tarixiga bag'ishlab yozilgan minglab asarlarni uchratish mumkin. Bunday asarlar hali Temur tiriklik vaqtlaridayoq bitila boshlangandi. Ammo har bir ishda adolatni sevguvchi odil hukmdorga Amir Temur shaxsiyatini, uning erishgan g'alabalarini bo'rttirib ko'rsatuvchi tarixnavislarning asarlari ma'qul kelmagan. Ammo o'z yurishlari tarixi bitilgan va barcha uchun tushunarli bo'lgan asar yaratishga ishtiyoqi bo'lgani sababli 1401-1402-yillar oralig'ida mashhur tarixchi olim Nizomiddin Shomiyni o'z yoniga chorlaydi hamda yurishlari tarixini tadriijiy tarzda aniq bayon etishni unga topshiradi. Shu tariqa Amir Temur hayoti va yurishlari tarixi

⁷³ Н.Раҳимжонов, Бадиа ҳақида // ЎТА. 1983, № 5, 19-6.

aniq va ishonchli tarzda bayon etilgan ilk tarixiy memuar asar dunyo yuzini ko'rdi. Ammo bu asar voqealari turli sabablarga ko'ra 1404-yil bahorigacha, ya'ni Amir Temurning Ozarbayjondan Samarqandga qaytishi bilan yakunlanadi. 1405-yil 18-fevral – Temur vafotigacha bo'lgan voqealar Hofizi Abru tomonidan nihoyasiga etkaziladi. Ushbu kitob Nizomiddin SHomiy “Zafarnoma”siga “Zayl” ya'ni “Ilova” tarzda yozilgani tarixiy manbalarda qayd etiladi.

Ikkinchi eng ishonchli obekt bu – G'iyosiddin Alining “Ro'znomayi g'azavoti Hindiston” asari bo'lib, u kundalik tarzda Sohibqironning Hindistonga yurishi voqelari haqida hikoya qiluvchi o'ta muhim manba hisoblanadi. Ammo bu asar hushomadlarga boy bo'lgani sababli ulug' Sohibqironga ma'qul tushmaydi.

Bundan keyingi manba shak-shubhasiz Ibn Arabshohning “Ajoib al maqdur fi tarixi Taymur” asaridir. Garchi muallif buyuk sarkardaga nisbatan alamzada kayfiyatda bo'lsa-da, Temurni shaxsan tanigan va shu davrda yashaganligi, voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rganligi jihatidan bu asar ham juda qimmatli manba hisoblanadi. Qolaversa, Ibn Arabshoh Amir Temurning sarkardalik va davlat boshqaruvidagi salohiyatini yuksak baholaydi.

Amir Temur tarixi haqida gap ketganda, eng avvalo, uning shonli yurishlari haqida keng mushohada yuritilgan, har bir voqeaga alohida izoh berilgan to'liq va mukammal asar sanalgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si ta'kidlanadi. Bu asar garchi Temur vafotidan keyin 1424-1425 yillarda yozib tugallangan bo'lsa ham temuriy hukmdor Ibrohim sulton nazorati ostida yozilganligi sababli eng ishonchli manbalar qatoriga qo'shiladi.

Amir Temur saltanati tarixi nafaqat o'z yurtimiz tarixchilari, balki olis o'lkalardan kelgan Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga – Temur saroyiga sayoxat kundaligi”da ham yoritilgan. Bu kundalik 1403-1406- yillar oralig'ida O'rta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlar, Turkiya, Eron hamda Turon zamindagi Temur saltanatiga uyushtirilgan elchilik tashrifi, yo'l taassurotlari, muallifning o'y-fikrlari, o'sha davr Turon zamindagi siyosat, madaniyat, qurilish va obodonchilikka neytral nigoh bilan qaralganligi sababidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Chor Rossiyasi va Sobiq Sho'ro tuzumi davrida Amir Temur haqidagi haqiqiy tarixni ochiq namoyish etish imkonsiz edi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab milliy o'zlikni anglashga, buyuk va shonli tariximizni qayta tiklashga bo'lgan intilishlar kuchaydi. Juda ko'p tarixga qiziquvchi, ta'bir joiz bo'lsa, tarixshunos yozuvchilar Amir Temur tarixini yorituvchi o'nlab asarlarni yaratdilar. Bu boradagi ilk qadamlar sifatida professor B.Ahmedovning 1995-yilda yozilgan "Amir Temur" tarixiy romani, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining 1993-2003-yillar oralig'ida yaratilgan "Ulug' saltanat" roman epopeyalari, 1996-yil O'zbekiston Qahramoni A.Oripov qalamiga mansub "Sohibqiron" dramalari bilan bir qatorda X.Davronning ham xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Xurshid Davronning tarixiy mavzuda yozilgan asarlarining aksari Temur va temuriylar saltanati atrofida birlashadi. "Sohibqiron nabirasi" qissasi buyuk temuriy hukmdor, yulduzlar ilmining bilimdoni Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Mirzoning 600 yilligiga bag'ishlab yozilgan. Asarning bosh qahramonlari Sohibqiron Amir Temur va uning sevimli nabirasi Mirzo Ulug'bekdir. Asar kompozitsiyasi o'ziga xos tuzilishga ega. Syujet Amir Temur va Mirzo Ulug'bek shaxsiyati asosiga qurilgan.

Yozuvchi Amir Temur obraziga faqatgina dunyoning juda katta sarhadlarini egallagan fohish sifatida emas, balki, inson, ota, o'z zamonasining oddiy farzandi sifatida ham tasvirlaydi. U butun boshli imperiyani qattiqqo'llik bilan boshqara oladi, ammo farzand tarbiyalashda, ba'zan esa do'st tanlashda adashadi. Ya'ni nafaqat Amir Temur, balki o'z davrining yetuk shaxslarining barchasi ma'lum ma'noda chegaralangan insonlar ekanligi badiiy bo'yoqlarda aks ettiradi.

Adabiyot ilmida syujetning beshta tipi ajratiladi. "Sohibqiron nabirasi"ning syujeti sintetik tipga mansub. Ilmiy adabiyotlarda bu tipga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Qorishiq tarzli syujet xilma-xil tasvir usullariga suyanadi, tahlil realistik bo'ladi, hayot turli yo'llar bilan to'la ko'rsatiladi, voqea tasviri determinativ (sababli bog'lanish tarzida) ko'rinadi"⁷⁴.

Yozuvchi, eng avvalo, asar voqealari kechadigan hudud Turkiston o'lkasi haqida kitobxonga to'liq ma'lumot beradi. Uning turli davrlarda turlicha nomlangani, bu atamalarning kelib chiqishi, chegaralari haqida tarixiy manbalarga suyanganda keng axborot

⁷⁴ Э.Худойбердиев. Адабиётшуносликка кириш, Т.: "Иқтисод-молия", 2007, 65-б.

berishining o'zi ham yozuvchi mahoratidan, uning faqat tarixni emas, balki toponimiya ilmidan ham xabardor ekanligidan dalolat beradi.

Asarning asosiy voqealari Xuroson hukmdori Amir Temurning kenja o'g'li Shohruh mirzoning vafoti bilan boshlanadi. Tarixda bir podshoh vafot etsa, uning o'rniga da'vogar o'nlab shahzodalar o'rtasida qirg'inbarot janglar boshlanganiga misollar juda ko'p. Dunyoning yarmini egallagan buyuk saltanatlarning emirilishiga ham aslida mana shunday taxt talashishlar sabab bo'lgan.

Shohruh mirzo vafot etishi bilan boshlangan taxt uchun kurash ota-bolani bir-biriga qarshi qo'yadi. Gavharshodbeginning tarbiyasini olgan va uning fitnasiga aldangan Abdullatif mirzo ketma-ket xatolar qiladi. Bu xatolarning eng mudhishi va tarixda uning nomini bir umrga qora bo'yoqlarda yozilishiga sabab bo'lgan voqea o'z otasiga qarshi qilich ko'targani hamda kekxa hukmdor joniga qasd qilgani bo'ldi. Tarixning bu mash'um hodisasi keyinchalik yuzlab tragediyalarning yaratilishi uchun zamin bo'ldi. Xurshid Davron ham bu voqealarni badiiy bo'yoqlarda o'ta mohirlik bilan ifoda etgan. Asar fabulasi juda puxta o'ylangan. Mirzo Ulug'bekning tug'ilishi va Umarshayx mirzoning vafoti bilan bog'liq sahnalar badiiy jihatdan pishiq, har qanday kitobxon qalbida bir o'qishda muhrlanib qoladigan tarzda tasvirlangan. Amir Temur hayotidagi muhim voqealar unga ilohiy tushlar vositasida oldindan ayon bo'lganligini badiiy asarlarda juda ko'p uchratamiz. Umuman olganda, tush xronotopiga Xurshid Davron asarlarida tez-tez duch kelamiz. Amir Temurning tug'ilishi va uning dunyo tarixida o'chmas nom qoldirguvchi buyuk sarkarda bo'lib etishishi ham otasi Muhammad Tarag'ayning tushida zohir bo'lganligi xalq orasida juda keng tarqalgan. Umarshayx mirzoning vafoti haqidagi sovuq xabar kelmasidan avval ota tush ko'radi:

"Tushida bundan o'n sakkiz yil avval to'satdan olamdan ko'z yumgan to'ng'ich farzandi Muhammad Jahongirni ko'rdi.

...birdaniga uning yonida Umarshayx paydo bo'ldi.

...ikkala o'g'li ham oppoq libosda edilar.

... ikkala o'g'li ham yetti-sakkiz yasharli paytlaridagi qiyofada edilar.

...u olisdan turib nimalarnidir gapirayotgan o'g'illari tomon chopa boshladi, ammo u etib bormasdan o'g'illari oppoq qushlarga aylanib uchib ketdilar.

Vahima aralash uyg'ondiyu, ko'rgan tushi nimaga ishora ekanini sezgandek, yuragida qattiq og'riq paydo bo'ldi.”⁷⁵

Darhaqiqat, jahongirning yuragi aldamadi. Oradan bir necha kun o'tgach, o'g'lining vafoti haqidagi shum xabar etib keldi. Ammo shu kunlarda Sultoniya qolgan Saroymulkxonimdan ham maktub keldi. “Iloyim, tinchlik-omonlik bo'lsun! – degan o'y bilan muhrini buzib, ipak bog'ichni echdi. So'ng maktubni yoyib, unga ko'z tashladi, soniya o'tmay chehrasi yorishdi, ko'zlarida quvonch jimirladi. Savlatli qomatini tiklab xitob qildi:

-Allohu akbar! Allohu akbar!”⁷⁶

Bu quvonchning sababi shahzoda SHohruh mirzoning farzandli bo'lgani edi. Buyuk Sohibqiron hali o'zi ko'rmagan bu go'dakni e'zozlab unga o'z padarining nomini berishi ham bobo va nabira o'rtasida o'zgacha mehr-muhabbatning shakllanishiga sabab bo'lgandir, balki. Tarixiy solnomalarda, xususan, Nizomiddin Shomiyda Muhammad Tarag'ayning tug'ilishi sharafiga Mordin shahri aholisi ommaviy qatli omdan qutulib qolganligi haqida dalillar mavjud:

“Bu xabar Amir Sohibqironning sharaflari quloqlariga etgach, shodon bo'lib, shukronasi uchun Mordin mamlakati va uning aholisini ozod qildi hamda u viloyatni ilgariroq (o'sha erda) hokim bo'lib turgan Sulton Solihga muqarrar qildi.”⁷⁷

Asarning shu qismida yana bir tasvirga e'tiborni qaratish kerak.

“Taxti oliyda o'tirgan Amir Temur to'satdan malika Saroymulkxonim maktubini keltirishlarini talab qildi. Maktubni ochib, qayta-qayta o'qib chiqar ekan, ko'zi namlandi, kipriklari pirpiradi, ammo bo'g'ziga tiqilib kelgan vovayloni ichiga yutar ekan, mahzunhol shivirladi:

-Ey, Alloh, hukmingg'a shukrlar bo'lsun!..

Uni hayratu hasratga solgan narsa maktubda qayd etilgan nevarasi tug'ilgan sana edi. Maktubga binoan Muhammad Tarag'ay

⁷⁵ X.Даврон. Соҳибқирон набираси, Т.: “Шарк”, 1995, 149-150 бетлар.

⁷⁶ X.Даврон. Соҳибқирон набираси, Т.: “Шарк”, 1995, 153-6.

⁷⁷ Н.Шомий. Зафарнома, Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 199-б.

jumodulavval oyining o'n to'qqizinchi kunida dunyoga kelgan. Agar bu haqiqat bo'lsa... Birdan Amir Temurning nafasi qisildi... Axir, aynan mana shu sanada ko'zining qorasi, nuridiydasi Umarshayx o'ldirilgan edi-ku!..."

Tarixiy haqiqatga asoslanadigan bo'lsak, Umarshayx mirzo 1394 yil yanvar oyida vafot etganiga guvoh bo'lamiz. Mirzo Ulug'bek hazratlari esa 1394 yil 22 martda dunyoga kelgan va aprel oyi o'rtalarida Sohibqironga bu xabar etib kelgan. Ammo yozuvchi karami keng Alloh bir qo'li bilan olsa, boshqasi bilan berishiga ishora tarzda har ikki voqea bir kunda sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Bu ham ijodkorning badiiy niyatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Har qanday tarixiy mavzudagi asarda ma'lum darajada badiiy to'qima bo'lmasa, u shunchaki voqealar bayoniga o'xshab qoladi. Xurshid Davron tarixiy manbalarga tayanib voqealarni realligicha bayon qiladi. Qahramonlarning xarakterlari, ularning o'y-fikrlarini, ichki his-tuyg'ularini ochib berishda mahorat bilan yondashadi. Ma'lumki, tarixiy solnomalarda faqat voqaelarning mazmuni, bo'lib o'tgan davri va geografik hududlariga ahamiyat qaratilgan. Mana shu faktlarga tayanib har bir ijodkor o'z ijodiy uslubini ishga solgan holda bir-biriga mutlaqo o'xshamaydigan betakror asarlarni yaratadilar.

Qissaning eng ta'sirchan nuqtasi Usmonli Turk davlatining sultoni Boyazid Yildirimga qarshi jangdan keyin o'liklarga to'lib toshgan janggohda sodir bo'ladi. Bu erga o'g'lini qidirib kelgan ona asarning eng go'zal va jonli obrazidir. Garchi bu qahramon tarixiy jihatdan hech bir manbada ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ammo jangu-jadallardan iborat o'rta asrlardagi eng keng tarqalgan umumlashma siymo sifatida deyarli barcha badiiy asarlarda o'z o'rniga ega. YOzuvchi ona obrazini shunday mahorat bilan yaratadiki, uning to'qima obraz ekanligiga qaramay beixtiyor ko'zlaringizga yosh quyiladi. Janggohdan o'z o'g'lining jasadini olib ketayotgan ona bexos ingragan tovush eshitib o'sha tomonga bordi. O'z o'g'liga ikki tomchi suvday o'xshaydigan bu yigit dushman qo'shiniga mansub edi. Balki jang vaqtida o'g'liga jarohat ham etkazgandir. Ona bularni o'ylab o'tirmaydi. Farzandi qatori uni ham uyiga olib ketadi. O'z farzandi jangda shahid bo'ldi, ammo bu yigitning ko'zlarida hali umid shami o'chganicha yo'q. Ona obrazi hamisha

mehr-muhabbat va shafqat ramzi bo‘lib kelgan. Bu asarda ham dushman yigitni uyiga olib ketayotgan onaning qalbi mehrga to‘la.

“Uyga olib borib liboslarini almashtirish kerak! Bo‘lmasa, qo‘shnilar uni o‘ldirib qo‘yishlari turgan gap...YArasi og‘ir, ammo tangri marhamat qilsa, tirik qolishi mumkin. Bechoraning onasi hozir nima qilayotgan ekan-a?”

Bir mushtipar ona siymosida janglarning haqiqiy daxshati, ulardan inson ongida qoluvchi ma’naviy talofatlarning beqiyosligi, ayriliq azobi, ona jasorati va fidoyiligining butun manzarasi namoyon bo‘ladi.

Asar davomida Amir Temur va Mirzo Ulug‘bekning murakkab hayot yo‘li, turfa taqdirlari va birgalikda kechgan ma’sud onlari tarixiy faktlarga asoslangan holda badiiy bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Ijodkor nasri asos faktlar to‘liq sharhlangani va turli tarixiy manbalardan iqtiboslar keltirilganligi bilan bu tipdagi boshqa asarlardan farqlanadi. YOzuvchi ham ilmiy ham badiiy jixatdan voqealarga yondashadi. Tarixiy haqiqat va sharoitga mos keluvchi badiiy topilmalar yaratadi. Badiiy to‘qimadan ko‘ra ilmiy asoslar bilan ishlashni afzal ko‘rgan yozuvchining individualligi ham shunda.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davronning bu badiasi tariximizni o‘rganishda nafaqat adabiyotga qiziquvchilar, balki tarixchilar uchun ham muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Bu kabi tarixiy voqealarning badiiy talqini yozuvchining “Samarqand xayoli”, “Alg‘ul”, “Shahidlar shohi” kabi asarlariga ham ko‘chgan. Bu asarlarning har biri o‘tmishimizni yanada aniq va yorqinroq anglab etishimizda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olamini yuksaltirishda xizmat qiladi.

3.3. Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi” asarida temuriylar tarixining badiiy talqini

Folklor asosida muayyan xalqning badiiy-estetik tafakkuri, milliy va umuminsoniy qadriyatlari, o‘tmishga hurmat va kelajakka ishonch motivlari aks etadi. Millatning tarix maydoniga chiqishi, taraqqiyoti va mentaliteti, albatta, xalq og‘zaki ijodi namunalarida tadrijiy ifodalanadi. Folklorga oid manbalarning negizida xalq hayotining muhim va nozik qirralari goh lirik, ba’zan liro-epik

shaklda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun aynan xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni xalq hayotining boshlang‘ich nuqtasidan xabar beruvchi manbalar sifatida baholash mumkin bo‘ladi. Demak, bashariyatning uzoq yillik rivojlanish dinamikasi, tarixiy-ijtimoiy hayot yo‘li afsona, ertak, rivoyat va dostonlarda o‘z aksini topgan. Eng qiziq jihati shundaki, bu janrdagi asarlar u yoki bu shaklda zamonaviy adabiyotga ham ko‘chadiki, bu tabiiy va zaruriy jarayon desak bo‘ladi. O‘zbek xalq folklori janrlari orasida afsona va rivoyatlarning badiiy talqini ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ular yozuvchi yoki shoirning badiiy niyati taqazosiga ko‘ra, ikkiga bo‘linadi:

1. Inson va uning axloqiy-ma’naviy kategoriyalarini ochishga xizmat qilgan afsona va rivoyatlar.

2. Tarixiy shaxslar, joy nomlari va voqealar haqidagi afsona va rivoyatlar. Ko‘pgina nazariy manbalarda afsona va rivoyat ba’zan bir-biriga yaqin, ba’zida esa alohida janr sifatida ko‘rsatiladiki, masalaning murakkab jihati ham ana shundadir. Bu ikki janr hajm va syujet jihatidan bir-biriga juda o‘xshash, ayni damda farqli jihatlariga egaligi bilan murakkablik tug‘diradi. Shu o‘rinda ikki janrning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz. Manbalarda “afsona” so‘zi sehr-jodu va uydirma bilan bog‘liq holda izohlangan bo‘lib, masalan, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Afsona – 1. xalq og‘zaki ijodi (folklor) janri. U xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsa-da, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davri, makon ham ko‘rsatiladi.

2. Ko‘chma ma’noda – uydirma, yolg‘on, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan gap”.⁷⁸ Mazkur istilohga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa quyidagicha ta’rif berilgan: “Afsona – hikoya, naql, uydirma. 1. Folklor janri: avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan uydirma, to‘qimadan iborat, ba’zan diniy mazmundagi hikoya, rivoyat.”⁷⁹

Berilgan izohlardan ham ma’lumki, afsona janri uchun uydirma asos qilib olingan. Bunday g‘ayritabiiy, xayol va hayot voqeligi

⁷⁸ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси А ҳарфи Давлат илмий нашриёти 800-б.

⁷⁹ Ўзбек тилининг изохли луғати А ҳарфи Ўзбекистон Миллий энциклопедияси А ҳарфи Давлат илмий нашриёти Т.: 95-б.

qorishmasidan iborat bo'lgan afsonalar nasldan naslga meros bo'lib o'tar ekan, uning albatta variantlari paydo bo'lishi tabiiy hol. Buyuk yunon faylasufi Aristotel afsonalarni "haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalar" deya sharhlaydi. Bu ta'rif afsona janri uchun aynan mos keladi.

Afsonadan farqli o'laroq, rivoyatlar zahirida tarixiy voqelik va aniq shaxslar haqidagi og'izdan og'izga o'tib kelgan hikoyalar yotadi. Ular, asosan, uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Afsonalarga xos bo'lgan sehrli buyumlar, g'ayritabiiy kuchlar rivoyatlar tarkibida deyarli uchramaydi. Rivoyatlarning asosiy qahramonlari real hayotda mavjud, faqat boshqalardan ko'ra kuchliroq bilim, qobiliyat va salohiyatga ega bo'lgan ayrim shaxslardir. Mana shunday shaxslar sirasiga A. Navoiy, Z.M. Bobur, A.Temur, N.Kubro va boshqa ko'plab tariximizda muhim o'rin tutgan buyuk siymolarni keltirishimiz mumkin. Ular haqida xalq orasida juda ko'p rivoyatlar tarqalgan. Bu rivoyatlar ajdodlar tomonidan sayqallanib avlodlarga so'zlab beriladi. SHu tariqa ular xalq qalbida mangu yashab qoladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida ham sermahsul ijod qilayotgan adiblardan Xurshid Davron ijodida Samarqand, temuriylar tarixi, tarixiy shaxslar obraziga ko'proq murojaat etilishini kuzatamiz. Bunday asarlarni yozishda badiiy mahorat, yozuvchilik iste'dodidan tashqari bilim, xalq o'tmishi bilan bog'liq manbalardan xabardorlik ham talab etiladi. Xurshid Davron lirikasida ham, dramalari va nasrida ham tariximizning shonli va qorong'u nuqtalarini yoritib berishga harakat qiladi va badiiy niyatiga muvaffaqiyat bilan erishadi. Uning Amir Temur hayotiga bag'ishlangan "Sohibqiron nabirasi" asarida "Amir Temur o'g'lining o'limi haqidagi rivoyat" keltirilgan bo'lib, Amir Temur shaxsiyati, inson sifatidagi kechinmalarini yorqinroq tasavvur etishda muhim o'rin tutadi. Chunki rivoyat bevosita uning otalik va hukmdorlik his-tuyg'ulari orasidagi qarama-qarshiliklarni nozik ilg'ashga yordam beradi.

Adibning ta'kidlashicha, mazkur rivoyat afg'on xalqi orasida keng tarqalgan bo'lib, sohibqironning aynan Hindistonga yurishi bilan bog'liq jihatlardan xabardor etadi. Lekin rivoyatda Amir Temurning aniq qaysi o'g'lining o'limi tasvirlangani ochiqdanmaydi. Ma'lumki, buyuk sarkarda hayotlik chog'idayoq ikki o'g'lidan judo bo'ldi. To'ng'ich o'g'li Jahongir mirzo 20 yoshida xastalikdan vafot

etgan bo'lsa⁸⁰, ikkinchi o'g'li Umarshayx mirzo 1394-yil SHom urushi vaqtida o'qdan yaralanib vafot etganligi haqida tarixiy faktlar mavjud. Amir Temur topshirig'iga binoan uning yurishlari tarixini yozgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida shahzodaning bevaqt o'limi haqida shunday satrlar uchraydi:

"Amir Sohibqiron SHom tomoniga yurishni iroda qilgan paytida unga kishi yuborib, chaqirtirgan edi. Farmonga binoan yo'l yarog'ini tayyorlab SHerozdan chiqib, Amir Sohibqiron hazratlarining oyog'ini o'pishga etish uchun Bag'dod yo'li bilan jo'nagan holda Bag'doddan to'rt manzil masofadagi kichik bir masofadagi kichik bir mavzega etdilar. U joy Xarmotu deb atalar va unda bir nechta sanoqli uy bo'lib, qandaydir odamlar yashar edilar. Jahon amirzodasi sayr qilib, u mavzega etdi. Bir kishi o'q otayotgan edi, tasodifan qazoyi nogahondan bir o'q kelib amirzodaga tegdi. Shu ondayoq turgan joyida halok bo'ldi. Falakning tang kamonxonasi chiqib, arsh havosining kengligiga etdi".

Rivoyatda bir qator temuriy shahzodalar orasida Pirmuhammad Jahongirning nomi alohida tilga olinadi. Bu shahzoda har jihatdan: kuchda, aqlida, shiddatda, qat'iyatda va hatto tashqi ko'rinish jihatidan ham Amir Temurga juda o'xshar edi. Bu o'xshashlikdan ba'zan Temurning o'zi ham hayratga tushib, Allohning qudratidan lol qolar edi. Balki shuning uchun ham Amir Temur vafoti oldidan aynan shu nabirasini dunyoning yarmini egallagan, fathlar natijasida qo'lga kiritgan buyuk davlatiga valiahd tayin etgandir. Qolaversa, shahzoda Sohibqironning to'ng'ich o'g'li, bevaqt vafot etgan Jahongir mirzoning ikkinchi farzandi edi. Bu shahzoda otasining vafotidan qirq kun o'tib dunyoga kelganligi uchun Amir Temur uni o'g'lining omonati sifatida ham qadrlar edi. SHu bois ularning tarbiyasi, tahsiliga ham ayricha e'tibor qaratgan.

Hindiston yurishi davomida bosh ko'targan afg'on qabilalarini bo'ysundirishda ham Pirmuhammad Jahongirni yonida olib yurgan. Amir Temurning farmoniga asosan Mo'ltan yurishiga o'tlanish oldidan aynan Pirmuhammad Jahongir afg'onlar orasidan o'ziga sadoqat qasamini ichgan Lashkarshoh afg'onni qal'aga kutvol etib tayinlaydi. Muso afg'on boshchiligidagi isyonkor afg'onlar Temur

⁸⁰Низомиддин Шомий. Зафарнома. Ўзбекистон. Т.: 1996. 416-б.

shaharni tark etishi bilan yana qal'ani qo'lga kiritadilar va shahzoda tomonidan tayinlangan kutvolni qatl etadilar. Amir Temur dushmanining orasidagi xiyonatkorlar ko'magida qal'ani osongina qaytarib oladi. Rivoyatning shu nuqtasida asosiy obrazlar ota va o'g'il asar syujetiga kirib keladi. Asarda ikki ota va ikki o'g'il obrazi markaziy tushunchalardir. Asardagi ota obrazlari: xiyonatkor jiybaxonachining otasi, ya'ni chol va buyuk sarkarda – Amir Temurning hukmdorlikdan oddiy ota timsolidagi metamorfozasidir. Bu o'rinda o'g'illar timsoliga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki biri o'z xalqiga xiyonat qilib, Amir Temurga qal'a darvozasini ochib bergan va bu "xizmati" evaziga buyuk fotihdan marhamat kutgan nobakor bo'lsa, ikkinchisi g'animga qarshi mardona jang qilgan, hatto vujudini parcha-parcha qilib o'ldirilganda ham dushmanga g'alaba shavqini surishga yo'l qo'ymagan shahzodadir. Bu obrazlar o'rtasida ma'naviy va axloqiy jihatdan juda katta farq bor. Lekin insonga xos ota-o'g'il munosabatlarida ikkisi ham teng. Amir Temur farzandining jang ichidagi taqdiri noma'lum ekanligini eshitiboq, uzoq yillar tayyorgarlik ko'rilgan va jahongirning necha yillik orzusi bo'lgan Hindiston safaridan ortga qaytdi. Amir Temur farzandining daragini bilish uchun kechayu kunduz jang qildi. Tongga yaqin tush ko'rdi. Bir zumgina davom etgan uyquda farzandining taqdiri ayon bo'ldi.

"Osmon-u falakdan quyilgan kumush shu'la og'ushida bir ayol belanchak tebratardi. Belanchak iplari qaerga osilgani bilinmasdi. U ayolni tanidi – u Tegin Mohbegim, onasi edi. Ammo beshikda o'g'li yotardi... "Ota, - dedi o'g'li jilmayib, Ota..." Birdan o'g'lining tovushini eshitdi. "Onajon!..."⁸¹

Shu tush asar kompozitsiyasida Amir Temurning "ota" sifatidagi xislatlarini ochib berishda muhim vosita sanaladi. Yozuvchi Xurshid Davron mazkur vaziyatni badiiy talqin etar ekan, aynan tush motivini mahorat bilan asarga singdirganini kuzatamiz. Ya'ni tushdagina Amir Temur har qanday davlat mas'uliyatidan holi, jangu jadallar urholaridan yiroq oddiy inson o'laroq namoyon bo'ladi. Uning ham ruhiyat qatlamlaridagi otalik mehr-muhabbati, o'z taqdiri bilan yolg'iz qolgan kishi ekanligi tasvirlanadi. Tushda

⁸¹ X.Давроа. Сохибқирон набираси. Шарқ.Т.: 1995. 110-б.

yoʻzuvchi aynan oʻtmishga ekskurs qiladi, qahramon qalbini oʻtmish, hozir, kelajak prizmalaridan oʻtkazishga intiladi. Yaʼni, Amir Temurning tushiga onasining kirishi oʻtmish, oʻgʻlining tushda namoyon boʻlishi hozir, uning bola qiyofasiga qaytib qolishi tasviri esa mudhish kelajak xabaridan darak beradi. Tushdan seskanib uygʻongan Sohibqiron koʻzidan beixtiyor bir tomchi yosh oqishi ham nihoyatda jonli tasvirlangan. Bunday holat birinchidan, oʻta darajada qoʻrqqanda, quvonchli damda yoki kuchli azob natijasida sodir boʻladi. Demak, bu tomchi koʻz yosh Amir Temurning oʻzining tushi taʼbiridan hosil boʻlgan qalb ogʻrigʻining inʼikosi hamdir. Umuman, mazkur asarda Amir Temur taqdiri bilan bogʻliq jihatlarni bayon etishda tush xronotopi muhim oʻrin tutadi. Oʻzining taqdiri, boʻlajak jang yoki safarlarning nihoyasi qanday barham topajagi haqidagi bashoratlarni sarkardaga ilohiy tushlar orqali bayon qilingani haqidagi faktlarni koʻpgina tarixiy asarlarda ham uchratishimiz mumkin. Butun umri jang-jadal ichida kechgan ulugʻ hukmdor yulduzlar ilmiga ham qiziqqan, munajjimlarning fikrlariga quloq osgan.

Amir Temur jang asnosida bu tush taʼsiridan chiqib keta olmaydi. Qalʼa butunlay vayron etilganda, shohchodirda yolgʻiz qolgan Sohibqiron bir zumga koʻzini yumdi. Ammo uxlamadi. Kechagi tush koʻz oʻngida gavdalandi. “Bu safar onasi yoʻq edi. Belanchak ham boʻm-boʻsh edi. “Oʻgʻlim, oʻgʻlonim...” – deya pichirladi Amir Temur”.⁸²

Amir Temur qalʼani fath etgach ham, oʻgʻlining taqdiri haqida maʼlumotga ega emas edi. Temur qalʼa fathiga kirishgan ilk kundan boshlab, taqdiri jiybaxonachining otasi taqdiri bilan bogʻlandi. Ikkisining hayot yoʻllari tez-tez kesishib turdi. Oʻgʻlining oʻlimi xabarini ham Sohibqironga mana shu chol etkazdi. Amir Temur va cholning qisqa diaologi ham asarda muhim oʻrin tutadi. Unda bu dunyodagi mavqemizdan qatʼiy nazar barchamiz yagona Allohning bandasi ekanimiz va uning hukmlariga soʻzsiz itoat etishimiz haqida purmaʼno fikrlar oʻrin olgan. Bu fikrlar, asosan, chol tomonidan bildiriladi. Amir Temur bu mulohazalarni maʼqullaydi. Shu oʻrinda qadim eposlarga xos idilliyaviylik maydonga chiqadi. Chol Amir

⁸² Ўша асар. 119-6.

Temurga tong mahali bir yigitning qatl etilgani xabarini aytadi. Xuddi shu vaqt yoz bo‘lishiga qaramay, tong mahali yomg‘ir yog‘gan va butun borliqni shishaday artib tozalagan edi. Xuddi shu pallada Temur tush ko‘rgan: onasi, belanchak va o‘g‘li. Inson zoti biror narsa haqida juda qattiq o‘ylansa, shu hodisa uning butun xayolini, xatto uyqusini ham band qiladi. Ayniqsa, bir-biriga qalban yaqin insonlarning ahvollari bir-biriga tushlar orqali ayon bo‘lishi tez-tez uchrab turuvchi hodisa. Tush ko‘rish insonning psixologiyasi bilin bog‘liq jarayon bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tush, tush ko‘rish – uyquda sodir bo‘ladigan subektiv psixik hodisa... Tushda uyqudagi kishi aniq va tasvirli kechinmalarning shohidi bo‘ladi. Tushdagi voqealar bir-biriga bog‘liq, biroz noaniq, hayajonli tus oladi... Tushning xususiyati kishining nerv sistemasi tipiga, uning sog‘ligiga, ma’lum davrdagi kechinmalariga bog‘liq”⁸³

Tushga vafot etgan yaqin qarindoshlarning kirishi mavjud xavf-hatardan ogohlantirish, o‘z taqdirini bilib olishga ishora hisoblanadi. Temur esa bunday tush ta’birlarini juda ko‘p eshitgan va ularning ayrimlari uning hayotida o‘z tasdig‘ini bir necha bor isbotlagan. U ko‘rgan tushlarining ilohiy ekaniga ishonar edi. Barcha hodisalar tabiiy. Xatti-harakatlar tabiiy. Temur necha yillardan beri sarkardalik qilayotgan bo‘lsa, shu davr ichida hech kim uning ko‘ziga tik qaragan emas. Hamma uning qahridan qo‘rqadi. Biror zot uning ham oddiy inson ekanligini, unda ham odamga xos xatolar, pushaymonlik bo‘lishi mumkinligini o‘ylab ko‘rmaydi. Yolg‘iz mana shu cholgina unga haqiqatni ayta oladi. Alloh oldida hamma teng.

Cholning qatl manzarasi haqida aytganlarini tinglagan Temur farzandining matonatidan, sabridan g‘urur tuydi va buni hech kimdan yashirmadi. Ammo cholning so‘nggi so‘zlari o‘g‘lining yuragini sug‘urib olayotganlarida birgina “Oh” tortishi “hukmdor” va “ota” obrazlarini bir-biriga zid qo‘ydi. Bu mubohasada zohiran hukmdor enggan bo‘lsa-da, ammo asliyatda ota sifatidagi Temurning dilida buyuk bir og‘riq paydo bo‘ldi. Buni rivoyatdagi quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

-Yo‘q, u yigit mening o‘g‘lim emas!

⁸³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: 2004, VIII жилд. – 685-б.

Shu gapni aytishi bilan Sohibqironning ko‘z o‘ngini bir zum kumush yog‘du to‘sdi. Kumush yog‘du aro chayqalgan belanchakni ko‘rdi. Biroq belanchak bo‘sh edi. “O‘g‘lim!” – deya tovushsiz o‘rtandi jahongir.

Endi tarixiy faktlarga tayanib rivoyatda keltirilgan shahzoda kim ekanligi haqida fikrlashsak. Ma‘lumki, rivoyatda afg‘onlar isyonini bostirishda Pirmuhammad Jahongir mirzo Amir Temur bilan birga bo‘lgani aytilgan. Isyonchi kutvol va jiybaxona boshlig‘ini qatl etish jarayonida ham Temur yonida shahzoda bo‘lgan. Amir Temur unga davlat boshqaruvida zarur bo‘lgan ko‘rsatmalarni bergan. O‘z otasidan eshitganlari asosida keyingi hayot tajribasini ham mujassamlashtirgan holda bir qancha muhim vazifalarni unga topshirib, o‘zi esa uzoq vaqtlardan beri rejalashtirilgan Hindiston safariga yo‘l oladi.

Ma‘lumki, buyuk Sohibqiron o‘zi egallagan o‘lkalarning podshohlarini also kamsitmagan, ularga keyinchalik ham shohlarga ko‘rsatiladigan marhamatni ko‘rsatib, o‘z saroylarini qaytarib bergan. Faqat endi ular mustaqil podshohlik emas, Temurga tobe edi. Hukmdor ularning barchasini o‘z o‘g‘illari safida ko‘rgan va ularga turli viloyatlarni suyurg‘ol shaklida in‘om etgan. Rivoyatda keltirilgan shaxzoda ham xuddi shunday Temurning “xos” o‘g‘illaridan biri bo‘lishi mumkin. Chunki Amir Temur hayotining so‘nggi kunlarida Pirmuhammad Jahongirni o‘ziga valiahd etib tayinlaydi. Barcha arkoni davlatdan, sarkardalardan valiahdga sodiqlik qasamini oladi. Ammo Amir Temur vafotidan ko‘p o‘tmay uning vasiyati ko‘pgina amirlar tomonidan inkor etiladi va Pirmuhammad Jahongir 1407-yil saltanat uchun kurashlar davomida qatil Pir Ali Toz tomonidan o‘ldirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchidan, Amir Temur o‘g‘lining o‘limi bilan bog‘liq voqea afsonadan ko‘ra ko‘proq rivoyat janriga mos keladi. Ikkinchidan, “Temur tuzuklari”ida bu voqeaga doir faktlar uchraydi. Uchinchidan, tarixiy ildizlariga ega voqeani rivoyat, ishonish mumkin bo‘lmagan, aql bovar qilmaydigan voqealarni afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Zamonaviy milliy adabiyotimiz o‘zanlarini tahlil qilganimizda xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot hamda jahon adabiyoti namunalari bilan uyg‘unlashgan muhtasham asarlarga boyligi ko‘zga tashlanadi.

Demak, mazkur asarlar rang-barang mavzulari va betakror janr ko‘lami qolaversa, yuksak badiiyati bilan O‘ZBEK ADABIYOTI degan kahkashonda birlashadi. Bir tomondan, milliy uyg‘onish davrining jadal kechishi, so‘z san‘ati sahnasiga jadid ziyolilarining chiqishi, ikkinchi tomondan g‘arb badiiy tafakkuri, ijod tizimiga xos yo‘nalishlarning kirib kelishi adabiy jarayonni turli rakurslarda boyishiga zamin hozirlagan edi. Mana shu poetik sarzamindan bahra olgan haqiqiy ijodkorlar yuqoridagi barcha jihatlarni o‘z iste’dodi vositasida bu adabiyotga katta hissa qo‘shdi. Xurshid Davron ana shunday ijodiy fazilatlarga ega shoirdir. Ijodkor asarlarini har tomonlama o‘rganish, shaxsiy qarashlari, ruhiy olami, intellektual tafakkuri bilan bog‘liq badiiy-estetik omillarni mushtarak tadqiq etish yangi ilmiy xulosalar chiqarishga olib keladi. Xurshid Davron asarlari nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki millat tarixi, mentaliteti, qadriyatlari, o‘ziga xos xususiyatlarini ham aniqlashda muhim manba bo‘la oladi.

“Bahordan bir kun oldin”, “Qaqnus”, “Shahardagi olma daraxti”, “Qadrdon quyosh” she’riy to‘plamlari, “Sohibqron nabirasi”, “Samarqand xayoli” nasriy asarlarini tadqiq etish jarayonida lirik qahramon va ijodkor uyg‘unligi parallel ekanligi aniqlandi. Negaki, shoirning individual xususiyatlari, tarjimai holidagi muhim nuqtalar lirik qahramon tabiatida ham aks etishi mumkin. Xurshid Davronning lirik qahramoni shoir kabi sinchkov, o‘ychan, tarixiy voqeliklar haqiqatini inkishof etishga shaylangan, yillar sinovida toblanib, qarama-qarshiliklar jarayonida yuksalib borgan shaxsiyatdir.

Xurshid Davron lirik, epik, liro-epik, dramatik tur doirasida parallel ijod qilmoqda. Lirikasida asosan to‘rtlik, oltilik, sakkizlik, ba‘zan uchlik ko‘rinishidagi she‘rlar ham uchraydi. Ijodining kamolot pallasida uchlik shaklida o‘ziga xos ifoda yo‘siniga ega asarlar ham yaratmoqda.

Shoir adabiy merosida Vatan va tarixiy shaxslar obrazi eng ko‘p qalamga olingan. Shoir bu boradagi o‘tinchlarini, Vatan qayg‘usi va quvonchini, ajdodlar yodu hasratini doim ham ochiq yozgan emas. Shuning uchun she’riyatida “kitob asramaydigan odam”, “yaproq”, “maysa”, “ayol”, “ko‘cha”, “tun”, “surat”, “so‘z”, “xanjar”, “daraxt”, “oy” kabi unsurlarni asar mazmun-mundarijasiga mahorat bilan singdiradiki, bu obrazlarda shoir ruhiy holati va lirik qahramon tasviri mujassamlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 446 б.

2. Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август, № 153.

3. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 102.

4. Мирзиёев Ш. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ) // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь. – № 218 (7448). – Б. 1-2.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

Milliy nashrlar

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I том. – Т.: Фан, 1978. – 416 б.

2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Т.: Фан, 1979. – 448 б.

3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 1991. – 384 б.

4. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фан, 1992. – 248 б.

5. Аҳмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Т.: Zilol buloq, 2020. – 156 б.

6. Бадиий ижод ҳақида. Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, –Т.: 1960. – 276 б.

7. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари (Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси) – Т.: Академнашр, 2015. – 288 б.

8. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955.– 511 б.

9. Бобоев Т. Қаҳрамон образини яратиш принциплари. // Ўзбек тили ва адабиёти. № 1. 1970. Январь-февраль. “Фан” нашриёти. – Б. 20.

10. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Т.: Фан, 1992. – 104 б.

11. Боқий Н. Қатлнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1992. – 151 б.

12. M.Brion, “Menkim, Sohibqiron – jahongir Temur”, Т.; “Yoshlar matbuoti”, 2022.

1. Dadaboyev X., Holmonova Z., Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Т.: - “Tafakkur bo‘stoni”, 2015.

2. Davlatova A. Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji. Т.: - “Tafakkur”, 2021.

3. Дониёрова Ш. Ижодкор ва услуб. – Т.: 2001. – 160 б.

4. Ёқубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. –Т.: Nurafshon business, 2021. – 344 б.

5. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Шарафиддинов О. таржималари). – Т.: Маънавият, 2010. – 391 б.

6. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.

7. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. – 204 б.

8. Ibn Arabshoh “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur”, 2-kitob, – Т.: “Mehnat”, 1992.

9. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Т.: “O‘qituvchi”, 2005. 272-b.

10. Isaxonova Sh. “Bibixonim”. – Т.: “DAVR PRESS”, 2011. 302-b.

11. Fayziyev T. “Temuriy malikalar”. – Т.: “Xalq merosi”, 1994.

12. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.

13. Йўлдошов Қ., Йўлдошова М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2015. – 464 б.

14. Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2018. – 504 б.

15. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2016. – 364 б.

16. Каримов Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. –Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 96 б.
17. Каримов Н. Чўлпон. – Т.: Шарқ, 2003. – 464 б.
18. Karimov N. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2021-yil, 5-noyabr, 45 (4652)-son.
27. Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70– 80-йиллар). Монография. – Т.: Янги нашр, 2018. – 320 б.
19. Мирвалиев С. Тарихийлик ва замонавийлик. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 196 б.
20. Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 240 б.
21. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий кашфиёти. – Т.: MASHNUR-PRESS, 2018. – 208 б;
22. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Т.: Мухаррир, 2010. – 220 б.
23. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – 223 б.
24. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – 272 б.
25. Носиров Ў. Образларда услуб жиолари. – Т.: Фан, 1991. – 196 б.
26. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. Т.: - “Фан”, 2012.
27. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: Шарқ, 2007. – 336 б.
28. Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. (Адабий суҳбатлар). –Т.: Академнашр, 2016. – 224 б.
29. Rahimjonov N. “Badia haqida” // О‘ТА. 1983, № 5.
42. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2004. – 134 б.
43. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. - Т.: Tamaddun, 2019.
44. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом НМИУ, 2018. – 308 б.
45. Улуғов А. Қалб қандили. – Т.: Akademnashr, 2013. – 288 б.

46. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Халқ мероси, 2004. – 250 б.

47. Usmanova, Z. (2023). Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi” asarida temuriylar tarixining badiiy talqini. O‘zA, (5).

48.Z.I.Usmanova. Xurshid Davronning folʼklor motivlaridan foydalanish mahorati. Filologiya taʼlimi masalalari: muammo va uning echimlari” mavzusidagi xalqaro-amaliy anjuman materiallari toʻplami. Fargʻona: 2022.

49. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Нашрга тайёрловчи Х.Болтабоев. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.

50. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият, 2011. – 320 б.

51. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. –Т.: Akademnashr, 2018. – 480 б.

52. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”, T.; “Xalq merosi”, 2004.

53. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. –Т.: Шарқ, 2018. – 712 б.

54. Қўшжонов. М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994. – 136 б.

55. Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. –Т.: 1962. – 140 б.

56. Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. –Т.: Turon zamin ziyo, 2017. – 160 б.

57. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Шарқ, 2008. – 368 б.

58. Xudoyberdiyev E. “Adabiyotshunoslikka kirish”, T.: “Iqtisod-moliya”, 2007.

59. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Sheʼrlar toʻplami. – Т.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat” nashriyoti, 1986. 208-b.

60. Xurshid Davron. “Qadrdon quyosh”. – Т.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979, 55-b.

61. Xurshid Davron. “Bahordan bir kun oldin”. – Т.: “Sharq”, 1997.

62. Xurshid Davron. Sohibqiron nabirasi. T.: - “Sharq”, 1995.

63. Xurshid Davron. Samarqand xayoli. - Т.: Kamalak, 1991.

64. Ўзбек адабий танқиди (антология). –Т.: TURON-IQBOL, 2011. – 544 б.

65. О‘zbekistonning yangi tarixi. О‘zbekistan sovet mustamlakachiligi davrida //Tuzuvchilar: M.Jo‘raev, R.Nurullin, S. Kamolov va b; — Т.: “Sharq”, 2000.

66. О‘zbek tilining izohli lug‘ati Q harfi. – Т.: “О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

67. О‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Qurolli kuchlar akademiyasi. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Т.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

68. О‘z.R. F.A. Adabiy turlar va janrlar. 2-jild. Lirika. Т.: - “Fan”, 1992.

69. О‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi A harfi Davlat ilmiy nashriyoti. 2000

70. О‘zbek tilining izohli lug‘ati A harfi О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Т.: 2006

71. О‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. VIII jild. – Toshkent: O‘zME, 2004

72. Ўлжабоев У. Ҳикоячиликда давр нафаси. –Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – 256 б.

73. Sharafiddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma”, Т.; “Sharq”, 1997. 164-b.

74. SHomiy N. “Zafarnoma”, Т.: “О‘zbekiston”, 1996.

Internet saytlari

75 <https://t.me/xurshiddavronkutubxonasi>

76 wikipedia.uz

77 <https://oyina.uz/uz/article/686>. Tarix va talqin mas’uliyati – Abdulhamid Ismoilning “Jinlar bazmi yoxud katta o‘yin” romani tahlili (I qism).

78 <https://oyina.uz/uz/article/688>. Tarix va talqin mas’uliyati – Abdulhamid Ismoilning “Jinlar bazmi yoxud katta o‘yin” romani tahlili (II qism)

79 <http://diss.natlib.uz>

80 <https://www.researchgate.net>

81 <http://ziyonet.uz>

82 www.dissercat.com

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TARIXIY SHAXS OBRAZI MASALASI.....	8
1.1. Badiiy asarda prototip va obraz masalasi	8
1.2. Tarixiy voqelik tasvirida fakt va talqin muammosi.....	15
1.3. Shoir ijodida ayol obrazining badiiy ifodasi	22
1.4. Xurshid Davron she’rlarida bobur tasviri.....	26
II BOB. YOZUVCHI NASRIY ASARLARIDA BADIY VOQELIK TASVIRI.....	34
2.1. Yozuvchi asarlarining xronotop tizimi.....	34
2.2. Xurshid Davron ijodida harbiy leksika	38
2.3. Xurshid Davronning folklor motivlaridan foydalanish mahorati.....	44
2.4. Xurshid Davron ijodida navoiy obrazi talqini	48
III BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXI XURSHID DAVRON TALQINIDA.....	53
3.1. Xurshid Davron ijodida amir temur va temuriylar obrazi	53
3.2. “Sohibqiron nabirasi” asarida tarixiy voqelikning badiiy ifodasi	60
3.3. Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi” asarida temuriylar tarixining badiiy talqini.....	68
XULOSA	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	78

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon Qizi

**XURSHID DAVRON IJODIDA
TARIXIY FAKT VA BADIY
TO‘QIMA UYG‘UNLIGI**

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 4,6. Shartli bosma taboq 4,9.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10